

**O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

Termiz davlat universiteti

**Yomg'ir Abdurasulov
Anvar Omonturdiyev
Nasiba Raimnazarova**

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

(fonetika-fonologiya, orfoepiya, grafika, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya)

**O'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun
qo'llanma**

(to'ldirilgan uchinchi nashri)

I

Termiz-2011

**Abdurasulov Y., Omonturdiyev A.,
Raimnazarova N.**

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

**(O'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun
qo'llanma)**

Universitet Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas'ul muharrir: professor J.OMONTURDIYEV

**Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori,
professor D.S.QULMAMATOV, filologiya
fanlari nomzodi,
dotsent B.U. UMURQULOV**

SO'ZBOSHI

Respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi oliy maktabda ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, talabalar uchun yangi, zamonaviy o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar yaratish va ular bilan o'tkaziladigan nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishni hozirgi davr kun tartibining dolzarb masalalari qilib qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy maktab ilmiy jamoalari oldiga qo'yilayotgan yuksak talablarning boisi ham shundadir.

Oliy maktabda o'zbek tilshunosligi fani va uning barcha sohalarini, ayniqsa, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursini ana shu talablar darajasida o'qitish, buning uchun mavjud darslik va qo'llanmalarni yangi mazmun asosida qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilmoqda. Chunki ular nazariy jihatdan eskirmagan bo'lsa ham, darslik va qo'llanmalar matnlaridagi iste'moldan chiqqan ayrim so'z va iboralar, atamalarni almashtirish zarurati paydo bo'ldi.

To'g'ri, bu sohada respublika universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari tilshunos olimlari tomonidan ancha ishlar qilindi, shunga qaramay, hali yechimini topa olmayotgan ayrim masalalar mavjudki, bu holat «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursi bo'yicha tuzilgan barcha darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruza matnlarida ham ko'zga tashlanadi.

Kursning mazmun va mundarijasi, maqsadi aniq, chunki u «Hozirgi o'zbek tili» bo'yicha hozirgacha yaratilgan mavjud adabiyotlar asosida tuzildi. Kursning hamma qismlarida har bir mavzuni yoritishda o'qishning hozirgi bakalavriat tizimi asosidagi dastur va o'quv rejalariga amal qilindi.

«HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI»NING XUSUSIYATLARI VA UNING TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARI

reja:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari

a) hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek xalqining milliy tilidir;

b) hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari;

c) hozirgi o'zbek adabiy tili va uning qarindosh turkiy tillar bilan aloqasi;

d) o'zbek tili va uning boshqa tillar bilan aloqasi.

2. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning tarixiy taraqqiyot jarayonlari

a) adabiy til haqida tushuncha;

b) qadimgi turkiy adabiy til;

c) eski o'zbek adabiy tili;

d) hozirgi o'zbek adabiy tili.

3. Xulosa.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek xalqining milliy tilidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili shu tilda so'zlashuvchilarning hammasi uchun baravar aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan umumxalq tilidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik tizimi, asosiy lug'at tarkibi va grammatik qurilishi qadim turkiy tillar manbaida yuzaga kelgan bo'lib, davrlar o'tishi bilan uning tovushlar tizimida sifat va miqdor o'zgarishlari yuz bergan. Lug'at tarkibi asosiy lug'at fondi negizida yasalgan yangi so'zlar hisobiga boyib, kengayib borgan, grammatik qurilishi ham yangi-yangi grammatik formalar vositasida silliqdashgan va takomillashgan. Bu til o'zbek xalqining butun tarixi davomida shu tilda so'zlashuvchi yuzlab avlodlar tomonidan yaratilgan til bo'lib, u shu til vakillarining ijtimoiy ahvoli, sinfiy tabaqalanishi, yoshi, jinsi, kasbi va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, ularning ham-masi uchun umumiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy ma'lumotlar va yozma yodgorliklarga qaraganda, o'zbek tili XI-XII asrlarda yozma shaklga ega bo'lgan xalq tili sifatida shakllangan. XIII-XIV asrlar o'zbek adabiy tilining ilk davrlari bilan xarakterlanib, o'zbek yozma adabiyoti o'z o'rnini barqaror egallagan.

Keyingi davrlarda uzoq tarixiy jarayon XIV-XV, XVII-XVIII, XVIII-XIX va ayniqsa, XX asrning I yarmi o'zbek adabiy tilining takomillashuv va taraqqiyot jarayonlari bo'ldi. Ana shu uzoq tarixiy jarayonda o'zbek tili o'zining barcha xususiyatlari bo'yi-cha

sifat o'zgarishlariga uchrab, milliy til shakliga kirdi.

Ma'lumki, millatning eng muhim belgilaridan biri uning til birligidir. Har qanday millat ijtimoiy jamoa a'zolarining barchasi uchun umumiy bo'lgan til birligiga ega bo'lmay turib millat sifatida uyushishi, uning tili milliy til shakliga kirish mumkin emas. Biroq millatning millat sifatida shakllanishi uchun faqat til birligining o'zigina kifoya emas. Buning uchun millat sifatida uyushadigan jamoa o'zining har tomonlama chegaralanmagan, tayziqsiz hududiy butunligi, iqtisodiy turmush, madaniy va, eng avvalo, ma'naviy barqarorligiga ega bo'lishi lozim. Ana shu sifatlarning barchasi mavjud bo'lgandagina millat millat sifatida qaror topadi, tili esa uning yagona milliy tili bo'lib qoladi. Ammo bu sifatlar birdaniga vujudga kelmaydi. Ular uzoq vaqt mobaynida tarkib topib, rivojlanib, ma'lum davrda yuzaga kelgan qulay shart-sharoit natijasida millatni tarkib topdiruvchi muhim belgiga aylanadi. Xalqning millat sifatida, xalq tilining milliy til sifatida tarkib topishi milliy adabiy tilning asosiy qurilishining o'zgarishigagina emas, balki tilning bajaradigan vazifasi doirasini ham kengayishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari

Hozirgi o'zbek adabiy tili ko'p dialektli milliy tildir. Har qan-day tilning boy dialektal tarkibga ega bo'lishi, uning qurilish jihatdan boyligini, salobatini, ulug'vorligini ko'rsatadi. O'zbek adabiy tili tarkibidagi yirik-yirik lahjalar, mahalliy dialektlar va ko'plab shevalar o'zbek tilining quyi formasi hamda tarmoq-laridir. Ular o'zbek tilining doimiy takomilini ta'minlovchi man-badir, shuning uchun ular o'zlarining yuqori formasi bo'lgan yagona o'zbek milliy adabiy tiliga bo'ysunadi va uning taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

O'zbek tilshunoslari orasida o'zbek dialektlari hozirgacha turlicha tasnif qilinib kelindi:

- 1) til xususiyati jihatidan;**
- 2) hududiy (territorial) jihatdan;**
- 3) etnik jihatdan.**

Til xususiyatiga ko'ra o'zbek mahalliy dialektlari dastlab «o» lovchi va «a» lovchi dialektlarga ajratilib, «a» lovchi dialektlar yana ikkiga bo'linadi:

- a) «y» lovchi, ya'ni «y» undoshi bilan yo'q deb gapiruvchi she-valar;**
- b) «j» lovchi, ya'ni «j» undoshi bilan jo'q deb gapiruvchi she-valar.**

Hududiy jihatdan o'zbek dialektlari uch guruhga ajratiladi.

1. Markaziy dialekt. Bunga asosan O'zbekiston respublika-sining markaziy shaharlarida yashovchi xalqi shevalari kiradi.

2. Xorazm dialekti. Bunga hozirgi Xorazm viloyati janubida va Janubiy Qozog'iston viloyatining Iqon, Qornoq, Qorabuloq, Mankent qishloqlarida yashovchi o'zbeklar

shevasi kiradi.

3. Janubiy o'zbek shevalari yoki qishloq shevalari. Bunga Toshkentning sharqiy tomonida, Ohangaron vodiysi va Chirchiq daryosi bo'ylarida, Farg'ona vodiysidagi qishloqlarda, Jizzax va Samarqand shaharlari atrofida, Xorazmning shimoliy, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida, Janubiy Qozog'iston vilo-yatining shimoliy qismida yashaydigan aholi shevalari kiradi.

Etnik xususiyatiga ko'ra o'zbek dialektlari chig'atoy, qip-choq, o'g'uz dialektlariga bo'linadi.

Mahalliy o'zbek dialektlari, bundan tashqari, singarmonizmli va singarmonizmsiz, eronlashgan va eronlashmagan o'zbek shevalariga ham bo'linadi. Bu bo'linish o'zbek dialekt va sheva-larining xususiyatlarini to'liq ko'rsata olmaydi, chunki singar-monizmli o'zbek shevalari til xususiyatiga ko'ra faqat «a» lovchi shevalargagina xos bo'lsa, boshqa hamma dialekt va sheva-larda bu xususiyat yo'q. O'zbek dialektlarining eronlashish eronlashmaslik xususida ham shunday deyish mumkin, chunki O'zbekiston hududlaridagi hamma dialekt vakillari juda qadim zamonlardan boshlab tojiklar bilan hamnafas yashab kelgan, ularning ijtimoiy turmush sharoitlari, madaniyati va urf-odatlarini deyarli bir xil bo'lgan. Ularning bir-biriga qarshi qurol ko'tarib chiqqanini tarix eslolmaydi, lekin bosqinchi yovlarga qarshi har vaqt bir jon, bir tan bo'lib qarshi kurashganlar. Ularning hududiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy yaqinligi tilda ham o'z ifodasini topmay qolmagan. Tojik tili o'zbek tiliga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, o'zbek tili ham tojik tiliga shunday ta'sir ko'rsatgan. Tojik va o'zbeklar aralash, zich joylashgan ayrim hududlarda esa hatto o'zbek va tojik, tojik va o'zbek ikkitilliligi tarkib topgan. Bu ikkitillilik o'zbek va tojiklar uchun ham umumiy, tojik va o'zbek tili elementlarini o'zida aks ettirgan o'ziga xos qurama grammatik qurilishiga ham ega bo'lgan.

Mahalliy o'zbek dialektlarini hududiy jihatdan chegaralab ko'rsatish ham qiyin, chunki bunday tasnifning u qadar ma'qul emasligini shunda ham ko'rish mumkinki, birgina «a» lovchi sheva va dialekt vakillari faqat O'zbekiston Respublikasining qishloq tumanlarida emas, Qozog'iston va Tojikistonning Janubiy viloyatlarida ham hayot kechiradi, va asosan, shu dialekt va shevalarda o'zaro muloqotda bo'ladilar.

Mahalliy o'zbek dialektlarini tekshirish va o'rganish hamda ularni tasnif qilishning eng to'g'ri yo'li dialektlarni o'z til xususiyatlariga qarab guruhlashtirishdir. Bu dialektlararo umu-miylikni va har bir dialektning boshqa dialektlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishini ochib beradi. Dialektlararo bu farq va o'xshashliklarni o'zbek tilshunosligining maxsus sohasi dialektologiya fani o'rgatadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning qarindosh turkiy tillar bilan aloqasi

Tillar o'rtasidagi aloqa til taraqqiyotini belgilab beradigan eng muhim omillardan biridir. Bu sohada, ayniqsa, qarindosh tillar o'rtasidagi munosabat shu tizimdagi barcha tillarning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'rta Osiyo va Qozog'iston hududlaridagi o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz va turkman tillari o'zaro aloqalari buning yorqin misolidir.

Eslatma: tillar o'rtasidagi aloqalar haqida gap borganda, qarindosh tillar o'rtasidagi aloqa, qardosh tillar o'rtasidagi aloqa hamda noqardosh tillar o'rtasidagi aloqalarni bir-biridan farq-lash kerak. Bu aloqalarning hammasida ham – tillarning qisman fonetik tizimida, grammatik qurilishida, ko'proq leksik tarkibida o'zaro ta'sir va o'zgarishlar yuz beradi, lekin bu o'zgarish-larning tabiati ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi.

Qarindosh tillar etnik – kelib chiqish jihatidan bir negizdan tarqalgan, bir oilaga mansub tillardir. Bunday tillar o'rtasidagi aloqa azaliy va adabiy bo'ladi, masalan, o'zbek va qoraqalpoq, o'zbek va ozarbayjon, o'zbek va oltoy tillari o'rtasidagi aloqa shunday aloqadir.

Qardosh tillar aloqasi ikki yo undan ortiq qadimiy hamdo'st, uzoq davrlar davomida o'zaro hamjihat yashab kelayotgan, hududiy yondosh xalqlar tillari o'rtasidagi aloqadir. O'zbek va tojik tillari aloqasini shunday aloqa deyish mumkin, chunki bu ikki xalq uzoq asrlar mobaynida birga, hamnafas yashab kelayotgani uchun ularning tillari ham doimiy o'zaro muno-sabatda bo'lib, o'zbek tili tojik tilidan kirib kelgan olinmalar, tojik tili o'zbek tilidan qabul qilingan olinmalar hisobiga boyib, o'zgarib kelgan.

Noqardosh tillar o'rtasidagi aloqa zo'rlik, hukmronlik siyo-satiga asoslangan aloqadir. Bunda bir mamlakat boshqa bir mamlakat yo yurtlarni istilo qilib bosib olingan mamlakat va yurtlar ustidan o'z hukmronlik siyosatini o'rnatadi, ana shu hukmronlik siyosatini mustahkamlash maqsadida mazlum xalq tillari ustidan o'z tillarining hukmronlik mavqeini tiklaydi. Masalan, o'tmishda arab va o'zbek, arab va fors-tojik, keyin-chalik rus va o'zbek, arab va ayrim kavkaz tillari, aksincha, bularning ta'sirida turkiy va hind tillari o'rtasidagi munosabat ana shunday zo'rlik siyosati asosiga qurilgan. Tillar o'rtasidagi bunday noqardoshlik aloqasining ahamiyatli tomoni shundaki, bunda tillarning o'zaro ta'siri mavjud bo'lmaydi, balki ta'sir faqat bir tomonlama bo'ladi, arab tilining o'zbek tiliga ta'siri kabi. Qarindosh tillar o'rtasidagi aloqa, ayniqsa, bu tillarni qiyos qilganda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Qarindosh tillarning qiyosi bu tillar asos e'tibori bilan bir oilaga mansub bo'lgani uchun ularning fonetik tizimi, leksik tarkibi va grammatik qurilishi, ayrim farq va tafovutlarni hisobga olma-ganda, asosan bir xil bo'ladi. Bu farq va tafovutlar qarindosh tillarning fonetikasi va leksikasida ko'proq bo'lib, grammatik qurilishida u qadar sezilarli bo'lmaydi, chunki tilning leksikasi o'ta o'zgaruvchan

bo'lib, grammatik qurilishda o'zgarishlar asta-sekinlik bilan yuz beradi.

Qarindosh tillar, jumladan, hududiy, siyosiy-iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan Qozog'iston va O'rta Osiyo turkiy tillari va o'zbek tili fonetik tizimi, asosiy fonemalarning son va sifatiga ko'ra qisman bir xillikka ega bo'lsa ham, ular o'rtasida muhim va jiddiy tafovutlar ham mavjud.

Bu farqlar:

Unli fonemalar tizimi bo'yicha:

1) o'zbek tili asosan 6 unlili til bo'lgani holda, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz va turkman tillarida 9-10, hatto 11 unli mavjud;

2) o'zbek tilida unlilar cho'ziq-qisqalik tomonidan farq-lanmaydi, qirg'iz va turkman tili unlilarining har biri so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan, fonematik xarak-terga ega bo'lgan (ading – oting, a:ding – isming kabi) cho'ziq shakllariga ega;

3) aytilayotgan tillarning birortasida ham o'zbek tilidagi o unlisiga mos keladigan fonema yo'q;

4) o'zbek tili hamma turkiy tillar orasida yagona singarmo-nizmsiz til, boshqa qarindosh turkiy tillar, xususan, qirg'iz tilida lab va tanglay garmoniyasi (so'z bo'g'inlaridagi unli tovushlar-ning o'zaro moslashuvi, masalan, qirg'iz tilida qoldor (qo'llar), ko'ldo'r (ko'llar) kabi) juda kuchli.

Undosh fonemalar tizimi bo'yicha:

1) o'zbek va turkman tillarida so'z boshida y undoshi ishla-tilgani holda qozoq tilida sirg'aluvchi j (*yo'l – jol, yo'q – joq, yigit – jigit* kabi), qoraqalpoq va qirg'iz tillarida qorishiq j (*yo'l – jol, yo'q – joq, yigit – jigit* kabi) undoshlari qo'llanadi. O'zbek tilida bu undoshlar faqat tub turkiy so'zlar va chetdan qabul qilingan so'zlardagina farqlanadi: *jon, jajji; mujda, jurna*/kabi;

2) o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz tillarida so'z boshidagi t,k undoshlari turkman tilida d,g undoshlari bilan almashadi: *tosh – dash, til – dil; ko'z – go'z, kel – ge*/kabi;

3) o'zbek tilida so'z oxiridagi g' undoshi turkman tilida g, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz tillarida v,u tovushlari bilan alma-shadi: *tog', dag, tav, tau, tuu; bog', bag, bav, bau* kabi;

4) o'zbek, qirg'iz, turkman tillarida so'z tarkibidagi ch undo-shi qozoq, qoraqalpoq tillarida sh undoshi bilan almashadi: *kuch – kush, och – ash (ochlik), ochiq – asho'q* kabi;

5) so'z oxirida sh-s almashinuvi mavjud: *qo'sh – qos, qish – qo's, bosh – bas, tish – tisk* kabi.

Qiyoslanayotgan tillarning umumturkiy leksik tarkibi, yuqo-ridagi kabi ayrim fonetik farqlarni hisobga olmaganda, angla-tadigan ma'no va vazifalari jihatidan asosan bir xil. Bu tillarning leksik tarkibidagi so'zlar har bir xalqning kundalik

turmush sharoiti va kasb-koridagi farqlar (chorvachilik va dehqonchilik kabi), madaniyat, san'at va yozma adabiyot taraqqiyotining qay darajada ekanligiga bog'liq ayrim so'z va atamalar bilangina farqlanadi.

Grammatik qurilishi: turlanishi va tuslanish paradigmalari, turli grammatik kategoriyalar va so'z yasalishi jihatidan deyarli farqlanmaydi.

**O'zbek tili va uning boshqa tillar
bilan aloqasi**

O'zbek tili o'tmishda faqat qarindosh turkiy tillar bilangina emas, balki bir necha noturkiy tillar bilan ham munosabatda bo'lib kelgan. Asrlar bo'yi davom etib kelayotgan turkiy va noturkiy tillar aloqalaridan biri qardoshlik asosiga qurilgan o'zbek va tojik tillari o'zaro aloqasidir.

Tojik xalqi bilan o'zbek xalqi O'rta Osiyoning eng qadimgi va mahalliy aholilaridandir. Bu ikki xalq, ular umumiy hududiy yaqinlikka ega bo'lganligi sababli ham, ishlab chiqarish, iqtisodiy turmush, madaniy sohalarda, davlatni idora etish va chet el bosqinchilaridan o'lkani birgalikda himoya qilishda doim va uzluksiz hamkorlik qilib kelgan. Bu hamkorlik o'zbek va tojik xalqlarining tillarida, tilning lug'at tarkibi, grammatik qurili-shida o'z aksini topgan. O'zbek xalqi bilan tojik xalqi o'rta-sidagi o'zaro munosabat faqat til qurilishining ayrim jihatlariga bo'lgan ta'sir doirasi bilan chegaralanmaydi. Bu xalqlar bir-biri bilan shu qadar aralashib, chatishib ketganki, o'zbek xalqining etnik tarkibiga tojik urug'lari, tojik xalqining etnik tarkibiga o'zbek urug'lari kirib, singishib ketgan. Shuningdek, til qurilishida ba'zi bir o'xshashliklar vujudga kelgan, o'zbek tilidan anchagina so'z va iboralar tojik tiliga, tojik tilidan o'zbek tiliga o'tgan.

Shubhasiz, o'zbek va tojik tillari o'rtasidagi bu munosabat O'zbekiston va Tojikiston respublikalarining barcha hudud-larida bir xil emas. Har ikki respublika hududining qaysi rayonlarida o'zbek va tojik xalqlariga mansub kishilar birga yashab, ijtimoiy ishlab chiqarishda birga ishtirok etishayotgan bo'lsa, shunday joylarda o'zbek va tojik xalqlari hamkorligi ham, o'zbek va tojik tillari o'zaro aloqalari ham keng rivojlangan. Buning misoli sifatida O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Samarqand va Buxoro shaharlari, Tojikistonning Leninobod viloyati va Qo'rqontepa, Qabadiyon guruh rayon-larini aytish mumkin. Tojikistonning Panhs rayonidagi jamoa xo'jaliklarida birga yashab, birga ishlaydigan o'zbeklar tojiklar bilan bevosita tojik tilida, tojiklar esa o'zbek tilida muloqotda bo'la oladilar. Bu ikki qardosh xalq va qardosh til hamdo'stligi va hamkorligining namunasidir.

O'zbek va tojik tillari o'rtasidagi bu ko'p asrlik hamda o'zaro tenglik aloqalari chegaralangan ayrim rayonlarda o'zbek va tojik ikkitilligi namunalarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ikki tillilik faqat jonli so'zlashuvda emas, balki ilmiy, badiiy asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Bunga buyuk mutafakkir shoir Alisher

Navoiyning quyidagi fikrlari yorqin izoh bo'la oladi: «...turkning ulug'din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilida bahramanddurlar. Andoqkim, o'z xurd ahvolig'a ko'ra ayta olurlar, balki ba'zi fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash'or va shirin guftor zohir qilurlar...».

Noturkiy tillar aloqasida arab tili bilan o'zbek tili o'rtasidagi munosabatni tojik tili bilan o'zbek tili o'rtasidagi munosabat kabi sharhlab bo'lmaydi. To'g'ri, o'zbek va boshqa turkiy, noturkiy tillarda arab tilining ta'siri kuchli bo'lgan, lekin arab tili bilan boshqa tillar, jumladan, o'zbek tili bilan bo'lgan munosabat mohiyat jihatidan qardosh tillar o'rtasidagi muno-sabatdan tamoman farqlangan.

Arablar O'rta Osiyoni zabt qilganlaridan keyin, bu yerda ma-halliy xalqlar o'rtasida islom dinini majburiy ravishda singdira boshladilar. Yerli xalqlarni mahalliy aholi uchun mutlaqo yot bo'lgan arab tilini o'rganishga majbur qildilar. «Qur'on» tilini muqaddaslashtirish va ijtimoiy-siyosiy hukmronlikni mustah-kamlash maqsadida arablashtirish faqat maktab va madrasa-larda emas, butun yozma adabiyotlarda, ma'muriy idoralarning yozishmalarida ham misli ko'rilmagan darajada jadallashtirildi. Bu harakat ayniqsa, IX asr va X asrning boshlarida kuchayib ketdi. Shu davrda yuzaga kelgan ilmiy-falsafiy asarlar deyarli arab tilida yaratildi.

Arab tili-tovush tomoni va grammatik qurilishi jihatidan o'ta murakkab til. Shuning uchun arab tili qurilishi boshqa tizimda bo'lgan tillarga faqat leksik jihatdangina kuchli ta'sir ko'rsata oldi. Arab tilining boshqa tillarga tayziqi qancha kuchli bo'lmasin, arablar hukmronligi ostida bo'lgan xalq va elat tillarining fonetikasi va grammatik qurilishiga deyarli hech qanday o'zgartish kirita olmadi. Lekin arabcha so'zlar hamma tillarning leksik qatlamida anchagina keng o'rin egalladi.

Arab tili leksik elementlari IX-X asrlardan to hozirgacha ko'pgina fors-tojik va turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lishiga qaramasdan, arab tili ta'sirida bo'lgan hamma tillar kabi o'zbek tili ham o'zining asosiy xususiyatini saqlab qoldi. Bu sohada o'zbek tili har qanday tayziqqa chidash beradigan barqaror til ekanini va u har qanday siquvga bardosh berib, unga qattiq qarshilik ko'r-satish kuchiga ega ekanligini amalda ko'rsatdi. Hozirgi o'zbek adabiy tili o'ziga xos, hamma xususiyatlarini mustahkam saqlab qolgan, eng taraqqiy etgan tilga aylandi.

Noturkiy tillar bilan o'zbek tili o'rtasidagi aloqalar, haqida gap borganda, o'zbek va rus tillari aloqalarini ham chetlab o'tib bo'lmaydi. XIX asrning II yarimlaridan boshlab ruslar bilan O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida paydo bo'la boshlagan turli munosabatlar asta-sekin bu xalqlar tillariga, jumladan, o'zbek tiliga ham ruscha elementlarning kirib kela boshlashiga sabab bo'ldi.

Rus tili bilan boshqa tillar, rus tili bilan o'zbek tili o'rtasidagi bu jarayon, ayniqsa,

XX asrda, deyarli butun asr davom etdi. Rus tilining barcha tillarga, shubhasiz, o'zbek tiliga ham ta'siri kuchli bo'ldi. Butun davlat siyosatining rus tilida olib borilishi bu jarayonni yanada tezlashtiradi. Hatto rus tili ikkinchi «ona» tili sifatida ta'riflandi.

Tarix guvohlik beradiki, hech bir hukmron til boshqa bir tilni o'ziga tamoman singdirib ololmagan. Har qanday kuch ijtimoiy tuzumlarni o'zgartirishi mumkin, lekin tilni o'zgartirish qiyin. Har bir tilning o'z ichki taraqqiyot qonunlari bor, u har vaqt ana shu qonunlar asosida harakatda bo'ladi, o'sadi, o'zgaradi, ta-raqqiy etadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning taraqqiyoti.

Adabiy til haqida tushuncha

Adabiy til muayyan grammatik qonun-qoidalar me'yorini o'zi-da shakllantirgan, u yoki bu xalq ba'zan xalqlarning maxsus ish hujjatlari, maktab ta'limi, kundalik yozma munosabatlar, fan, badiiy adabiyot, so'z ifodasidagi turli madaniyat aloqalari uchun umumiy bo'lgan yozma va og'zaki tildir.

Adabiy til o'zining ilmiy ishlanganligi, barqarorligi, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi ijtimoiy jamoaning hammasi uchun umumiy va majburiyligi, uslubiy xilma-xilligi, og'zaki va yozma shaklla-riga ega ekanligi bilan tilning boshqa hamma ko'rinishlaridan farqlanadi.

Adabiy tilning ikki shakli bor:

1. Og'zaki adabiy til.

2. Yozma adabiy til.

Adabiy tilning eng qadimiy shakli og'zaki adabiy tildir. O'zbek og'zaki adabiy tili o'zbek xalqining boy og'zaki ijodi: qo'shiq va laparlari, ashula va maqollari, ertak va hikoyalari, tarixiy baho-dirlik eposlari, topishmoq va tez aytishlari, askiya va hikmatli so'zlari vositasida shakllangan va asrlar osha nasldan-naslga o'tib kelgan. Og'zaki adabiyotning bu xilma-xil janrlari boyib, kengayib, takomillashib borgan. Bu o'zbek xalq adabiy tilining ham shakllanishi, o'sishi va takomillashishiga imkon bergan.

Adabiy tilning yozma shakli har bir xalqning ma'lum yozuv tizimi va o'quv madaniyati bilan bog'liq. Yozuvning vujudga kelishi, uning amalda qo'llanishi va yozma adabiyotning shakllanishi umumxalq og'zaki adabiy tili negizida yozma adabiy tilni yuzaga keltiradi.

O'zbek xalqi o'zining madaniy tarixida turli yozuv shakllaridan foydalanib kelgan. Qadim davrlardan boshlab, O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi O'rxun- Enasoy, uyg'ur, arab, lotin va rus grafikasi asosidagi yozuv-lardan foydalanib kelgan. Demak, o'zbek yozma adabiy tili ham o'zining boy tarixiy merosiga ega.

O'zbek yozma adabiy tili XIII asrlardayoq shakllana boshla-gan bo'lib, eski o'zbek adabiy tili sifatida XIV-XV asrlarda takomiliga yetkazildi.

O'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot yo'lini uch asosiy bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- 1) qadimgi turkiy adabiy til;**
- 2) eski o'zbek adabiy tili;**
- 3) hozirgi o'zbek adabiy tili.**

Qadimgi turkiy adabiy til

O'rta Osiyo va Qozog'iston hududlaridan topilgan yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning qadimdan o'z madaniyati va o'z adabiy tiliga ega ekanligidan guvohlik beradi. Bu tarixiy manbalar turkiy urug' va qabilalarning eramizdan uch-to'rt asr ilgari mavjud bo'lganini, jamiyat bo'lib tashkil topganini va birgalikda yashab hayot kechirganini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tarixi yangi eraning V asrlaridan boshlab XIV asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrlar yozma yodgorliklari asosan O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvlarida yozilgan.

Til xususiyatiga ko'ra qadimgi yozma yodgorliklar tili hozirgi mavjud turkiy tillarning birortasiga ham to'la mos kelmaydi. Shunga ko'ra qadimgi yozma yodgorliklar tilini hozirgi turkiy tillarning u yoki bu xususiyatlarini o'zida aks ettirgan umum-turkiy yoki qadimgi turkiy adabiy til deyish mumkin.

Masalan, qadimgi turkiy yozma yodgorligidan olingan atigi 8 so'zdan iborat bo'lgan *«siz alima qunchuyuma oqlashma budunima sizima altmish yashimda...»* (siz elim bilan, yorim bilan, o'g'lonlarim bilan, xalqim bilan, siz bilan olmish yoshimda...) matnida «qunchuy» va «budun» so'zlaridan tashqari bar-cha so'zlarning hozirgi turkiy tillar leksikasidagi shu so'zlardan deyarli farqi yo'q. Shunisi xarakterliki, matndagi siz, al (el), og'lon, altmish, yash so'zlari deyarli hamma turkiy tillarda, ayrim fonetik farqlarini hisobga olmaganda, ma'no va qo'llani-shi jihatdan bir xildir.

Matnda mavjud bo'lgan egalik qo'shimchalari -lm//-um, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -a, o'rin-payt kelishigi qo'-shimchasi -da affikslarining qo'llanishi va ma'nosi, gap qurilishi qadimturkiy adabiy til hozirgi barcha turkiy tillarning qadimgi asosi - bobo tili ekanligidan dalolat beradi.

Eski o'zbek adabiy tili

Eski o'zbek adabiy tilining yuzaga kelishi o'zbek xalqining tashkil topishi va qabila tillarining xalq tiliga aylanish jarayoni bilan mahkam bog'liq, chunki xususan XI-XII asrlarga kelib, turli qabila va xalqlarning tarixan o'zbek xalqi bo'lib tashkil topishi uchun yetarli shart-sharoitlar vujudga keldi. XII-XIII asrlarga kelib eski o'zbek adabiy tili shakllana boshladi.

Eski o'zbek adabiy tilining XIV-XV asrlarga oid namunalari sifatida Xorazmiyning

«Muhabbatnoma», Durbekning «Yusuf va Zulayho» asarlarini ko'rsatish mumkin. Lutfiyning o'tkir she'rlari, Navoiy va uning zamondoshlari Sakkokiy va Atoiy g'azallari eski o'zbek adabiy tilining yuksalganligini ko'rsa-tuvchi dalillardir.

Alisher Navoiyning badiiy adabiyotning turli janrlaridagi asarlari, adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasidagi ilmiy ishlari XV asrda eski o'zbek adabiy tilini yuqori taraqqiyot cho'qqisiga ko'tardi. Alisher Navoiy yuksaltirgan bu adabiy til to XX asr boshlariga qadar, o'z mavqeini yo'qotmadi, aksincha ta'sir doirasini tobora kengaytirib, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun mustahkam zamin yaratdi.

XV asr eski o'zbek tilining hamma xususiyatlarini aks ettiruvchi Alisher Navoiy asarlari tili «O'zbek tili tarixi» kursida atroflicha bayon qilinadi. Shunday bo'lsa ham, bu davr tili haqida gapirganda, Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ta'riflamay, chetlab o'tib bo'lmaydi.

Alisher Navoiy asarlari tilining prof. A.K.Borovkov izohlab bergan muhim belgilari tubandagichadir.

Alisher Navoiy asarlari tili fonetik jihatdan unli fonemalar tizimiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tili tarkibidagi Andijon shevasi unlilariga yaqin 8 unliga ega bo'lgan: 4 ta til orqa (a, ɛ, o', u) va 4 ta til oldi (ə, i, ɐ, o'). Qadimturkiy va hozirgi o'zbek tilidan boshqa turkiy tillardagi kabi o' unlisi fonematik (ma'noni farqlovchi) tabiatga ega bo'lmagan. Demak, eski o'zbek adabiy tili ham huddi shunday to'rtta lablangan (o, ɛ, o', u) va to'rtta lablanmagan (ə, i, a, o') unliga ega bo'lgan.

Undosh fonemalar Alisher Navoiy asarlari tilida (demak, eski o'zbek adabiy tilida ham) hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undoshlardan farqlanmagan, chunki Navoiy asarlarida o'g'iz tillariga xos k//g, t//d, qipchoq tillariga xos sh//s, q//v kabi tovush almashinishlari uchramaydi, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida undosh tovushlarning qo'llanishi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi shu xususiyatlardan farqlanmaydi.

Leksik jihatdan Alisher Navoiy asarlarining tili, garchi asos e'tiboriga ko'ra hozirgi o'zbek milliy adabiy tilining lug'at tarkibi bilan teng bo'lsa ham, ayrim farq va tafovutlardan ham holi emas. Bu farq va o'xshashliklar eski o'zbek adabiy tili yoki Navoiy yashagan davr tili nuqtai nazaridan Alisher Navoiyning o'zi tomonidan uning «Muhokamat-ul lug'atayn» asarida batafsil ko'rsatib berilgan. Navoiy o'zi yashagan davr tili leksikasi haqida fikr yuritir ekan, bu davr leksikasi ma'no ifodalashda rang-barang xususiyatlarga ega ekanligi (*yig'lam-sinmoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'jarmoq* fe'llari orqali), bu tilning omonim va sinonimlarga juda boyligi, so'zning ko'p ma'noliligini, juda boyligini ko'plab misollar orqali aniq yoritib beradi.

Morfologik jihatdan Navoiy asarlari tilida o'zbek tilining morfologik belgilari bilan bir qarorda qisman o'g'iz guruh tillariga xos bo'lgan -mish affiksi orqali yasalgan

sifatdosh formasi (o'lmisham-bo'lganman, bog'lamishman-bog'laganman kabi), fe'lining boruralli, istaram, qilmon kabi turli zamon ma'nolarini anglatuvchi formalar ham uchraydi. XV asr tilida uchraydigan bu kabi formalar, ayrim turkshunos olimlar taxmin qilganidek, bu Navoiyning o'g'uzlar bilan qandaydir yaqinlik belgisi emas. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

- 1) bu qadimturkiy yoki eski o'zbek tiliga xos umumiy xusu-siyat;
- 2) o'zbek xalq ijodining qadimgi namunalarida o'zbek-xorazm dialekti bilan ozarbayjon va turkman tillarini yaqinlashtiruvchi elementlar bo'lib, Navoiy asarlariga o'g'iz elementlari folklor orqali o'tgan bo'lishi mumkin.
- 3) o'tgan adabiy-madaniy merosdan keng foydalanish muno-sabati bilan xorazm adabiyoti an'alarining Navoiy asarlari tiliga o'tgan bo'lishi ehtimol.

Bu farazlardan qat'i nazar, Alisher Navoiy adabiyotda shun-day keskin burilish yasadiki, u o'zining adabiy faoliyatida uyg'ur tili an'alaridan yuz o'girdi, o'g'iz tili unsurlarini chek-lay bordi va mumtoz o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Shuning uchun o'zbek tilining grammatik qurilishiga oid faktlar, shu jumladan, morfologik unsurlar, o'g'iz tili unsurlariga qaraganda ustun turadi va Navoiy asarlari tilida asosiy o'rinni egallaydi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy asarlari tilida hozirgi o'zbek tilining grammatik qurilishiga to'la ravishda mos keladigan ko'pgina grammatik belgilar bilan bir qatorda undan farq qiladigan ba'zi bir morfologik unsurlar uchraydiki, bular eski o'zbek adabiy tilining morfologik xususiyatlarini aks etdiradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili

Hozirgi o'zbek adabiy tili asrlar davomida qo'llanib kelgan yagona o'zbek tili taraqqiyotining yuqori formasi, milliy tilning ishlangan shaklidir. Hozirgi o'zbek adabiy tili davlat va ijtimoiy tashkilot, fan va maktab, matbuot va badiiy adabiyot, xullas, o'zbek millatining ilmiy-madaniy tilidir.

O'zbek xalqining millat bo'lib shakllanishi va rivojlanishi milliy adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek xalqining yagona umummillat tilidir. O'zbek milliy adabiy tili umumxalq tilining yuqori va takomillashgan bosqichidir.

So'nggi qariyb bir asr mobaynida o'zbek xalqining yagona milliy tili har tomonlama o'sdi va yuksaldi, uning fonetik tizimiga ma'lum darajada o'zgarishlar kiritildi – unlilar tarkibi ixchamlashdi, undoshlar tarkibiga ba'zi bir yangi fonemalar kelib qo'shildi, tilning lug'at tarkibi yangi so'z va iboralar hisobiga boyidi, so'z ma'nolari kengaydi, eskirib qolgan so'zlar iste'moldan chiqib ketdi, o'zbek tilining grammatik qurilishi takomillashdi.

O'zbek milliy adabiy tili turli burjua millatchi oqimlariga qarshi kurashda o'sdi,

mustahkamlandi va voyaga yetdi. Ayniqsa, XX asrning birinchi yarimlarida ular o'zbek adabiy tilini to'g'ri va ravon rivojlanish yo'lidan chetga burishga qattiq urinib ko'rdilar: hozirgi o'zbek milliy adabiy tilini eski kitob tili asosida qurishni, istemoldan chiqib ketgan eski so'z va ibora-larni qayta tiklashni, qipchoq dialektini yagona umummillat tiliga asos qilib olishni, adabiy til tarkibidagi har bir dialektni mustaqil til darajasiga ko'tarishni taklif qildilar. Lekin ular qanchalik urinmasin, o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Hozir-gi o'zbek adabiy tili o'zining asosiy taraqqiyot yo'lidan og'ish-may borib, o'z yuksaklash yo'lida davom etdi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga o'zbek olimlari, shoir va adiblari, tarjimon va matbuot xodimlari katta hissa qo'shdi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishi yo'li:

- 1) uning yagona umummillat va mahalliy dialektlarga muno-sabati;**
- 2) tayanch va yetakchi o'zbek shevalarining fonetik tizimi;**
- 3) umumxalq tili lug'at tarkibining son va sifati, qo'llanish doirasi va mazmuni;**
- 4) grammatik qoidalarining hajmi va mohiyati;**
- 5) uslubiy bo'linishga ko'ra belgilanadi.**

Hozirgi o'zbek adabiy tili 6 unlili fonetik tizimga ega. So'nggi yillarda o'zbek tilining undoshlar tizimida ham ma'lum o'zgarishlar bo'ldi. Bunga o'zbek tiliga rus tilidan ko'plab yangi so'zlarning kirib kelishi ham sabab bo'ldi. Bunday olinmalar tarkibidagi ayrim tovushlarning o'zbek tili fonetik qoidalariga mos kelmasligi, ularni o'z fonetik tizimiga muvofiqlashtirish o'zbek tilining tovushlar tizimida ayrim o'zgarishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, tilning leksikasi uning eng o'zgaruvchan qismidir. Shuning uchun keyingi qariyb bir asr davomida o'zbek tili leksikasi juda katta o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlarni quyidagicha sharhlash mumkin:

a) hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'pgina so'zlarning ma'no doirasi kengaydi, ko'pgina so'zlar o'z ma'nosi bilan birga yangi, qo'shimcha ma'nolar kasb etdi, so'z ma'nosida kenga-yish va torayish yuz berdi: *vatan* – uy, hovli; mamlakat, ona- Vatan kabi,

b) ayrim so'zlarda ma'no jihatdan differensiyalanish (farq-lanish) yuz berdi: *yonilg'i*(neft, benzin); *yoqilg'i*(o'tin, ko'mir) kabi;

c) sinonimlarda kengayish yuz berdi: *zo'r, buyuk, katta, ul-kan* – *gigant* kabi;

d) yangi tipdagi barqaror so'z birikmalarining ko'lami kengaydi: *oq oltin, tinchliksevar xalqlar* kabi;

e) rus tilidan qabul qilingan so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibini boyitish bilan birga ayrim so'zlarning lug'at tarkibidan chiqib ketishiga ham sabab bo'ldi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi so'zlarning morfologik tarki-bida, so'z birikmasi va gap qurilishida, umuman tilning gram-matik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi. Masa-lan, XX asr o'zbek adabiyotining, ayniqsa, proza janrining rav-naqi

hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplar, xususan, er-gash gapli qo'shma gaplar va murakkab gaplar qurilishini tub-dan o'zgartirdi.

O'zbekiston respublikasining uzoq kutilgan Mustaqillikka eri-shishi, istiqlool sharofati bilan o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi hozirgi o'zbek tili taraqqiyotida nur ustiga a'lo nur bo'ldi: davlat idora ishlari o'zbek tilida olib borila boshladi; lo-tin grafikasi asosida yangi yozuv tizimi, qabul qilindi. Bularning barchasi hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini yangi izga soldi

FONETIKA

Fonetika haqida umumiy ma'lumot

reja:

1. Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganuvchi maxsus sohasi.
2. Fonetika va fonologiya, ularning o'zaro munosabati va farqi.
3. Fonetikaning sohalari.
4. Fonetikaning nutq tovushlarini o'rganish borasidagi asosiy aspektlari:
 - a) fizik aspekt;
 - b) fiziologik aspekt;
 - c) sosial (ijtimoiy) aspekt.
5. Faol va nafaol nutq a'zolari.
6. Xulosa.

Fonetika so'zi grekcha «*phone*» so'zidan olingan bo'lib, tovush demakdir. Demak, fonetika tovush haqidagi ta'limotdir. Biroq tabiatda tovushlar ko'p, ularning xili, turi cheksiz, chega-rasiz, shuning uchun borliqdagi tabiiy tovushlar, ularning xususiyatlari bilan «Fizika»ning maxsus sohasi (akustika) shug'ullanadi, tilshunoslikning maxsus sohasi bo'lgan «Fonetika» esa faqat nutq tovushlari, ularning xususiyatlarini o'rganadi va o'rgatadi.

Ko'rinadiki, fonetika tilning tovushlar tizimi, ularning tuzilishi, nutq jarayonida o'zgarishi, o'zaro almashinishi, nutqiy holat bilan aloqador bo'lgan bo'g'in va uning turlari, so'z urg'usi haqida nazariy va amaliy ma'lumot beradigan tilshunoslikning maxsus sohasidir.

Fonetika garchi nutq tovushlari bilan shug'ullansa ham, tilshunoslikning leksika va grammatika sohalari bilan ham bog'liq, chunki nutq tovushlari ma'noviy farqlantiruvchi til birligi bo'lganligi uchun so'z bilan aloqador, so'zning tuzilishiga va ma'nosini farqlashga xizmat qiladi. So'zning bu xususiyatlari bilan leksikologiya ham shug'ullanadi, bu jihatda fonetika va leksika (leksikologiya) bir-biri bilan aloqadordir. Grammatika ham so'z va uning tarkibi, o'zgarishi (bu fonetik – tovush tar-kibi va tovush o'zgarishi hamdir) bilan shug'ullanganligi sababli ham leksika,

ham fonetika bilan aloqador. Bularning barchasi tilshunoslikning bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan maxsus sohalaridir.

So'nggi paytlarda tilshunoslikda fonetika va fonologiya bir- biridan farqlana boshlandi. Aslida bular bir sohaning ikki tomo-ni bo'lib, ularning farqi shundaki, fonetika nutq tovushlarining hosil bo'lishi, artikulyasion va akustik xususiyatlari bilan shu-g'ullansa, fonologiya ko'proq tovush, urg'u va ohangning ma'no tomoni – ma'noni farqlantiruvchilik xususiyati bilan qiziqadi.

N.S.Trubetskoy fonetika nutq tovushlarini, fonologiya esa til tovushlarini o'rganadi. Siyosiy iqtisod fani mahsulotshunoslikka qanday munosabatda bo'lsa, fonologiya ham fonetikaga shun-day munosabatda bo'ladi, degan.

Fonetik birliklarga tovush, bo'g'in, urg'u, ohang kiradi; fono-logik birliklarga esa fonema, sillabema, aksentema, intonema kiradi. Demak, fonetika aniq, fonologiya mavhum tushuncha ekan.

Tovush, ayniqsa, nutq tovushlari ancha murakkab hodisadir. Shuning uchun uning o'rganiladigan tomonlari ko'p. Shu tufayli fonetika bir necha sohalarga bo'linadi:

1. Umumiy fonetika nutq tovushlari, ularning turlari, o'zga-rishlari haqida ma'lumot beradi.

2. Tarixiy fonetika har bir nutq tovushining tarixan paydo bo'lishi, uzoq tarixiy jarayonda ularning o'zgarishi, boshqa tovushlar bilan almashinishi bilan qiziqadi.

3. Qiyosiy fonetika qarindosh tillarning tovush tizimini qiyo-siy o'rganish bilan shug'ullanadi.

4. Eksperimental fonetika har bir nutq tovushining paydo bo'lish, talaffuz qilish jarayonidagi holatini maxsus asboblari vositasida tekshiradi, ilmiy xulosalar chiqaradi.

5. Tavsifiy fonetika nutq tovushlarining hozirgi holatini, nutq jarayonidagi turli o'zgarishlarini tasvirlab beradi. O'rta va oliy maktabda nutq tovushlarini o'rganish ilmiy, tarixiy yoki eks-perimental emas, balki tavsifiy, tasviriy xarakterda bo'ladi.

Fikr ifodalash vositasi bo'lgan til dastavval tovush sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tovush tilning qurilish mate-riali, moddiy tomoni hisoblanib, bu tovushlar faqat insonning nutq a'zolari vositasida hosil qilinadi. Nutq a'zolari vositasida hosil qilinadigan, ma'no ifodalaydigan so'zlarni shakllantirishda xizmat qiladigan tovushlarga nutq tovushlari deyiladi. Fone-tikaning vazifasi ana shu nutq tovushlarini o'rganish bilan che-garalanadi. Fonetika nutq tovushlarini 3 aspektda o'rganadi:

1. Fizik aspekt.

2. Fiziologik aspekt.

3. Sotsial yoki ijtimoiy aspekt.

Fizik aspekt. Ma'lumki, tabiatdagi har qanday tovush biror jismning tebranishi natijasida havoning to'lqinlanishi tufayli hosil bo'ladi. Biror jismning tebranishi (masalan, dutorning tori) havoni tovush chiqaradigan darajada to'lqinantiradi, natijada tovush hosil bo'ladi. Faqat tabiiy tovushlar emas, nutq tovushlari ham shunday xususiyatga ega, chunki o'pkadan chiqayotgan havo oqimi bo'g'izda tovush paychalarini tebratib tovush hosil qiladi. Bu umumiy tovush nutq a'zolarining turli ishtiroki tufayli nutq tovushlariga aylanadi. Bu tabiiy tovush-larning ham, nutq tovushlarining ham akustik (eshitilish) va artikulyasion (aytilish, hosil bo'lish) xususiyatlari hisoblanadi. Tovushlarning bu xususiyatlari bilan «Fizika» fanining akustika bo'limi shug'ullanadi, lekin bu nutq tovushlari tufayli fonetikaga ham aloqadordir.

Fonetika nutq tovushlarini fizik aspektda (fizikaviy nuqtai nazardan, fizik tomondan) o'rganadi va tovushning quyidagi xususiyatlari bilan shug'ullanadi:

- 1) tovushning balandligi;
- 2) tovushning kuchi;
- 3) tovushning cho'ziqligi;
- 4) tovushning tembri.

Tovushning balandligi tebranishning miqdoriga bog'liq. Tebranish qancha kuchli bo'lsa, tovush ham shunchalik baland bo'ladi va aksincha tebranish qancha kam bo'lsa, tovush ham shunchalik past bo'ladi. Tebranuvchi qismi qancha kichik bo'l-sa, shuncha tez tebranadi, tovush ingichka va baland bo'ladi. Nutq tovushining kuchi tebranishning darajasiga bog'liq.

Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa, tovush ham shunchalik kuchli chiqadi. Tovush to'lqinining balandlik va kenglik ko'lami amplituda (lotincha, ko'lam) deyiladi. Tovushning balandligi gers bilan o'lchanadi. Gers tebranishning sekundga nisbatan o'lchovini belgilaydi. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland; tebranish oz bo'lsa, tovush ham past bo'ladi. Nutq tovushlarining tembri (sifati, bo'yoqdorligi) asosiy ton bilan yordamchi tonlar (oberton)ning qo'shimcha ohang (rezonator tonlari) va shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tembr, asosan, unli tovushlar uchun xos bo'lib, ularni farqlash uchun xizmat qiladi. Demak, unlilar o'zaro tembri (sifati, bo'yoqdorligi) bilan farqlanadi. Tovushlarning tembri rezona-torlik vazifasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun bo'shli-g'ining hajmiga, shuningdek, ayrim nutq a'zolariga bog'liq. Shunga ko'ra kishilarning ovozi bir-biridan farqlanadi.

Tovushning cho'ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Shunga ko'ra:

1. **Birlamchi yoki fonologik cho'ziqlik.** U ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida *a:d* – ism, *ad* – ot (yilqi); *qon* – tiriklik manbai, *qoon* – hoqon kabi.

2. Ikkilamchi yoki fonetik cho'ziqlik. Fonetik cho'ziqlik ma'no farqlash uchun xizmat qilmaydi. Masalan, imon – iymon kabi. Uning yana bir ko'rinishi mavjudki, bunda talaffuzda ikki unli o'rtasida undosh tovushning tushib qolishi kuzatiladi: sh:r – shahar, b:r – bahor, na:ar – nahor, ba:adir – bahodir kabi.

Fiziologik aspekt. Fonetika nutq tovushlarini fiziologik as-pektida tekshirganda, nutq tovushlarini hosil qiluvchi nutq organlari (a'zolari) va ularning faoliyati bilan qiziqadi.

Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolarining jamiga nutq apparati deyiladi. Nutq apparatini tashkil qiladigan a'zolar: lablar, tishlar, til, tanglay, kichik til, xalqum (frinks), og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, bo'g'iz, kekirdak (traxeya), bronxlar (o'pka va unga tutashadigan ikki diafragma), tovush paychalar va h.k. Bularning barchasini tovush hosil qiluvchi nutq a'zolari deyish shartli, chunki aslida bo'larning har biri tovush hosil qilish uchun emas, balki insonga biologik vazifalarni (nafas olish, ta'm bilish, hidlash kabi) bajaruvchi fiziologik a'zolardir. Ularning tovush hosil qilish faoliyati esa inson tomonidan ular ustiga qo'yilgan qo'shimcha yukdir.

Nutq tovushlarini hosil qilishning manbai yoki harakat-lantiruvchi kuchi og'iz va burun bo'shlig'iga bo'g'iz va traxeya-lar orqali o'tayotgan, o'pkadan chiqayotgan havo oqimidir.

Tovush hosil qilish yoki lingvistik xususiyatiga ko'ra nutq apparatini uch qismga bo'lish mumkin: 1) bo'g'izdan quyi tomondagi barcha nutq a'zolari; 2) bo'g'iz; 3) bo'g'izdan yuqori qismdagi barcha nutq a'zolari kabi.

Nutq apparatining quyi qismi bir juft o'pka diafragmalari va ularni traxeyaga tutashtiruvchi bir juft bronxlardir. Diafragma-dan chiqadigan havo oqimi bronxlar orqali traxeyaga va undan bo'g'iz bo'shlig'iga o'tadi. Bo'g'iz bo'shlig'igacha bo'lgan qism-dagi a'zolar (diafragma, bronxlar va traxeya) tovush hosil qil-maydi, tovush bo'g'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladi.

Nutq apparatining o'rtasi bo'g'iz bo'lib, u bir juft cho'mich-simon va bir juft qalqonsimon tog'aylardan iborat. Bu tog'aylar bo'g'iz devoriga ikki tomonlama tutashgan bo'lib, bo'g'izda joy-lashgan tovush hosil qiluvchi tovush paychalarini harakatlan-tiruvchi vazifani bajaradi.

Bir tomondan bo'g'iz devorlariga, ikkinchi tomondan tovush paychalariga tutashgan cho'michsimon va qalqonsimon tog'ay-lar o'pkadan chiqayotgan havo oqimi natijasida harakatda bo'lib, tovush paychalarini taranglashtirsa un (ovoz), ularni bo'shashtirsa, tovush paychalarining qay darajada tortilishi (dutor torlarini burab tortish kabi) jarangli, jarangsiz, bo'g'iz (h) undoshi kabi tovushlarni hosil qiladi.

Bo'g'iz bo'shlig'ida hosil bo'lgan tovush paycha shaklidagi oraliq orqali xalqum va og'iz va burun bo'shlig'iga o'tadi. Og'iz va burun bo'shlig'i rezonatorlik vazifasini

o'tab, tovushni har xil ohangga soladi. Og'iz bo'shlig'ining hajmi va shakli boshqa nutq a'zolarining ta'sirida turlicha holatga kirishi mumkin. Bulardan til, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'lib, u og'iz bo'shlig'ida o'zining turlicha harakati va holati bilan unli va undosh tovushlar hosil qilishda qatnashadilar.

Og'iz bo'shlig'ida nutq a'zolaridan biri tanglaydir. Tanglay ikki qismga – yumshoq va qattiq tanglayga ajraladi. Qattiq tanglay tanglayning oldingi (tishlar va tish milklari alveollarga qadar) harakat qilmaydigan qismi, yumshoq tanglay tanglayning orqa, harakatchan qismidir.

Til o'zining harakatchanligi bilan boshqa nutq a'zolaridan farqlanib turadi. Nutq tovushlarining paydo bo'lish o'rniga qarab tilni uchga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- 1) tilning orqa qismi – tilning yumshoq tanglayga qarama-qarshi qismi;**
- 2) tilning o'rta qismi – tilning qattiq tanglayga qarama-qarshi qismi;**
- 3) tilning old qismi – tilning uchi va oldingi qismi.**

Tilning old qismining tishlar va tish milklariga yaqinlashish, jipslashish yoki tor oraliq joy hosil qilishi portlovchi, sirg'a-luvchi, qorishiq undoshlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lib, bu tish va tish milklarining ham tovush hosil qilishda ishtirok etuvchi muhim a'zolar ekanligini ko'rsatadi.

Tovush hosil qilishda lablar ham faol a'zoldan biridir. Lablarning o'zaro oraliq joy hosil qilishi yoki jipslashishi ayrim sirg'aluvchi yo portlovchi undoshlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi: *v, b, p* kabi.

Burun bo'shlig'i burun tovushlari (*m, n, ng*) ni hosil qilishda ishtirok etadi.

Demak, tovush hosil qilishda nutq a'zolarining ishtiroki va harakati bir xil emas. Shunga ko'ra nutq a'zolari faol va nafaol nutq a'zolariga ajratiladi. Faol nutq a'zolariga tovush pay-chalari, kichik til, yumshoq tanglay, til, lablar, passiv nutq a'zolariga qattiq tanglay, tishlar, tish milklari va burun bo'sh-lig'i kiritiladi.


Tovush hosil qilishda nutq a'zolarining ishtiroki bir xil emas. Tovush hosil qilish jarayonida ular turli vaziyatda va turlicha harakatda bo'ladi. Biror tovushni hosil qilish, talaffuz qilish uchun nutq a'zolarining muvofiqlashuviga *nutq artikulyatsiyasi* deyiladi.

Har bir tovush artikulyatsiyasi yoki har bir tovushning hosil bo'lish jarayonida nutq a'zolari uch holatni boshdan kechiradi: ma'lum nutq tovushini hosil qilish uchun nutq a'zolari harakatining ibtidosi (hozirligi, tayyorgarlik ko'rishi), nutq a'zolarining tovush hosil qilish momenti (amal, ish, faoliyat), tovush hosil qilingach, nutq a'zolarining oldingi holatga qaytishi – nutq a'zolari harakatining intihosi. Masalan, b undoshini hosil qilish uchun lablar qanday harakatda turgan bo'lishidan qat'iy nazar, jipslashish uchun harakatga keladi, bu lablar harakatining boshlanishi – ibtidosi, lablar jipslashib havo oqimini mutloq to'sadi va bir lahzada ochiladi, havo oqimiga erk beradi, portlash natijasida b hosil bo'ladi – ish, amal, bajariladi hamda tovush hosil bo'lgach, lablarning dastlabki holatga qaytishi-lablar harakatining

oxirgi bosqichi, intihosidir.

Tovushlarning artikulyatsiya usuli (paydo bo'lish usuli) va artikulyatsiya o'rni (paydo bo'lish o'rni)ga ko'ra ajratilishi ham shunga bog'liq. Nutq a'zolarining holati (jipsligi, oraliq joy qoldirish kabi) tovushning qay usulda hosil bo'lishini – *artikulyatsiya usulini*, tovush hosil qilishda qaysi nutq a'zolarining ishtiroki, tovushning qayerda paydo bo'lishi (bo'g'izda, tilning biror qismida, labda) *artikulyatsiya o'rnini* belgilaydi.

NUTQ APPARATI



1 - qattiq tanglay; 2 - milklar; 3 - yuqori lab; 4 - yuqori tishlar; 5 - pastki lab; 6 - pastki tishlar; 7 - tilning old qismi; 8 - tilning o'rta qismi; 9 - tilning orqa qismi; 10 - tilning o'zak qismi; 11 - bo'g'iz bo'shlig'i; 12 - to-vush paychalari, ovoz oralig'i; 13 - qalqonsimon tog'ay; 14 - xalqasimon tog'ay; 15 - dimog; 16 - yumshoq tanglay; 17 - kichik til; 18 - bo'g'iz; 19 - piramidasimon tog'ay; 20 - qizilo'ngach; 21 - kekirdak (traxeya), nafas yo'li.

Sotsial (ijtimoiy) aspekt. Fonetika nutq tovushlarini ijtimoiy aspektida

o'rganganda nutq tovushlarining jamiyat uchun baja-radigan vazifasini ko'zda tutadi.

Nutq tovushlari ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki nutq to-vushlari inson tomonidan yaratilib, inson uchun xizmat qiladi. Demak, nutq tovushlari ijtimoiylik xususiyatiga ega, chunki ular asosida kishilarning o'zaro fikrlashishlari uchun xizmat qiladi-gan so'zlar hosil bo'ladi.

Nutq jarayonida nutq tovushlari vositasida hosil qilinadigan tovushlarning barchasi ham shunday xususiyatga ega emas. Kishilar nutq jarayonida har bir tovushni turlicha shakllan-tirishi, turlicha ifodalashi mumkin. Masalan, igna, ishchi, qirq, siz kabi so'zlar tarkibidagi i tovushlari turlicha talaffuz qilinadi va eshitiladi (i, ъ, ь, ы kabi), lekin shularning bir shakli (i) asosiy hisoblanib, qolganlari uning variantlari, turli ko'rinishlari hisoblanadi. Shular ichidan ajratib olingan yagona tovush ijtimoiy qiymatga ega. Shu tovushning boshqalaridan farq-langani holati fonema deb yuritiladi.

Nutq tovushlari haqidagi fikrlar juda qadim zamonlardan beri mavjud bo'lsa ham, fonema haqidagi tushuncha va atamaga XIX asrning oxirlarida Qozon tilshunoslik maktabining asos-chisi, asli polshalik rus tilshunosi Boduen de Kurtene, uning shogirdlari N.V.Krushevskiy va boshqalar asos soldi. Ular nutq tovushlarining sotsial (ijtimoiy) qiymatini hisobga olib, so'zning ma'nosini farqlaydigan tovushlarni (masalan, i) fonema, qol-ganlarini (ъ, ь, ы) uning turli ko'rinishlari, variantlari deb baho-laydilar.

Tilning so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan fonetik birligiga fonema deyiladi.

Masalan, *bir, bur, bo'r, bor, ber, bar* so'zlarida so'z boshi-dagi va so'z oxiridagi tovushlar bir xil (b, r), faqat so'z o'rta-sidagi tovushlar turlicha (i,u,o',o,e,a) bo'lishiga qaramasdan, bu so'zlar bir – miqdor, bur - harakat, bo'r – predmet, bor – mavjudlik, ber – harakat, bar (etak) – predmet kabi turli ma'no-larni anglatadi, shuning uchun bu so'zlarda ma'no farqlan-tiruvchi element – fonema i,u,o',o,e,a tovushlardir. Yana bir misol: bir, bil, biz, bit (moq) so'zlarida dastlabki tovushlar (b,i) bir xil, so'nggi tovushlar (r,l,z,t) har xil, shunga ko'ra so'z ma'nolari ham farqlanadi.

Tovush va fonemalar shu xususiyatlariga ko'ra farqlangani-dan, tovush va harf ham bir-biridan farqlidir. Harf tovushlar-ning yozma shakli, yozuvdagi ifodasidir. Nutq tovushlari eshi-tish, ularning yozma shakli bo'lgan harflar ko'rish orqali idrok qilinadi. Lekin tovush va harflar miqdor va sifat jihatidan doim bir-biriga teng emas, ayrim tovushlar ikki harf (sh, ch, ng kabi) orqali ifodalangani holda, ayrim tovushlar esa umuman harfiy belgisiga esa bo'lmasligi mumkin.

Umuman, nutq tovushlari yuqoridagi fizik, fiziologik va ijti-moiy xususiyatlariga ko'ra dastlab ikki yirik guruhga bo'linadi:

1. Unli fonemalar;
2. Undosh fonemalar.

Lug'at:

Phone – grekcha: tovush.

Acustikos – grekcha: eshitalish.

Amplitudo – lotincha: ko'lam.

Timbre –fransuzcha: tovush bo'yog'i, sifati; bo'yoqdorlik.

Oberton – nemischa: qo'shimcha ohang.

Sillabemos – grekcha: bo'g'inga teng ma'nosida.

Aksentema – lotincha: urg'u.

Intonema – lotincha: baland tovush bilan talaffuz etish.

UNLI FONEMALAR VA ULARNING TASNIFI

reja:

1. Ta'rif.
2. Tasnif.
3. Tavsif.
4. Xulosa.

Fonetikaning unli fonemalar tizimini o'rganadigan qismi *vokalizm* deyiladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimining bo'g'iz bo'shlig'ida nutq a'zolarining qarshiligiga uchramasdan, nutq paychalarining tebranishidan hosil bo'ladigan va faqat un (ovoz)dangina iborat bo'lgan nutq tovushlariga unli fonemalar deyiladi.

O'zbek tilida 6 ta unli fonema bor: *ī, ē, a, u, o', o.*

Unli fonemalar akustik tomondan ovozning ustunligi, fizio-logik jihatdan og'izning ochilish darajasi hamda lablar va tilning harakati, vaziyati bilan xarakterlanadi. Ular og'iz bo'shlig'ida tusga kiradigan sof ovozdangina iboratdir.

Unli fonemalar quyidagi xususiyatlariga ko'ra tasnif qilinadi.

1. Og'izning ochilish darajasiga ko'ra;
2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra;
3. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra;
4. Lablarning ishtirokiga ko'ra;

Og'izning ochilish darajasiga ko'ra unli fonemalar 3 xususi-yatga ega bo'ladi:

1) tor: *ī, u.*

2) o'rta keng: *ē, o'.*

3) keng unlilar: *a, o.*

Tilning vertikal (yuqori va quyi) harakatiga ko'ra unlilar 3 ga ajratiladi:

1) yuqori ko'tarilish unlilari: *i, u*.

2) o'rta ko'tarilish unlilari: *e, o'*.

3) quyi ko'tarilish unlilari: *a, o*.


Tilning gorizontal (old va orqa) harakatiga ko'ra unlilar 2 xil:

1) til oldi unlilari: *i, e, a*;

2) til orqa unlilari: *u, o', o*.

Lablarning ishtirokiga ko'ra unli fonemalar lablangan (*u, o'*) va lablanmagan (*i, e, a*, qisman *o*) unlilarga ajratiladi. Lablangan unlilar talaffuzida lablar oldinga qarab cho'ziladi (cho'ch-chayadi). Bu holat lablanish (labializasiya) deyiladi. *o* unlisi *u* va *o'* unlilariga yaqin talaffuz qilinganligi bois yarim lablangan hisoblanadi.

Unlilarning tasnifini jadvalda quyidagicha tasvirlash mumkin:



Bu jadvalda uchburchakning chap tomonida til oldi, lablan-magan unlilarni, o'ng tomonida esa til orqa, lablangan unlilar ajratilgan. Bunda faqat *o* unlisining lablanish-lablanmaslik da-rajasi e'tiborga olinishi lozim.

Til oldi yoki old qator unlilari(*i, e, a*)ni talaffuz qilishda tilning uchki qismi biroz old tomonga harakat qilib, lablar har uchala unlini hosil qilishda deyarli bir xil vaziyatda bo'ladi, bu unli-larning hosil bo'lishida lablarning ishtiroki sezilmaydi, lablan-maydi.

Til orqa yoki orqa qator unlilari(*u, o', o*)ni talaffuz qilishda til biroz orqaga tortilib, bu unlilardan *u* va *o'* fonemalarini hosil qilishda lablar ishtiroki seziladi, lablar oldinga cho'zilib, tora-yadi. Bu unlilar lablanish hodisasiga uchraydi, *o* unlisini talaffuz qilishda esa labning vaziyat deyarli *i, e, a* unlilari holatida bo'ladi, shuning uchun bu unli lablanmagan yoki yarim lablan-gan sanaladi.

Tilning vertikal (yuqori va quyi) harakati va og'izning ochilish darajasiga ko'ra ham *i* va *u* unlisini hosil qilishda til biroz yuqoriga ko'tarilib, og'iz tor ochilsa, *a* va *o* unlilari talaffuzida, aksincha, til quyi tomonga harakat qilib, og'iz keng ochiladi.

Unli fonemalarning ana shu tavsifiga ko'ra ularni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

I – yuqori ko'tarilish, tor, lablanmagan old qator unli;

E – o'rta ko'tarilish, o'rta-keng, lablanmagan old qator unli;

A – quyi ko'tarilish, keng, lablanmagan old qator unli;

U – yuqori ko'tarilish, tor, lablangan, orqa qator unli;
O' – o'rta ko'tarilish, o'rta-keng, lablangan, orqa qator unli;
O – quyi ko'tarilish, keng, lablanmagan, orqa qator unli.

UNDOSH FONEMALAR VA ULARNING TASNIFI

reja:

- 1. Ta'rif.**
- 2. Tasnif.**
- 3. Tavsif.**
- 4. Xulosa.**

Fonetikaning undosh fonemalar tizimini o'rganadigan qismi *konsonantizm* deyiladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq a'zolaridan birining qarshiligiga uchrashidan hamda ovoz va shovqinning ishtirokidan hosil bo'lgan nutq tovushlariga un-dosh fonemalar deyiladi.

O'zbek tilida undosh fonemalar 23 ta: *b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h*.

Ular quyidagi xususiyatlariga ko'ra tasnif qilinadi:

- 1. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra;**
- 2. Artikulyatsiya usuli yoki hosil bo'lish usuliga ko'ra;**
- 3. Artikulyatsiya o'rni yoki hosil bo'lish o'rniga ko'ra.**

Undosh fonemalar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra dastlab ikki yirik guruhga bo'linadi: **shovqinlilar va sonorlar.**

Undosh tovushlarning bunday bo'linishi tovush tarkibidagi ovoz yoki shovqinning miqdoriga ko'ra belgilanadi, chunki un-dosh tovushlar unli tovushlardan farqli ravishda faqat ovozdan-gina iborat emas. Ularda nutq a'zolarining havo oqimi ta'sirida hosil bo'lgan shovqin ham mavjud bo'ladi. Tovush tarkibida ovoz va shovqinning qay darajada ekanligi shovqinli va sonorlar zidligini keltirib chiqaradi.

Tarkibida ovozga nisbatan shovqin kuchli bo'lgan undosh fonemalarga **shovqinli undoshlar** deyiladi. Shovqinli undoshlar hosil bo'lishda nutq a'zolarining qarshiligiga kuchliroq uchraydi, ana shu to'siq sof ovozga shovqin qo'shadi. Buni sekin esa-yotgan shamolning daraxt barglariga tegib, ularni tebratishi natijasida hosil bo'ladigan shitirlash ovoziga qiyos qilish mum-kin. Shovqinli undoshlar quyidagilar: *b, v, d, g, j, z, y, k, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h*.

Tarkibida shovqinga nisbatan ovoz kuchliroq bo'lgan undosh-larga **sonor undoshlar** deyiladi. Sonor undoshlarni talaffuz qilish jarayonida ham havo oqimi ma'lum darajada nutq a'zolari qarshiligiga uchraydi, lekin to'siq kuchsiz bo'ladi, havo oqimi uchun og'iz yoki burun bo'shlig'ida ma'lum oraliq mavjud bo'ladi.

Sonorlar quyidagilar: *m, n, ng, l, r*.

Sonor undoshlarni ayrim grammatik adabiyotlarda yarim unli-lar ham deb yuritiladi, chunki ayrim tillarda sonorlar unli fone-malar kabi bo'g'in hosil qilish xususiyatiga ham ega. Masalan, rus tilidagi *справка* so'zida so'z bo'g'inlari *справ-* tarzida emas, balki *спп-рав-ка* yoki *ис-па-рав-ка* tarzida ajratiladi.

Sonor undoshlar hosil bo'lishda boshqa undoshlarga nisba-tan o'ziga xos xususiyatga ega, chunki burun undoshlari deb yuritiladigan *m, n, ng* undoshlarini talaffuz qilishda havo oqimi uchun burun bo'shlig'ida biroz oraliq joy hosil bo'lsa, *l* undoshi talaffuzida tilning ikki yon tomonidan, *r* undoshida esa til uchi-ning alveollarga tegib titrashidan havo oqimi erkin o'tadi. Shuning uchun *l* undoshini *yon tovush*, *r* undoshini esa *titroq tovush* deb yuritiladi.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra shovqinli undoshlarning yana ikkiga – jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratiladi. Sababi shundaki, jarangli undoshlarda jarangsiz undoshlarga nisbatan ham ovoz kuchliroq bo'ladi yoki, aksincha, jarangsiz undoshlarda jarangli undoshlarga nisbatan shovqin kuchli bo'ladi. Jarangli va jarangsiz undoshlar odatda o'z juftlariga ega bo'ladi:

Jarangli undoshlar: *b, d, z, v, g, j, g', j';*

Jarangsiz undoshlar: *p, t, s, f, k, sh, x, ch* kabi.

Undosh fonemalar artikulyatsiya usuli yoki hosil bo'lish usuliga ko'ra:

a) portlovchi undoshlar;

b) sirg'aluvchi undoshlar;

c) qorishiq (affrikativ) undoshlarga bo'linadi.

Havo jipslashgan nutq a'zolaridagi to'siqni yorib, portlash yo'li bilan hosil bo'lgan nutq tovushlari *portlovchi undosh fone-malar* hisoblanadi: *b, p, d, t, k, q, g, m, n, ng* kabi.

Havo oqimi o'zaro yaqinlashgan ikki nutq a'zosi o'rtasidagi oraliq joy orqali sirg'alib o'tsa, *sirg'aluvchi undosh fonemalar* hosil bo'ladi: *v, f, s, z, sh, y, g', x, l, h* kabi.

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra nutq a'zolarining asosan bir yerida hosil bo'lib, bir portlovchi va bir sirg'aluvchi tovushni o'z ichiga olgan, ajratilmay talaffuz qilinadigan tovushlarga *qorishiq un-dosh fonemalar* deyiladi.

Masalan: *j(dj), ch(chsh)* va qisman *ts – s(ɬ)* kabi.

r undoshi til uchining qattiq tanglayga muntazam titrab urilib turishidan hosil bo'ladi. Shuning uchun uni portlovchi undosh-lar sirasiga ham, sirg'aluvchi undoshlar sirasiga ham kiritish mumkin emas.

Artikulyatsiya o'rne yoki hosil bo'lish o'rniga ko'ra undosh fonemalar *lab, til* va *bo'g'iz* undoshlariga ajratiladi.

Havo oqimi natijasida lablarning to'la yoki qisman to'sig'iga uchrab hosil bo'ladigan undoshlar *lab undoshlari* deyiladi. To'la to'siq tufayli – portlash

natijasida hosil bo'ladigan undoshlarni *lab-lab* (labial), qisman to'siq natijasida – sirg'alish tufayli hosil bo'ladigan undoshlar *lab-tish* (labiodental; dental – tish) *undoshlar* deb yuritiladi.

1) lab-lab: *b, p, m* (turkiy *ʋ*);

2) lab-tish: *v, f*.

Til undoshlari 4 xil bo'ladi:

1) til oldi;

2) til o'rta;

3) til orqa;

4) chuqur til orqa.

Til oldi undoshlari nafaol nutq a'zolaridan tish, milk (alveol) lar va tanglay ishtirokida hosil bo'ladi. Bular:

1) til-tish: *t, d, l, n, s, z*;

2) til-milk: *sh, j, r, ch*.

Til o'rta undoshi (y) tilning o'rta qismining yumshoq tanglayga yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladi.

Til orqa undoshlari (k, g, ng) til orqa qismining yumshoq tanglayga yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladi.

Chuqur til orqa undoshlari (q, g', ʁ) esa tilning eng orqa qismining yumshoq tanglayga yaqinlashishidan hosil bo'ladi.

Bo'g'iz undoshi (h) tovush paychalarining o'zaro yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladi.

UNDOSHLARNING TASNIFI'NI JADVALDA QUYIDAGICHA KO`RISH MUMKIN:

¹ Tasnif prof. B.Mengliyevhiki.

Belgilar	Fonemalar																
	p	b	f	v	t	d	s	z	ch	j	sh	j	k	g	g	q	x
Shovqinli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Sonor																	
Jarangli		+		+		+		+		+							
Jarangsiz	+		+		+		+		+		+		+				
Portlovchi	+	+			+	+			+	+		+	+				
Sing'aluvchi			+	+			+	+			+	+		+		+	
Affikat									+	+							
Titiroq																	+
Burun																+	
Yon																	+
Labial	+	+	+	+										+			
Til oldi					+	+	+	+	+	+	+	+				+	+
Til o'rti																+	
Til orqa													+			+	
Chuqur til orqa														+	+		
Bo'g'iz																	+

Undosh fonemalarning ana shu tavsifiga ko'ra ularni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

B – undosh, lab-lab, portlovchi, jarangli, shovqinli.

V – undosh, lab-tish, portlovchi, jarangli, shovqinli
G – undosh, sayoz til orqa, portlovchi, jarangli, shovqinli
D – undosh, til-tish, portlovchi, jarangli, shovqinli
Y – undosh, til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli
J – undosh, til-milk, qorishiq, jarangli, shovqinli
Z – undosh, til-tish, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli
K – undosh, sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz, shovqinli
L – undosh, til-tish, sirg'aluvchi, jarangli, sonor
M – undosh, lab-lab, yarim portlovchi, jarangli, sonor
N – undosh, lab-tish, yarim portlovchi, jarangli, sonor
P – undosh, lab-lab, portlovchi, jarangsiz, shovqinli
R – undosh, til-tish, sirg'aluvchi, jarangli, sonor
S – undosh, til-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli
T – undosh, til-tish, portlovchi, jarangsiz, shovqinli
F – undosh, lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli
X – undosh, chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli
CH – undosh, til-milk, qorishiq, jarangsiz, shovqinli
SH – undosh, til-milk, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli
Q – undosh, chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz, shovqinli
G' – undosh, chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli
H – undosh, bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli
ng – undosh, sayoz til orqa, yarim portlovchi, jarangli, sonor

Hozirgi o'zbek adabiy tilida **Ff** va **Vv** undoshlari o'ziga xos xususiyatga ega. **Ff** undoshi o'zbek tiliga xos undosh bo'lmay, bu tovush faqat o'zbek tiliga chetdan qabul qilingan so'zlarda-gina uchraydi: *fabrika, familiya, farq, farmon* kabi. **Vv** undoshi ikki xil xususiyatga ega: o'zbekcha so'zlarda (*hovli, ovora, kis-savur*) lab-lab, sirg'aluvchi; o'zlashgan so'zlar tarkibida esa (*lvagon, vaqt, Vali*) lab-tish sirg'aluvchi sifatida talaffuz qilinadi.

Hozirgi o'zbek tilida talaffuzda so'zning turli o'rinlarida ja-rangli undoshlar jarangsizlashish xususiyatiga ega: kitob – kitop, maktab – maktap, ketgan – ketkan kabi.

Jonli so'zlashuv yoki dialektal xususiyatlarga ko'ra ayrim to-vushlar boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin: bunday – mun-day, yuz so'm – yus som, uchta – ushta, ketdi – ketti, o'n besh – o'mbesh kabi.

Burun undoshi «ng»dan keyin **g** undoshi bilan boshlanuvchi morfemalar kelsa, **ng** ikkilanishi mumkin: tong – tongngacha, otangga – otangnga kabi.

h undoshi ayrim shevalar (masalan, Toshkentda **h** yoki **x** undoshiga yaqin, yoki aksincha (masalan, Andijon), talaffuz qilinadi: *ham – xam, hozir – xozir* yoki *hil – hil*,

***xi/– xi/* kabi.**

TRANSKRIPSIYA HAQIDA MA'LUMOT

Nutq tovushlarining barcha ko'rinishlarini yozuvda mumkin-qadar aniq va to'laroq ifodalab berish uchun transkripsiya (transkripsiya – latinchada *trans* – *o'tkazish*, *criptum* – *yozuv* ma'nosini beradi) – shartli harfiy va qo'shimcha belgilardan foydalaniladi. Demak, nutq tovushlarini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan yozuv transkripsiya deyiladi. Transkripsiyada maxsus belgilar vositasi bilan faqat tildagi asosiy tovushlar –fonemalar va ularning variantlari emas, balki qo'shimcha belgilar ham kiritiladi. Shuning uchun transkripsiya belgilari asosiy tovushlarga nisbatan miqdor jihatidan ko'p bo'ladi.

Transkripsiyada tovushlarning turli ko'rinishlarini berish uchun ayrim diakritik belgi (qo'shimcha belgi)lar va, asosan, mavjud grafikadagi tovush belgi (harf) lardan foydalanadi. Bular asosan quyidagilar:

- ə – til oldi, lablanmagan, keng unli (a)**
- a – til orqa, lablanmagan, keng unli**
- i – til oldi, lablanmagan, tor unli**
- ы – til orqa, lablanmagan, tor unli (i)**
- Ө – til oldi, lablangan, o'rta keng unli (o')**
- о – til orqa, lablangan, o'rta keng unli (o')**
- v – adabiy orfografik *v***
- w – turkiy so'zlardagi *v***
- Ž – qorishiq *j***
- ň – adabiy orfografik *ng***
- č – adabiy orfografik *ch***
- š – adabiy orfografik *sh***
- ğ – adabiy orfografik *g'***
- о – adabiy orfografik *o***

Shartli belgilar:

- : – cho'ziqlik belgisi**
- “ – akut, yumshoqlik belgisi**
- > < – o'tish, kelib chiqish belgisi**
- // – tenglik belgisi**

/ – bir shevadagi shaklning variantini ko'rsatadigan belgi

∞ – moslik belgisi

[] – umumiy matndan ajratilgan, transkripsiya qilingan so'z-larni ko'rsatadi.

NUTQ TOVUSHLARINING O'ZGARISHI

reja:

1. Tovushlarning o'rin munosabatiga ko'ra (kombinator) o'z-garishlari.
2. Tovushlarning vaziyatiga ko'ra (pozitsion) o'zgarishlari.
3. Xulosa.

Nutq jarayonida so'z tarkibidagi tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi va turli o'zgarishlarga uchraydi. Tovush o'zga-rishlariga turli holatlar sabab bo'lishi mumkin. Ko'pincha bun-day o'zgarishlarga tovushlarning o'rin munosabatlariga ko'ra joylanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, tovush hosil qilish, hosil bo'lgan tovushlarning so'z tarkibida birikishida nutq a'zola-rining turli vaziyatda bo'lishi ham sabab bo'ladi. Bunday tovush o'zgarishlari ana shu xususiyatlariga qarab dastlab ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. Tovushlarning o'rin munosabatiga ko'ra (kombinator) o'z-garishi.
2. Tovushlarning vaziyatiga ko'ra (pozitsion) o'zgarishi.

Tovushlarning o'rin munosabatiga ko'ra o'zgarishi

Tovushlarning so'z tarkibida joylashishi va shunga ko'ra nutq a'zolarining ta'sirida yuzaga keladigan tovush o'zgarishlariga tovushlarning *o'rin munosabatiga ko'ra o'zgarishi* deyiladi. Bu-lar quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Akkomodatsiya.

2. Assimilyatsiya.

3. Dissimilyatsiya.

4. Metateza.

Akkomodatsiya – lotincha moslashish, uyg'unlashish demak-dir. So'z tarkibida yondosh kelgan unli tovushlarning o'zaro bir-birga artikulyatsion-akustik jihatdan moslashishi, uyg'un-lashishiga *akkomodatsiya* deyiladi.

Masalan, *kuzgi*, *kulgi*, *tulki* so'zlarining keyingi bo'g'inlaridagi i uchlisining talaffuz va eshitilish jihatidan birinchi bo'g'indagi u unlisiga moyilroq talaffuz qilinishi va eshitilishi akkomodat-siyadir.

Akkomodatsiya hodisasini singarmonizm yoki unli tovush-larning garmoniyasi, o'zaro uyg'unlashishi, moslashishi ham deb aytish mumkin. Singarmonistik

o'zgarishlarda ham xuddi shu qoidalarga amal qilinadi, ya'ni ko'p bo'g'inli so'zlarda keyingi bo'g'indagi unli tovushlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi bo'g'indagi unli tovushning sifatiga qarab qisman yo to'la moslashadi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tilining ayrim shevalarida va boshqa turkiy tillarda keng uchraydi.

Akkomodatsiya yoki singarmonizm hodisasi artikulyasiya jarayonidagi turli sabablarga ko'ra yuz beradi: ba'zan lablan-gan unli lablanmagan unlini o'ziga moslashtiradi (*kulgi* – *kulgukabi*). Natijada lab garmoniyasi yuzaga keladi. Bu *labial singar-monizm* deb yuritiladi; ba'zan uyg'unlashish yumshoq va qattiq tanglayda yuz beradi (*ota* – *ata* kabi). Bu *tanglay garmoniyasi* yoki *palatal singarmonizm* deb yuritiladi.

Singarmonizm hodisasi o'zbek adabiy tiliga xos emas, shu-ning uchun bu hodisa o'zbek adabiy og'zaki nutqida deyarli sezilmaydi.

Assimilyatsiya – lotincha *o'xshatish* demakdir. So'z tarkibi-dagi yondosh, noo'xshash tovushlarning artikulyatsiya talabiga ko'ra o'xshash tovushlarga aylanishiga *assimilyatsiya* deyiladi.

Masalan, bir+ta so'zining *bitta* shaklida talaffuz qilinishining sababi shundaki, qator kelgan noo'xshash r-t undoshlarida r undoshini talaffuz qilish jarayonida nutq a'zolari harakatining intihosi (rekursiyasi) t undoshini talaffuz qilinish jarayonidagi nutq a'zolari harakatining ibtidosi (ekskursiyasi) bilan qo'shilib ketib, keyingi tovush (t) ekskursiyasi (ibtidosi) oldingi tovush (r) rekursiyasi (intihosi)ni o'ziga o'xshatib oladi va natijada t undoshining ta'sirida r undoshi t ga aylanadi: *birta* – *bittakabi*.

Assimilyatsiya *progressiv* va *regressiv* bo'ladi. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga moslashtirsa (*ketdi* – *ketti*, *aytdi* – *aytti*, *yurakga* – *yurakka*, *tokqa* – *tokka* kabi) *progressiv assi-milyatsiya*, aksincha, agar keyingi tovush oldingi tovushni o'zi-ga moslashtirsa (*birta* – *bitta*, *yigitcha* – *yigichcha*, *nonvoy* – *novvoy*, *yozsın* – *yossin* kabi) *regressiv assimilyasiya* deyiladi.

Assimilyatsiya *to'liq* va *to'liqsiz* bo'ladi. Agar bir tovush ikkinchi tovushni o'ziga to'la moslashtirsa (*tuzni* – *tuzzi*, *tuzsa* – *tussakabi*) *to'liq assimilyatsiya*, aksincha, bir tovush ikkinchi tovushni o'ziga qisman moslashtirsa (*o'sdi* – *o'sti*, *oshga* – *oshka* kabi) *to'liqsiz assimilyasiya* deyiladi. Keyingi misollardan ko'rinadiki, *sd-st* va *shg-shk* o'zgarishlarida tovushlarning o'zaro ta'siri yo'qqa o'xshab ko'rinadi, aslida har ikki misolda ham oldingi jarangsiz undoshlar (s,sh) keyingi jarangli undoshlarni (d,g) faqat jarangsizlashtirgan, lekin tamoman o'ziga o'xshatib ololmagan (*sd-ss*, *shg-shsh* kabi), shuning uchun bu assimilyatsiyalar to'liqsiz, *progressiv assimilyatsiyalardir*.

Assimilyatsiya *kontakt* va *distakt* holatlarda ham bo'ladi. Kontakt assimilyatsiyada yonma-yon tovushlar o'zaro ta'sir qilsa (*ketgan* – *ketkan* kabi), distakt assimilyatsiyada o'zaro ta'sir qiluvchi tovushlar orasida boshqa tovush

(ko'pincha unli) bo'ladi: *kitob* – *kitop* kabi. Bunda ham jarangsiz t undoshi ja-rangli undoshni jarangsizlashtirgan.

Dissimilyatsiya – noo'xshashlik, o'xshashlikning buzilishi de-makdir. Dissimilyatsiya assimilyatsiyaning aksidir. So'z tarki-bidagi o'xshash tovushlarning noo'xshash tovushlarga aylani-shiga *dissimilyatsiya* deyiladi: *zarur* – *zaril*, *murdor* – *muddor*, *mumkin* - *mungkin* kabi.

Dissimilyatsiya ham *progressiv* va *regressiv*, *to'liq* va *to'liq-siz*, *kontakt* va *distakt* holatda bo'ladi.

Misollar:

zarur – *zaril*: *progressiv*, *to'liq*, *distakt* dissimilyatsiya;

koridor – *kolidor*: *regressiv*, *to'liq*, *distakt* dissimilyatsiya;

futbol – *fudbol*: *regressiv*, *to'liqsiz*, *kontakt* dissimilyatsiya;

bomba – *bonba*: *regressiv*, *to'liqsiz*, *kontakt* dissimilyatsiya.

Murdor – *muddor*, *mumkin* – *mungkin* so'zlari tarkibidagi to-vush o'zgarishlarida ham assimilyatsiya, ham dissimilyatsiya holatlari yuz bergan bo'lsa (*rd>dd*, *mk>ngk* kabi), *tug+gan* - *tukkan* (*gg>kk*) tovush o'zgarishlarida avval keyingi g undoshi oldingi g undoshini k undoshiga (*regr.diss.*), so'ng oldingi k undoshi keyingi g undoshini k undoshiga (*prog.ass.*) aylan-tirgan.

Metateza – o'rin almashtirish demakdir. So'z tarkibida qator kelgan ikki undoshning o'rin almashish hodisasiga *metateza* deyiladi.

Misollar: *daryo* – *dayro*, *yomg'lr* – *yog'mir*, *supra* – *surpa*, *tuproq* – *turpoq*, *aylanmoq* – *aynalmoq*, *kiprik* – *kirpik*, *o'rgan-moq* – *o'granmoq*, *yamlamoq* – *yalmamoq*, *ahvol* – *avhol*, *to'g'-ramoq* – *to'rg'amoq*, *tebratmoq* – *terbatmoq* kabi.

Metateza hodisasi maxsus fonetik qonuniyat asosida emas, balki ayrim so'zlarning talaffuzidagi yengillik asosida maydon-ga keladi.

Tovushlarning vaziyatiga ko'ra o'zgarishi

Tovushlar ba'zan talaffuz talabi va ayrim tovushlarning o'rin-lashish, joylashish qonuniyatlariga ko'ra ham o'zgarishga uch-raydi. Talaffuz me'yori va o'rin munosabatlariga ko'ra yuz beradigan fonetik o'zgarishlarga tovushlarning vaziyatiga ko'ra o'zgarishi yoki pozision o'zgarishlar deyiladi. Bunday tovush o'zgarishlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Reduksiya.

2. Eliziya.

3. Proteza.

4. Epenteza.

5. Prokopa.

6. Apokopa.

7. Sinkopa.

8. Diereza

9. Sinerezis.

10. Gaplologiya

Reduksiya – lotincha, aslida *orqaga qaytish* ma'nosida bo'lib, so'z tarkibida urg'usiz bo'g'indagi unli tovushning yoki bir bo'g'inli so'zlarda undoshlararo

vaziyatdagi tor unlilarning qisqarishidir. So'z tarkibidagi ayrim unli tovushlarning sifat jihatdan odatdagidan ko'ra qisqaroq talaffuz qilinishiga *reduk-siy* deyiladi.

Misollar: *bir* – *b:r*, *bil* – *b:l*, *biz* – *b:z*, *bilan* – *b:lan*, *biroq* – *b:roq* kabi.

Eliziya. So'z tarkibidagi ayrim tovushlarning tushish hodi-sasiga *eliziya* deyiladi. Eliziyaning bir qancha ko'rinishlari mavjud: 1) ayrim egalik qo'shimchasini olgan so'zlarda o'zak-dagi keyingi unli tushib qoladi: *shahar* – *shahrim*, *o'g'il* – *o'g'li*, *singil* – *singlim* kabi; 2) unli bilan tugovchi va unli bilan boshla-nuvchi ikki so'zning qo'shilishidan unlilardan biri tushib qoladi: *yoza oldi* – *yozoldi*, *bora oladi* – *boroladi* kabi; 3) undosh bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishida keyingi unli tushib qoladi: *borar ekan* – *borarkan*, *kelgan emish* – *kelganmish* kabi; 4) so'z tarkibidagi bir necha tovush (unli – undosh) tushib qoladi: *Abdusalom* – *Absalom*, *Abdujabbor* – *Abjabbor*, *Muhammadkarim* – *Matkarim* kabi. Bular eliziyaning yu-qori, murakkablashgan ko'rinishidir. Eliziyaning murakkab-lashishi natijasida so'zlarning qisqargan shakli hosil bo'ladi.

Proteza. Tarixan so'z boshida qo'llanmaydigan va so'z boshi-da qator kelgan undosh fonemalardan oldin bir unli tovushining orttirilishiga *proteza* deyiladi. Misollar: *shkaf* – *ishkaf*, *stol* – *ustol*, *rus* – *o'ris*, *stakan* – *istakan* kabi.

Epenteza. So'z oxiridagi qator kelgan undosh fonemalardan keyin bir unli tovushning orttirilishiga *epenteza* deyiladi. Masalan, *tank* – *tanka*, *kiosk* – *kioska*, *blank* – *blanka*, *bank* – *banka*, *otpusk* – *otpusk* kabi.

Prokopa. So'z boshida ayrim undosh fonemalarning tushi-rilish hodisasiga *prokopa* deyiladi: *yiroq* – *iroq*, *yog'och* – *og'och*, *yirtilmoq* – *irtilmoq*, *yigirmoq* – *igirmoq* kabi.

Apokopa. So'z oxirida qator kelgan undosh fonemalardan birining tushirilishiga *apokopa* deyiladi. Misollar: *sust* – *sus*, *g'isht* – *g'ish*, *go'sht* – *go'sh*, *daraxt* – *darax*, *Toshkent* – *Tosh-ken*, *Samarqand* – *Samarqan* kabi.

Sinkopa. So'z tarkibida qator kelgan undosh fonemalar o'rtasida bir unli tovushning orttirilish hodisasiga *sinkopa* deyiladi: *plan* – *pilan*, *tramvay* – *tiramvay*, *plug* – *piluk*, *kran* – *kiran*, *qirq* – *qiriq*, *baxt* – *baxit*, *daraxt* – *daraxit* va boshqalar.

Diereza. So'z tarkibida qator kelgan undosh tovushlardan birining tushirilishiga *diereza* deyiladi. Masalan, *sentner* – *sentir*, *povestka* – *poveska*, *tonggi* – *tongi*, *Munavvar* – *Muna-var*, *Mukarram* – *Mukaram*, *Muhabbat* – *Muhabat* kabi.

Sinerezis. So'z tarkibida qator kelgan unli fonemalarning tushirilish hodisasiga *sinerezis* deyiladi. Misollar: *Saodat* – *Sodat*, *maorif* – *morif*, *sanoat* – *sanot*, *matbaa* – *matba* kabi.

Gaplologiya. So'z tarkibida qator kelgan bir xil so'z bo'g'in-laridan birining tushirilish hodisasiga *gaplologiya* deyiladi. Misollar: *stepependiya* – *stependiya* (asli *stepependiya* < *ste-pen* – daraja, *pendiya* – nafaqa, darajasiga ko'ra nafaqa demakdir), *morfologiya* – *morfologiya*, *mineralologiya* – *mineralologiya*,

Nutq fonetik jihatidan tovushlar zanjiridan iborat. Tovushlar zanjiri o'zaro bir-biri bilan bog'liq va ma'lum tartib asosida ketma-ketlikka ega bo'lgan fonetik birliklardan tarkib topgan tovush xalqalarini tashkil etadi.

Nutqning fonetik birliklari nutq zanjiri xalqalari sifatida quyi-dagilarga bo'linadi: 1. Tovush. 2. Bo'g'in. 3. Takt. 4. Fraz.

Fraza - nutq zanjiridagi eng yirik fonetik birlik bo'lib, ular bir-biridan pauzalar (bir nafas oralig'i) bilan ajralib turadi. Har pauza oralig'ida so'zlovchi nafas rostlab, navbatdagi fraza uchun tayyorlanadi.

Fonetik birlik bo'lgan frazani grammatik birliklar hisoblangan so'z birikmalari va gap bilan tenglashtirmaslik lozim, chunki bir gap bir necha frazani tashkil qilgani kabi, bir fraza bir necha gaplardan ham tarkib topishi mumkin. Masalan, *Yer yetilib, kunlar isigach, xo'jalik a'zolari chigit ekishni qizg'in boshlab yubordilar* gapida «yer yetilib», «kunlar isigach» kabilar gapga teng; «xo'jalik a'zolari», «chigit ekishni», «qizg'in boshlab yubor-dilar» birikmaga teng frazalardir.

Takt – bir urg'u ostida birlashadigan frazaning qismlaridir. Fonetik jihatdan bir bosh urg'u ostida birlashadigan bo'lak taktdir. Masalan, *Bir Vatankim / tuprog'ida / har taraf gul / lola, bog'* gapida to'rtta takt bor: foilotun, foilotun, foilotun, foilun kabi.

Takt o'z tarkibidagi so'zlarning urg'uli-urg'usizligi bilan bog'liq. Ba'zan takt tarkibidagi birinchi qism, ba'zan ikkinchi qism urg'uli yoki urg'usiz bo'lishi mumkin. Bu shu qismlarning fonetik tuzilishiga emas, umumiy fikrning ifodalanishiga ham ta'sir qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misoldagi «bir Vatankim» taktida asosli urg'u Vatan so'zining ikkinchi bo'g'inida bo'lib, shu taktning «bir» va «kim» qismlari urg'usiz yoki yordamchi urg'ularga ega. Shuning uchun bu taktida «Vatan» «bir»ga nisbatan prokliza, «bir» «Vatan»ga nisbatan proklitika, «Vatan» «kim»ga nisbatan enkliza, «kim» «Vatan»ga nisbatan enklitikadir.

Bo'g'in. Takt bo'g'inlarga bo'linadi. Bo'g'in taktning bir yoki birdan ortiq tovushlar qo'shilmasidir. O'zbek tilida so'z bo'g'in-larini faqat unli tovushlarga shakllantiradi. Masalan, «bir Vatankim» birikmasi *bir-Va-tan-kim* kabi to'rt bo'g'indan tarkib topgan.

O'zbek tilida (unli tovushlar V – vokal, undosh tovushlar C –konsonant belgilari orqali ko'rsatiladi) so'z bo'g'inlari quyidagi ko'rinishlarga ega:

- 1) V: *o-ta, o-na, a-ka, u-ka* kabi;
- 2) CV: *bo-la, da-la, to-la* kabi.
- 3) VC: *ot, ish, uch, och, ich* kabi;
- 4) CVC: *non, suv, mak-tab, daf-tar* kabi;

- 5) CVCC: *sust, tinch, baxt* kabi;
- 6) VCC: *ust, ost* kabi;
- 7) CCVC: *tram-vay, trak-tor* kabi;
- 8) CCVCC: *sport, start, shtamp* kabi;
- 9) CCCVC: *sprav-ka* kabi;
- 10) VCCCC: *Ernst* kabi;
- 11) CCCCCVC: *Mrktchyan* va b.

Bundan ko'rinadiki, faqat 1-3 tiplar o'zbek tiliga xos bo'lib, boshqalari o'zbek tiliga boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar-dagina uchraydi.

URG'U

reja:

1. Urg'u haqida ma'lumot.
2. Urg'uning turlari:
 - a) o'rniga ko'ra: erkin va turg'un urg'u;
 - b) sifatiga ko'ra: dinamik va melodik urg'u;
 - c) so'z (leksik) va gap (mantiqiy) urg'u;
 - d) bosh va ikkinchi darajali urg'u.
3. Urg'u olmaydigan ayrim shakllar.
4. Xulosa.

So'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilish hodisasiga *urg'u* deyiladi. So'zda faqat unli tovush-largina urg'u oladi. Ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u olgan bo'g'in boshqalariga nisbatan kuchliroq, zarb bilan aytiladi. Masalan, *kitob*, *kitobim*, *kitobdan* kabi.

So'z bo'g'inlarida urg'uning qo'llanilishi hamma tillarda bir xil emas. Urg'u tushadigan bo'g'in o'rin jihatidan farqlanadi, shun-ga ko'ra urg'u dastlab *erkin urg'u* va *turg'un (bog'li) urg'uga* ajratiladi.

Erkin urg'u so'zning istagan bo'g'iniga tushishi mumkin. Masalan, rus tilidagi urg'u erkin urg'udir, shuning uchun u so'zning boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kela oladi: *a tlas, tra ktor, moloko* kabi. O'zbek tili urg'usi turg'un (bog'li) urg'udir, chunki o'zbek tilida urg'u doim so'zning oxirgi bo'g'i-nida keladi, bu, ayniqsa, so'zlar turli qo'shimchalar olib kengayganda yaqqolroq ko'zga tashlanadi: *ishchi, ishchila r, ishchilarimi z, ishchilarimizga* kabi. Urg'uning erkin bo'lishi ba'zan so'z ma'nolarini farqlash va, ayniqsa, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun katta xizmat qiladi.

Masalan, *qatlama* – ot, *qatla ma* – fe'l; *ho zir* – payt, ravish, *hozi r* – mavjudlik, ot kabi ma'no farqlasa, *televizor* so'zi to'g'ri talaffuz normasini belgilab beradi: *televizo r* emas, *televi zr* kabi. Hatto so'nggi urg'usiz bo'g'indagi o tovushi nol

darajaga yaqinlashadi.

Urg'u sifatiga ko'ra *dinamik (kuch) urg'u* va *melodik (musiqiy – cho'ziq) urg'uga* ajratiladi. O'zbek tili urg'usi dinamik urg'udir, chunki bunda urg'u tushgan bo'g'in boshqalariga nisbatan kuchliroq aytiladi va urg'usiz bo'g'inlardan ko'ra aniqroq talaffuz qilinadi: shaharliklardan kabi. Musiqaviy urg'uda zarb kuchli bo'lmay, ohang kuchli bo'ladi. Xitoy, yapon, litva, rus va boshqa tillari urg'usi musiqaviy urg'udir. Buni o'zbek tilidagi infinitiv, vokativ, ritorik so'roq gaplarda, shuningdek, erkalash, olqishlash, suyish va hurmat ma'nolarini anglatadigan vosita-larda kuzatish mumkin.

Urg'ular qanday til birliklarida qo'llanishiga ko'ra ham ikkiga bo'linadi: *so'z urg'usi* (leksik) va *gap urg'usi* (logik – mantiqiy).

Gap urg'usi yoki mantiqiy urg'u gap tarkibidagi so'zlardan biriga tushiriladi. Urg'u olgan so'z yoki bo'lak gap tarkibidagi boshqa so'z yoki bo'laklarga nisbatan ajratilib aytiladi (bunda ohangning ahamiyati katta), diqqat urg'uli so'zga qaratiladi, aynan shu so'z yo bo'lakdan anglashilgan ma'no ajratiladi, bo'rttiriladi. Bunday holatda gapda so'zlar yoki bo'laklarning tartibida ham o'zgarish yuz berishi mumkin, chunki so'z urg'usidagi kabi gap urg'usida ham urg'uli so'z yoki bo'lak har vaqt gap oxiriga intiladi. Qiyoslang:

Bugun kinoga me□n bordim – sen emas;

Men kinoga bug□un bordim – kecha emas;


Men bugun kin□oga bordim – teatrga emas;

Men bugun kinoga bor□dim – bormay qolmadim kabi.

Yoki *Salim ukam injener bo'ldi* gapida ham ohangning o'ziga xos o'zgarishini kuzatish mumkin.

So'z urg'ulari ahamiyat jihatdan bosh (bilamchi) va ikkinchi darajali (ikkilamchi) urg'ularga ajratiladi, lekin uning so'z ma'-nosini farqlash yoki talaffuz uchun qiymati uqadar sezilmaydi, bo'g'inlarning kuchli-kuchsizliginigina farqlaydi, xolos.

Masalan, «xizmatchiman» so'zida buni quyidagicha tasvirlash mumkin:



O'zbek tilida so'zlar affikslar olib kengayganda, urg'uning ham so'nggi bo'g'inga ko'chishini, almashinishini (ishchi – ish-chilar kabi) kuzatdik. Biroq tilda shunday affiks va affiks- yuklamalar borki, ular umuman urg'u olmaydi. Shuning uchun ular so'z oxirida kelganda ham, urg'u shu bo'g'inga ko'chmay, oldingi bo'g'inda qoladi: *aytdim-ku, bizlarginakabi*.

Quyidagi affiks va affiks-yuklamalar odatda urg'u olmaydi:

1) -mi, -ku, -chi, -da, -yoq (oq) kabi affiks-yuklamalar: *boʻr-mi? keʻldimi? oldilaʻr-ku, siʻz-chi?, ertasiga-yoq;*

2) kesimlik affikslari: *men ishchiʻman, sen talabaʻsan, u shoiʻrdir.*

3) kesimlik affikslariga xos ayrim tuslovchi qo'shimchalar: *ishlagaʻnman, o'qiʻyman;*

4) -cha affiksi: *mardlaʻrcha, yuzlaʻrcha;*

5) -gina affiksi: *bizlaʻrgina;*

6) -ta affiksi: *beʻshta, yuz miʻngta;*

7) bo'lishsizlik affiksi -ma: *soʻrama, aʻytma;*

8) -day, -dek affikslari: *seʻnday, olmaʻdek, muʻshttakkinakabi.*

Urg'u haqidagi bu qoidalarini o'zbek tiliga chetdan qabul qilingan so'zlarda tadbiiq qilib bo'lmaydi, chunki bunday so'z-lar, ayrim holatlarni hisobga olmaganida, o'zbek tilida ham o'z xususiyatini saqlab qoladi: *albaʻtta, umuʻman, haʻmma, prog-raʻmma, akadeʻmik* kabi.

ORFOEPIYA

reja:

1. Orfoepiya – tilshunoslikning to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatadigan bir bo'limi.
2. Unli fonemalar orfoepiyasi.
3. Ayrim undosh fonemalar orfoepiyasi.
4. Ayrim affikslar orfoepiyasi.
5. Ayrim so'z birikmalari orfoepiyasi.
6. Xulosa.

Adabiy tilning og'zaki shakli normalari talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi. Buni tilshunoslikning *orfoepiya* bo'limi o'rganadi. Adabiy talaffuz normalari va adabiy talaffuzni ongli boshqarish orfoepik qoidalar va orfoepik lug'atlar orqali amalga oshiriladi.

Orfoepiya – grekcha *«to'g'ri talaffuz»* degan ma'noni bildi-radi.

Adabiy talaffuz normalarini o'rgatuvchi tilshunoslikning bir bo'limiga *orfoepiya* deyiladi.

Orfoepiya talaffuz va to'g'ri gapirish qoidalarini o'zida jamlab, ularning adabiy talaffuzi normalarini belgilaydi.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida ikkita omil muhim o'rin tutadi. Bulardan biri orfografiya, ikkinchisi xalq og'zaki nutqi-ning turli ko'rinishlari va turli xil sheva talaffuzlaridir. Lekin orfoepiyaning shakllanishida birinchi omil muhimdir. O'zbek xalq shevalarining talaffuz normalariga tayangan holda ham orfoepik qoidalar yaratish mumkin.

«O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati»da «So'zlarning orfoepik shakllarini berishda morfologik jihatdan ham, fonetik jihatdan ham, asosan, Toshkent ziyolilari nutqi asos qilib olinadi», deyilgan. Bunda, albatta, boshqa shahar shevalari talaffuzi ham hisobga olinganligi tabiiydir.

Og'zaki adabiy nutq o'ziga xos lingvistik xodisadir. Ammo ushbu lingvistik xodisa o'zbek tilshunosligida shu kunga qadar yetarli tadqiq etilmay kelayotir. Shunga qaramay, 1984 yilda O'zbekiston Respublikasi FA til va adabiyot instituti tomonidan nashr qilingan «O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati» katta ahamiyat kasb etadi. Lug'atda o'zbek tilida faol qo'llanayotgan 20.000 dan ortiq so'z va so'z shakllarining adabiy-normativ talaffuzi belgilab berilgan, ba'zi so'z va grammatik shakllarning talaf-fuzidagi noto'g'ri ko'rinishi inkor qilinib, ularning to'g'ri aytilishi ko'rsatilgan.

Ko'rinadiki, mazkur lug'at adabiy talaffuz normalarini egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'z va uning qismlarini adabiy talaffuz normalariga ko'ra bir xilda aytish, ayniqsa, hozirgi vaqtda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Fan va texnikaning keyingi taraqqiyoti natijasida radio, televideniya erkin gapirish imkoniyatining oshganligi, turli majlis, umumiy yig'ilishlarda og'zaki nutqdan keng foydalanish doirasining kengayganligi so'z va iboralarni to'g'ri talaffuz qilish, tinglovchilarda notiqning nutqini to'g'ri va to'la tushunish imkoniyatini bermoqda.

Nutqning tabiatiga ko'ra adabiy talaffuz har xil bo'ladi. Shu jihatdan orfoepik uslublarni, asosan, ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) *to'liq uslub*, 2) *qisqartma uslub*. Ma'ruzachilar, aktyorlar, suxandonlar nutqi to'liq uslubga kiradi. Bu xil nutqlarda har bir so'z, uning morfemalari adabiy til qoidasiga mos ravishda to'la, aniq, dona-dona talaffuz qilinadi.

So'zlovchi o'z nutqiga beparvo qarashi oqibatida ayrim tovushlar turli o'zgarishlarga duch keladi, so'zning ba'zi elementlari qisqaradi. Natijada qisqartma uslub yuzaga keladi. Masalan, Absalom mehmondi Teshani uyiga obordi (aslida Abdusalom mehmonni Teshaning uyiga olib bordi) kabi. O'zbek adabiy tilining og'zaki formasi hozirda keng tarqalganligi, uning umumxalq mulkiga aylanganligi, shubhasiz. Ammo bu borada juz'iy kamchiliklar ham bor. Bular quyidagilar:

1. O'zbek adabiy tilining og'zaki normalarini barcha bir xil, mukammal egallay olgani yo'q.

2. Adabiy tilda so'zlashuvchilar nutqida mahalliy sheva ta'siri kuchli. Bu, ayniqsa, kundalik muloqotda sezilib turadi.

3. Keksa va yosh avlod nutqidagi tafovut, farqli talaffuz sezilib turadi: ijod||ejod, ixloc||ehlos, insof||insop, lekin||lokin, nekin kabi.

4. Og'zaki nutq normalarining doirasida hali talaffuzi kishini ikkilantiruvchi qator hodisalar mavjud: bashorat – ba-sharot, xayolot – xayolat, tazyiq – tayziq, avf – afv, shuning-dek, ruscha-internasional so'zlar talaffuzida ham shunga o'xshash

holatni kuzatamiz: tom – to'm, tok – to'k, Yevropa – Ovro'po kabi so'zlar tarkibida uchrovchi qator tovushlar talaf-fuzida qat'iylik yo'q yoki yetarli normalanmagan. Buning ustiga o'zlashma ruscha-internatsional so'zlar ikki xil talaffuz qilin-moqda. Rus tilini yaxshi o'zlashtirganlar bu so'zlarni ruscha talaffuzda, rus tili talaffuzidan yetarli xabardor bo'lmaganlar bu so'zlarni xilma-xil talaffuz qilmoqdalar. Bu qaydlar orfoepik normalarni tartibga solish, uning o'ziga xos tomonlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalari unli va undosh fonemalarning talaffuzi, morfologik elementlarning aytilishi, ayrim so'z birikmalarining talaffuz qilinishi kabi masa-lalarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra umumiy orfoepik normalar belgilanadi. Orfoepik normalar, odatda transkripsion belgilar vositasida ifodalanadi.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq jonli talaffuz hamma vaqt ham yozuvda teng bo'lavermaydi. Jumla-dan, yozuvda bor ba'zi tovushlar talaffuzda sezilar-sezilmas aytiladi: adabiyochchi, tuhmachchi, b:roq, b:lan kabi.

- yozuvda ifodalangan ba'zi tovushlar tushirilib aytiladi: davlatman, badbax, abstrak, komutator kabi.

- yozuvda ifodalangan tovush talaffuzda boshqa shaklga o'tadi: ayniqsa – aynixsa, maqsad – maxsad, peshvoz – pesh-vos, mazhab – mashab, arazchi – araschi, vokzal – vogzal, obod – obot, ZAGS – ZAKS, futbol – fudbol kabi.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalarni hisobga olgan holda, yagona orfoepik qoidalarni yaratish zarurati tug'iladi.

Unlilar talaffuzi

l l – unli, til oldi, yuqori tor, lablanmagan.

- so'zlarning yopiq bo'g'inlarida, xususan, jarangsiz undoshlar orasida bilinar-bilinmas, kuchsiz talaffuz etiladi: *bir, bitta, chigit, sigir, tik, til, chin* kabi.
- chuqur til orqa undoshlari q, g', x dan keyin kelganda, ruscha **ы** tovushiga moyil aytiladi: *qыz, qыsh, g'ыsh, qыrg'ыz, хырман, ахыр* kabi.
- so'zlarning ochiq bo'g'inlarida «i» unlisi birmuncha kengroq talaffuz etiladi: *bilimi, tinimi, ishi* kabi.
- ba'zi arabcha, forsha so'zlarda, shuningdek, internat-sional so'zlarning urg'uli bo'g'inlarida cho'ziq aytiladi: *di:n, muhi:m, muhi:t, ti:r, li:rika, tanqi:d, targ'i:b* kabi.
- til o'rta y tovushi oldidan kelganda ham «i» tovushi cho'ziq aytiladi: *bi:yron, si:yrak, ti:yin, Navoi:y, Muqimi:y, ijodi:y* kabi.
- so'z oxirida l unlisi o'zidan oldingi a yoki o unlisi bilan yonma-yon kelganda,

bu tovushdan oldin til o'rta y tovushi qo'shilib, cho'ziq aytiladi: *nuqtai nazar, oynai jahon, tarjimai hol, a'zoi badan* kabi.

- keyingi yopiq bo'g'indagi ikki undosh orasida l unlisi kelgan ba'zi so'zlarga egalik affiksi qo'shilganda l unlisi talaffuz etilmaydi: *og'iz-og'zi, qorin-qorni, ko'ngil-ko'ngli* (og'izi, qorini, ko'ngili emas) kabi.

li unlisi bilan tugagan fe'llarga v undoshi qo'shilganda, l tovushi u tarzida aytiladi: *tashuv, qashuv, o'quv* kabi.

U u – til orqa, yuqori tor, lablangan unli fonema.

U unlisi jarangsiz undoshlar orasida juda tor, bilinar-bilinmas talaffuz etiladi: tuxum, puchuk, pushaymon, Uchqun, tutun. U unlisi m, z, sh tovushlaridan oldin kelganda, i va u oralig'idagi bir tovush sifatida talaffuz etiladi: *bo'lim– bo'lum, o'tin – o'tun, o'qish– o'qush* kabi.

- so'zning ochiq bo'g'inlarida kengroq talaffuz etiladi: *butun, buzuk, quduq* kabi.
- ruscha-internatsional so'zlarda u tovushining til oldi, yumshoq varianti talaffuz etiladi: *luks, diktatura, sujet, kostum* kabi.
- birinchi bo'g'inda u talaffuz qilingan so'zlarning ikkinchi bo'g'inida ham u talaffuz qilinadi: *ulug', yutuq, uchqun, turg'un, kunduz, turmush, buyuk, kumush, buzruk, uyqu, tuyg'u, urg'uk* kabi.

E e – o'rta keng, til oldi, lablanmagan unli fonema.

- so'z yoki bo'g'in boshida yoki o'zi alohida bo'g'inni, tashkil etganda kengroq aytiladi: *er, el, esh, ellik, elat, ekran, egak* kabi.
- so'z o'rtasida undosh tovushlar orasida biroz torayib, yopiqroq talaffuz qilinadi: *kel, ket, kech, ter, sez, men* kabi.
- ruscha-internatsional so'zlarda urg'usiz e tovushi «i»ga moyil aytiladi: *tilifon, tiligraf, adris* (yozilishi: telefon, telegraf, adres) kabi.

O'o' – til orqa, o'rta keng, lablangan unli fonema.

Sayoz til orqa undoshlari k, g bilan yonma-yon kelganda, yumshoq talaffuz qilinadi: *go'zal, o'gay*, chuqur til orqa q, g' kabilar bilan yonma-yon kelganda, qattiq, til orqa varianti sifatida talaffuz etiladi: *g'o'za, g'o'la, xo'roz, xo'java* b.

A a – til oldi, kuyi keng, lablanmagan unli fonema.

- sayoz til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq: *katta, karam, gavhar*, chuqur til orqa undoshlari bilan kelganda, qattiq talaffuz etiladi: *qarg'a, qalam, xabar, g'alaba, qamishzork* kabi.
- ruscha-internatsional so'zlarda a tovushi qattiq aytiladi: *zal, mart, papka, karta* (zol, moshina, mort, popka tarzida aytish xato).

- ba'zi arabcha so'zlarda **a** unlisi birmuncha cho'ziq ayti-ladi. Yozuvda bunday hollarda tutuq belgisi ishlatiladi: *Ra'no, ma'no, a'lo, la'l*. Bunday so'zlarda **a** unlisini cho'ziq aytmaslik ma'noga putur yetkazadi: *da'vo-davo, ta'na-tana* kabi.

O o – til orqa, quyi keng, lablangan, unli fonema.

O unlisi bir bug'inli (*ol, osh* kabi), ikki bo'g'inli (*holor, bozorkabi*), uch bo'g'inli (*oshqozon, oltovlon* kabi) so'zlarda keladi va shunday talaffuz etiladi.

O unlisi ruscha-internatsional so'zlarning urg'usiz bo'g'ini-da **a** yoki **i** tarzida aytiladi: *redaktir, direktir, diktirkabi*, ammo *redaktor, direktor, diktoryoziladi*.

- so'z boshida kelib, o'zi alohida bo'g'in tashkil qilganda, cho'ziq talaffuz etiladi: *o:dil, o:lim, o:jiz, o:hak, o:voz, o:hod* kabi.

O'zbek tilining xususiyatlariga ko'ra unlilar yonma-yon kela olmaydi. Orfografiya qoidalariga muvofiq ular qator yozilsa ham, biroq boshqacha talaffuz qilinadi. Masalan, *maorif, taom, taomil* kabi so'zlardagi **ao** birikmasi cho'ziq **o** holatida aytiladi: *mo:rif, to:m, to:mil*. **ae** tipidagi birikmalar yonma-yon kelganda, «e» unlisi til o'rta «y» undoshi bilan almashib aytiladi: *ayroplan, ayrodrom, ayrostat*, **oe** tipidagi unlilar orasida bir «y» tovushi orttiriladi: *poyema, poyeziya* kabi.

Undoshlar talaffuzi

Bb – lab-lab, portlovchi, jarangli, shovqinli, undosh fonema.

- so'z oxirida «p» kabi talaffuz etiladi: *kitop, maktab, javop* kabi.
- ba'zi so'zlarda sirg'aluvchi «v» kabi talaffuzi etiladi: *boraber-borver, boybachcha-boyvachcha, dorboz-dorvoz* kabi.

Vv – undosh, lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli, undosh fonema.

- so'z oxirida yoki o'rtasida unli tovushdan keyin «f» yoki «p» tarzida aytiladi: *aktiv yoki aktip, sostaf* (tarkib), *afir, aftomobil, Yunusup yoki Yunusuf, Po'latup yoki Po'latuf* kabi.

Dd – til oldi, portlovchi, jarangli, shovqinli, undosh fonema.

- so'z oxirida «t» tarzida talaffuz etiladi: *ozot, madat, daromat* kabi.

Ff – sirg'aluvchi, jarangsiz tovushi «p» tarzida talaffuz etiladi: *ulpat, kapal, Sharop* kabi.

Jj – qorishiq (d-j) va **j** – sirg'aluvchi undoshlari ikki xil – qorishiq: *jo'ra, juma, juda va sirg'aluvchi ajdar, ajdod, ajnabiy, G'ijduvon* kabi talaffuz qilinadi.

Hh va Xx undoshlari mustaqil fonemalar bo'lib, ularni aralashtirib talaffuz qilish ma'noga putur yetkazadi: *hol* – holat ma'nosida, *xol* – meng, *hush* – sezgi ma'nosida, *xush* – yaxshi, *shoh* – amir, *shox* – hayvon a'zosi. Shuning uchun h va x fonemalari talaffuzida quyidagilarga e'tibor qilish kerak:

1. Ba'zan so'z ichida i, o unlilari orasida «h» fonemasi «i» yoki «y» ga aylanadi: *xoyish* (xohish), *Soyib* (Sohib), *Moyira* (Mohira), *koyish* (kohish). Bunday so'zlarni talaffuz etganda, «h» tovushini o'zgartirmaslik kerak.

2. So'z oxirida unlidan keyin kelganda: *go* (goh), *xo* (xoh), *guno* (gunoh), *sho* (shoh), «h» ni talaffuz etish ham etmaslik ham mumkin.

3. Arab tilidan o'zlashgan *Abdulloh*, *Narzulloh*, *Fatulloh* kabi ba'zi kishi nomlari oxirida «h» talaffuz qilinmaydi va yozilmaydi.

Afsuski «h» va «x» ni ishlatishdagi yanglishlar matbuotimiz sahifalarida ham uchraydi. Chunonchi, A.Muxtorning «Opa-singillar» asarida «h» va «x» chalkashligi 15 joyda, P.Tursunning «O'qituvchi» asarida 19 joyda, Xiromiyning «Chor darvesh» asarida 18 joyda uchraydi va b.

Qiyoslash uchun misollar: *Namanganning olmasi xil-xil pishibdi* (xil-xil – turli-tuman), *Namanganning olmasi hil-hil pishibdi* (hil-hil – ezilib) yoki *Shox qulatildi* (daraxtning shoxi), *Shoh qulatildi* (podsho).

So'z o'rtasida qo'shaloq kelgan undoshlarning ikkovi ham to'la talaffuz qilinadi: *labbay*, *muhabbat*, *tibbiy*, *affiks*, *quvvat*, *kommunal*, *musaffo*, *pashsha*, *digqat*, *to'qqiz* kabi.

Ayrim qo'shimchalar talaffuzi

- **-lar ko'plik qo'shimchasi so'z qanday tovush bilan tugaganiga qaramay, bir butun shaklida *-lartarzida* talaffuz etiladi: *bolalar*, *oyimlarkabi*.**
- **egalik affikslari so'z negizlaridagi lablangan unlilar bilan moslashmaydi, ya'ni *qo'lum*, *ko'nglum*, *bo'yungemas*, *qo'lim*, *ko'nglim*, *bo'yingtarzida* aytiladi.**
- **egalik qo'shimchasini olgan ayrim so'zlarning negizidagi «i» tovushi tushiriladi: *ko'ngil* – *ko'nglim*, *qo'yin* – *qo'yning*, *bo'yin* – *bo'ynim*, *burun* – *burnim* kabi.**

Qaratqich va tushum kelishigi shakllari markaziy shahar shevalarida, jumladan, Buxoro va Toshkent shevalarida farq-lanmaydi. Ammo adabiy tilda bu kelishiklar affikslarining vazifalari hamda talaffuzi keskin farqlanadi: ot bilan ot birik-masida (qaratqich vazifasida – -ning); ot bilan fe'l birikmasida (tushum vazifasida – -ni) aniq va ochiq aytiladi: *qushning uyasi*, *kitobni oldim* kabi.

Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi *(-ga)* *-ga*, *-ka*, *-qa* variantlari bo'yicha aytiladi, biroq yangi imlo talablaridan kelib chiqib, aslicha yoziladi: *uyga*, *elakga*,

qishloqqa, bog'ga kabi. (Bunda etimologik-grafik prinsipni buzmaslik ko'zda tutilgan bo'lishi kerak).

Sifatdosh, ravishdosh formalarini yasovchi **-gan, -kan, -gani, -kani, -gach, -kach**, shuningdek, **-gin, -kin, -gina, -kina** qo'shimchalari shunday yoziladi va talaffuz etiladi.

Kishilik olmoshlarining **men, sen** shakli **man, san** forma-sida talaffuz qilinadi. Ularga qaratqich, tushum kelishigi qo'-shimchalari (-ning, -ni) qo'shilganda, bitta -n tovushi tushirilib talaffuz qilinadi: **menni** emas **meni**, **menning** emas **mening**. Aksincha, **u, bu, shu, o'sha** kabi ko'rsatish olmoshlariga makon kelishiklari qo'shimchalari qo'shilganda, bitta -n o'rttiriladi: **unga, shunda, o'shandan** kabi.

Hozirgi zamon fe'l formasi -yap affiksining talaffuzi orfoepiya uchun umumiy bo'lib qoldi: **boryapti, kelyapti**. Affikslarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan qisqartmalar adabiy talaffuz uchun yot holatdir: **opti, kepti, opkep qoldi** kabi qisqartmalar emas, **olibdi, kelibdi, olib kelib qolibdi** bo'lishi kerak.

So'z birikmalarining qisqargan shakllari emas, balki ularning to'la shakllari adabiy talaffuz uchun normal holatdir. Jumladan, qisqargan shakllar adabiy talaffuz uchun xarakterli emas: **shetta** emas, **shu yerda, o'tta** emas, **u yerda** kabi.

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi kungacha o'zbek adabiy tili talaffuzi qoidalarini yetarli ishlanmagan. Natijada, turli kitoblarda turlicha talqin va nazariyalar hukm surmoqda. Bu holni 1980 yil nashr qilingan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kitobida ham ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbek orfografiyasi normalari haqida gapirilib, «tanbur» so'zining «tambur» tarzida, «sunbula» so'zini «sumbula» tarzida aytish ham orfoepik normadan chekinish bo'lmaydi, deyiladi. Holbuki, bunday talaffuz ma'noga putur yetkazadi. Yoki «shu yerda» so'zini «sherda» deb talaffuz qilish ham adabiy normadan chekinish bo'lmaydi deyiladi. Bu ham o'rinsizdir, holbuki, sherda – chorvadorlar nutqida so'yib, o'rtada bo'lib olinadigan mol ma'nosida ham qo'llaniladi. Xursand, Samarqand, dard, go'sht, past so'zlarida oxirgi tovushni tushirib talaffuz qilish ham yaxshi emas. Bu tip so'zlarni to'liq aytish talaffuz va imlo birligini ta'minlaydi. Samarqanu Buxoroni deyish o'rniga Samarqandu Buxoroni deyish qulayroq.

ORFOGRAFIYA

reja:

1. Orfografiya haqida ma'lumot.
2. O'zbek orfografiyasining tamoyillari.
3. Xulosa.

Orfografiya grekcha **to'g'ri yozmoq** demakdir. So'z o'zak-negizlari va qo'shimchalarini yagona tarzda yozish haqidagi qoidalar yig'indisi **orfografiya**

deyiladi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xosdir. Orfografiya o'z navbatida orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog'liqdir. Lekin o'zbek orfografiyasida hali anchagina kamchiliklar va ba'zi chalkashliklar uchraydi. Bunga sabab: 1) o'zbek alifbosidagi kamchiliklar; 2) orfoepiyaning ishlanmaganligi; 3) qo'shma so'zlar imlosining bo'sh ishlaganligidir.

O'zbek orfografiyasining tamoyillari

Tamoyil (prinsip) – lotincha *boshlanish* demakdir. Imloviy tamoyillar yozuvning poydevoridir. Orfografiyaning uchta asosiy tamoyili bor: 1) *fonetik tamoyil*, 2) *morfologik tamoyil*, 3) *tarixiy-an'anaviy tamoyil*. Bulardan tashqari, 4) *differensial tamoyil* va 5) *grafik* yoki *etimologik tamoyillar* ham mavjud. Lekin keyingi ikkalasi asosiy rol o'ynamaydi. O'zbek orfografiyasidagi mazkur tamoyillar o'zaro bog'liq holda ish ko'radi. Yozuvda xilma-xillikka yo'l qo'ymaslik uchun bularga qat'iy rioya qilinadi.

Fonetik tamoyil

So'z tarkibidagi nutq tovushlarining aytilishi va eshiti-lishiga ko'ra yozilishi *fonetik tamoyil*ga xos. Bunga ko'ra so'zlar adabiy talaffuzda qanday aytilsa, shunday yoziladi. Masalan, ong o'zagidan *-la* affiksi bilan yasalgan so'z onгла emas, angla shaklida yoziladi, ya'ni o'zakdagi o o'rniga a talaffuz qilinarkan, xuddi shunday yoziladi. *Ishla* negizidan yasalgan *ishlovchi* so'zida a o'rniga o yoziladi. (*tara – taroq* so'zlarida ham shunday). Shuningdek, ruscha *schet*, *shetka* so'zlari ham eshiti-lishiga ko'ra *cho't*, *cho'tkat* tarzida yoziladi.

Fonetik tamoyil orfografiyani jonli talaffuzga yaqinlash-tiradi. Yozuv va talaffuzda ma'lum darajada umumiylik saqlanadi.

Nutqimizda *tushdi* so'zi *tushti*, *tushgan* so'zi *tushkan* tarzi-da talaffuz qilinadi. Ba'zan so'z oxirida bir undosh tushirilib aytiladiki (*Samarqan, xursan, pas* kabi), bu so'zlar talaffuzdan boshqacharoq yoki to'liq yoziladi. Bu holat fonetik tamoyil orfografiyaning yagona tamoyili bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Xuddi shuningdek, alifbodagi kamchiliklar tufayli unlilar qattiq va yumshoq talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, bir xilda yoziladi: *biz, tiz, qiz, qish, ko'l, ko'z, qo'y, qo'zi, qalb, ona, qur, bur, tur, o'r, ur* kabi.

Morfologik tamoyil

Nutqdagi so'z va affikslar qanday aytilishiga ko'ra emas, balki ularning butunligiga yoki variantlaridan birini tanlab olish asosida yozish *morfologik tamoyil* deyiladi. Morfologik tamoyil so'z va morfemalarni adabiy tilda muqim shakllarida saqlash va yozishga ko'maklashadi, yozuvda bir xillikni ta'minlaydi.

Masalan, *uchta* so'zi *ushta*, *kelib turibdi* so'zi *kep turipti* tarzida aytiladi. Ammo ular asliga muvofiq *uchta*, *kelib turibdi* deb yoziladi. Yoki *-lar* affiksining *-la*, *-lor*, *-nar* tarzida aytili-shiga qaramay, uning butunligiga ko'ra *-lar* shaklida yoziladi. Fe'lning infinitiv shakli *-moq*, shuningdek, qo'shimchalarning deyarli hamma shakli morfologik tamoyil bo'yicha yoziladi: Egalik affikslari: *-im*, *-ing*, *-i*, kelishik afikslari: *-ning*, *-ni*, *-da*, *-dan* (jo'nalish kelishigi bundan mustasno), so'z yasovchilar ham turlicha aytilishdan qat'iy nazar, imloda o'zining bir xil morfologik shaklini saqlagan holda yoziladi. Ko'rinadiki, morfo-logik tamoyil o'zbek orfografiyasining yetakchi tamoyili bo'lib hisoblanadi.

Tarixiy-an'anaviy tamoyil

So'zlarning hozirgi talaffuz normasiga mos kelmaydigan, qadimdan o'zlashib qolgan shaklda yozilishi *tarixiy-an'anaviy tamoyil* deyiladi. Boshqacha aytganda, so'zlar hozirgi holatiga ko'ra emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko'ra yoziladi: *Chor Rossiyasi*, *pudratchi*, *fahm*, *rahm* kabi.

Hozirgi orfografiyada tarixiy-an'anaviy tamoyil asosida yoziluvchi ba'zi shakllar quyidagilar:

1. Buyruq-istak mayli (-gin) mumtoz adabiyotimizda qo'llanib kelgan an'ana (she'riyat talabi)ga ko'ra *-gil*, *-g'il* tarzida ishlatiladi: *borgil* // *borg'il*.

Meni kutgil va men qaytarmen (K.Simonov)

Bas, yetar, cholg'uvchi, bas qil sozingni,

Bas, yetar ko'ksimga urmagil xanjar (A.Oripov).

2. Maqsad ma'nosini anglatuvchi *-gani* shaklining *-gali*, *-g'ali*, *-kali*, *-qali* shakllari:

Ko'rgali keldingmu yor,

Kuydirgali keldingmu yor (qo'shiq).

3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shaklini yasovchi *-ur* shakli:

Yulduzlar o'tiga bardosh berurman

Fazolar taftiga qilurman toqat (A.Oripov)

4. *-mushakli*:

Sevgini tortib bo'lurmu

Toshu tarozi bilan (E.Vohidov)

Qora qoshing oy yuzingda hilol emasmu (P.Mo'min)

5. Navoiy, Fidoiy, Atoiy kabi so'zlar arab tilining qoidasini o'zlashtirish asosida orfografiyamizga kirib kelgan.

Differensial tamoyil

Talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o'zaro farqlari deyarli

sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so'zlar yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yozilishi *differensiyalash (farqlash) tamoyili* deyiladi.

Bu tamoyil kam qo'llanadi. Ayrim misollar:

1. O'zaro yaqin, shakldosh so'zlar yozuvda tutuq belgisi yordamida farqlab qo'llanadi: *da'vo* – *davo*, *na'sha* – *nasha*, *she'r* – *sher*, *sur'at* – *surat*, *ta'qib* – *taqib* kabi.

2. Ba'zi shakldosh so'zlar talaffuzda urg'u yordamida farqlanadi. Imloda bunday so'zlarga urg'u belgisi qo'yiladi: *atlas*(karta) – *atlas*(mato), *banda*(shayka) – *banda*(qul), *ara-lashma*(qorishma) – *aralashma*(qo'shilmaslik).

3. *-li* va *-lik* qo'shimchalari yozuvda 1956 yilgacha farq-lanmay qo'llanilar edi. 1956 yildan boshlab adabiy orfogra-fi-yamizda ularni farqlab qo'llashga o'tildi. Tegishlilik ma'nosini ifodalashda *-lik* affiksi: *shaharlik*, *qishloqlik*, *toshkentlik*; ega ekanlik ma'nosida esa *-li* affiksi qo'llana boshlandi: *otli*, *to'ntli*. Buning natijasida imloda bir xillikka erishildi. Qat'iy nazar, mazkur affikslarni farqsiz qo'llash holatlari hali ham uchrab turadi. Qiyoslang: *chelakli kishi* – *chelaklik kishi* va b.

4. *-lik* affiksi bilan ham so'zlar farqlanadi: *bog'liq* – aloqa-dor, *bog'liq* – mol yoki pichanni bog'laydigan narsa; *bo'shlik* – yuvosh, *bo'shlik* – fazo kabi.

Etimologik yoki grafik tamoyil

O'zlashgan so'zlarning qadimgi etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish asosida yozish imloda *etimologik* yoki *grafik tamoyil* deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvda o'zlashma so'zning etimologiyasi saqlanadi. Masalan, *Navoiy*, *Lutfiy*, *Maoniy*, *mutolaa*, *mushoira*, *muammo* kabi so'zlar ham shu tamoyil asosida yozilgan. Rus tili va u orqali o'zlashgan *rol*, *sentner*, *tender*, *kompyuter*, *bank*, *senator*, *aksiya* kabi so'z-lar etimologik-grafik tamoyil asosida yozilmoqda. Shunisi xarakterliki, o'zbek tili talaffuzi uchun qiyin bo'lgan ba'zi ruscha-internatsional so'zlar hozirgi orfografik qoidalarga ko'ra, istisno tarzda, tilimizning talaffuz xususiyatlariga moslab yoziladi va talaffuz qilinadi: *kiosk* – *kioska*, *propusk* – *propus-ka*, *otpusk* – *otpuska*, *bank* – *banka* kabi.

Ayni vaqtda orfografiya tamoyillari o'rtasida uzviy aloqa ham mavjud. Oilaviy, *Navoiy* kabi so'zlarning oxiridagi *-viy*, *-iy* qo'shimchalari tarixiy-an'anaviy tamoyilga ham, etimologik-grafik tamoyilga ham mos keladi.

Jo'nalish kelishigi shakli *-ga*, *-ka*, *-qa* yozilishida fonetik va morfologik tamoyillar mos keladi.

GRAFIKA

reja:

1. Grafika haqida tushuncha.

- 2. Og'zaki va yozma nutq.**
- 3. Yozuvning tarixiy ahamiyati.**
- 4. O'zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma'lumot.**
- 5. O'zbek tilining asosiy imlo qo'iralar.**
- 6. Xulosa.**

Grafika grekcha *graphikos* so'zidan olingan bo'lib, tilshu-noslikda *yozuv* degan ma'noni anglatadi.

Demak, grafika umuman olganda, harflar yoki chiziqlar vositasida aks ettiriladigan shartli belgilarning muayyan tizi-midir. Yozuvning piktografik, ideografik va fonografik kabi turlari bor.

O'zbek yozuvi hozirgi holga kelgunga qadar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, juda ko'p o'zgarishlarga uchraydi.

Til va yozuvning o'zaro munosabati. Yozuv ijtimoiy talablar asosida jamiyatning muayyan taraqqiyot davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallasha borgan. Yozuv tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng kata madaniy yutuqlardan biri hisoblanadi va tilning yozuvdagi formasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Yozuv bilan til o'zaro uzviy aloqadordir. Shuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomonlar mavjud. Yozuv ko'p hollarda tilning o'rnini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyatlar yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto o'zlaridan keyingi avlodlar bilan ham aloqa bog'lash imkoniyati mavjud. Biroq, yozuvning tilga nisbatan o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u tilning to'liq emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aksidir. Shuning uchun ham tilning xizmat doirasida zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangandir. Ikkinchidan, yozuv orqali ish ko'rilganda, vaqtdan yutqaziladi. Uchinchidan, yozuv maxsus vositalarsiz, ya'ni yozuv asboblarisiz amalga oshmaydi. To'rtinchidan, yozuv savodi yo'q kishilar uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo'lmagan taqdirda (mas., qorong'ida) ahamiyatini yo'qotadi.

Bundan tashqari, til jamiyatning barcha a'zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z formasini keskin o'zgartirmagan holda o'sib, mukammallashib boradi. Yozuv esa, bir tomondan, tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkin-chidan, u aloqa vositasining shartli formasi sifatida o'z tusini yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yoki jamiyatning talablariga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o'zgartirishi ham mum-kin. Qisqasi, yozuv ko'p jihatdan tilga yaqin bo'lib, ba'zi hollar-da uning o'rnini bosa olsa ham, lekin vazifasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. Shuning uchun ham u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til bilan teng huquqli bo'la olmaydi.

Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning jamiyat bo'lishida

asosiy rol o'ynovchi eng muhim omillardan biridir. Shunga ko'ra tilsiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas. Lekin yozuvsiz jamiyat bo'lgan. Jamiyatning kelgusi taraqqiyotida ommaviy aloqa vositalari kabi yozuvdan ustunroq bo'l-gan yangi vositalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Og'zaki nutq va tovush tili aloqa vositasi sifatida kishilar-ning barcha ehtiyojlarini maksimal darajada qondirsa ham, hozirgi davr kompyuter taraqqiyoti nuqtai nazaridan uning ikkita juz'iy kamchiligi bor: 1) u bir individ (shaxs)ning tili sifatida bevosita yaqin masofada turgan suhbatdoshga eshi-tiladi, xolos (uyali va video telefonlar bundan mustasno); 2) og'zaki nutq zamonda chegaralangan, ya'ni u aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi.

Yozuvning asosiy xususiyatlaridan yana biri uning grafik belgi bo'lib xizmat qila olishidir. Yozuv uchun grafik belgilar qabul qilingunga qadar kishilar har xil jonli va jonsiz pred-metlardan simvolik tarzda foydalanar edi. (Masalan, olov yoqib yoki toshlarni har xil shaklda qo'yib, daraxtlarni o'yib va ularga belgi qo'yib, qushlar yoki itlar orqali xabarlashish va b.).

Yozuv o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki ma'lum bir ehtiyoj va zarurat asosida fikrni uzoq masofaga yetkazish yoki keyingi avlodlarga qoldirish talabi farqli o'laroq yozuvning o'ziga xos xarakterli belgilari bor.

Birinchidan, yozuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo'lolmaydi. U asosiy aloqa vositasi bo'lgan til uchun yordam-chi hisoblanadi. Shuning uchun ham yozuv jamiyat taraqqiyo-tining keyingi davrlarida paydo bo'lgan. Buning ustiga yozuv o'tmishda jamiyat a'zolarining barchasiga emas, balki uning faqat bir qismigagina xizmat qilar edi. Shuning uchun ham yozuv mustaqil aloqa vositasi bo'lolmaydi. Ikkinchidan, yozuv-ning asosiy vazifasi nutqni uzoq masofaga yetkazish va keyingi davrlarga qoldirish uchun xizmat qilishdan iborat. Uchinchidan, ko'z bilan qabul qilinadigan grafik belgilar yozuvning asosiy quroli bo'lib hisoblanadi.

Demak, yozuv ko'z bilan ko'radigan va kishilar o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi bo'lib, uning jamiyatda o'ziga xos katta o'rni va xiz-mati bor, ya'ni yozuv ma'lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqalarni yaxshilashda, yozma adabiyotni va yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma'lum bir davrda yaratilgan madaniy-adabiy yodgorliklarni keyingi davrga yetkazib berish-da muhim rol o'ynadi.

Og'zaki va yozma nutq. Nutq ham til va yozuv kabi ikki xil shaklga ega: a) og'zaki nutq; b) yozma nutq. Og'zaki nutq tilning (nutqning) tabiiy holdagi ko'rinishidir. Yozma nutq esa shu tabiiy nutqning yozuvdagi ifodasidir. Shunga ko'ra, og'zaki nutq o'zining tabiiyligi, ta'sir doirasi va talaffuz xususiyatlariga egaligi bilan yozma nutqdan jiddiy farq qiladi. Og'zaki nutq fikrni ifodalashning asosiy vositasidir. Unda tovushlar yig'indi-si, ba'zan ayrim tovush vositalari bilan fikr bayon etiladi. Nutq organlari vositasida fikrni ro'yobga chiqarish va eshitish organlari orqali uni

uqib, idrok qilish og'zaki nutqning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Nutqning yozma shakli uning tabiiy shakliga o'xshab nutq organlari yordamida ifodalanmaydi. Yozma nutqda kishilar o'z fikrlarini turli shartli belgilar vositasi bilan ifoda qiladi. Shunga ko'ra, yozma nutq tabiiy nutqning shartli ko'rinishi bo'lib, fikrni ifodalash vositasi sifatida u ma'lum darajada chegaralanganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham nutqning yozma formasi qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lmasin, u tabiiy nutqsiz mavjud emas va uning o'rnini bosa olmaydi. Balki yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi, xolos.

Yozuvning tarixiy ahamiyati

Yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko'tarilishi, shuningdek, siyosiy-xuquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrlarga qoldirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan bog'liq. Demak, yozuv jamiyatning eng buyuk madaniy kashfiyotlaridan biri bo'lib, uning kishilik jamiyati taraqqiyotida juda katta ahamiyati va o'ziga xos o'rni bor.

Xalqlarning qadimiy yozuvini o'rganish juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Yozuvni o'rganish va ilgari davr-larda yaratilgan yozma yodgorliklarni o'qish qadimda amal qilgan tillarning leksik-grammatik xususiyatlarini, o'sha yod-gorlik egasi bo'lgan xalqning tarixiy urf-odatlari va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Agar yozuv bo'lmaganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratil-gan yuksak madaniyat namunalari bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi. Homer, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Nizo-miy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarning qimmatli fikrlaridan bahramand bo'la olmas edik.

Jamiyatda kitob, gazeta, jurnal va, umuman, matbuotning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati yuksak darajaga ko'tarila borayot-gan hozirgi paytda yozuvning, yozma adabiy tilning roli ham o'sib, ta'sir doirasi kengayib bormoqda.

O'zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma'lumot

Markaziy Osiyoda eng qadimgi davrlarda yashagan qabilalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar grek, eron, xitoy tarixchilari va yozuvchilari asarlarida, toshlarda bitib qoldiril-gan yozuvlar va boshqa materiallarda bayon qilingan.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelgan. O'zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatib kelingan asosiy yozuv tizimini fonografik, ya'ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O'zbek

xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari *oromiy, yu-non, karoshta, sug'd, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, o'rxun (runik), uyg'ur, arab, lotin, kirill* kabi bir qancha yozuvlardan foydalangan. O'rxun-runik yozuvini barcha turkiy xalqlar birgalikda ijod qilgan.

Sobiq sho'rolar davrida deyarli barcha Sharq xalqlari bilan bir qatorda avval lotin, keyinchalik esa rus grafikasiga asoslangan yozuvni qabul qilish o'zbek xalqi hayotida o'ziga xos hodisa bo'ldi.

Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoning Eron-ga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida *klinopis* (mixxat) yozuvi ishlatilar (er. avv. V asr), ayrim joylarda esa xalqaro diplomatik muomalada *oromiy* yozuvi qo'llanilar edi. *Oromiy* yozuvi klinopisdan oddiy va qulay edi. Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan oldingi III-I asrlarda *oromiy* yozuvi bilan bir qatorda *yunon* va *karoshta* yozuvlari ham ishlatilgan.

Eramizning boshlarida *so'g'd* yozuvi qo'llanila boshladi. Bu yozuv taxminan VI asrlargacha davom etdi. II asrning oxiri va III asrning boshlarida Xorazm shohi chiqargan pullarda *xorazm* yozuvi uchraydi. Bu yozuv O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo'lib, *oromiy* yozuviga yaqin edi.

V-VII asrlar davomida turkiy xalqlar *o'rxun-enasoy* nomli yozuvdan keng foydalanganlar. Bu yozuv ba'zan *runik* yozuvi deb ham yuritiladi. Yenisey daryosi havzasidan topilgan O'rxun yozuvi yodgorliklari haqida dastlab XVIII asrning boshlarida rus xizmatchisi Remezov xabar berdi. Keyinroq shved ofitseri Iogann Strahlenberg shu daryo havzasida noma'lum yozuvli tosh borligini qayd etadi. Bu haqda olim Messerschmidt ham o'z asarlarida ma'lumot berib o'tadi. Ammo uzoq vaqt davomida olimlar bu yodgorliklarni o'qishga, uning qaysi xalqqa tegishli yodgorlik ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'la olmadilar.

XIX asrning birinchi choragida «Сибирский вестник» («Sibir xabarlari») jurnalida Grigoriy Spasskiyning Yenisey yodgorliklari haqida maqolasi bosiladi. Bu maqola lotin tiliga tarjima qilinib, ko'p mamlakatlarning olimlariga ma'lum bo'ladi. Lekin turli mamlakat olimlari uni turlicha talqin qila bosh-laydilar.

1890 yilda Fin-Ugor ilmiy jamiyati O'rxun daryosiga arxeologik ekspedisiya uyushtiradi. 1891 yil esa Rossiya Fan-lar Akademiyasi akademik V.V.Radlov boshchiligida O'rxunga katta ekspedisiya yubordi. 1892 yilda bu ekspedisiyaning ish natijalari ikkita atlas holida nashr qilinib, ularda noma'lum yozuv yodgorliklarining surati, ular topilgan joylarning tarhi, xaritasi va boshqa ma'lumotlar berilgan edi. Yodgorliklarning birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomsen o'qishga muvaffaq bo'ldi. U bu yodgorliklarni o'qishda turli alfavitlarga tayanmay, ishni harflarning o'zaro nisbati va o'xshashliklarini aniqlashdan boshladi. Turkiy tillardagi ba'zi bir tovushlarning qator kelish yoki kelmaslik holatini o'rganib, uni yodgorlikka solishtirib ko'rdi. U yodgorlik yozuvini chapdan

o'ngga qarab emas, balki o'ngdan chapga qarab o'qish kerakligini aniqladi. V.Tomsen birinchi bo'lib *turk, tangri* so'zlarini o'qib, mazkur yodgorlik turkiy halqlarga tegishli degan xulosaga keldi. 1893 yilning 25 noyabrida deyarli barcha harflarni aniqlab yodgorliklarning «siri»ni ochdi. Bu orada akademik V.V.Radlov ham 15 ga yaqin harflarni o'rganib ulgurgan edi.

V.V.Radlov o'zining va V.Tomsenning kashfiyotiga tayanib, O'rxun daryosi atrofidan topilgan bir necha yodgorliklar matni-ni birinchi bo'lib tarjima qildi.

Shunday qilib, Daniya olimi V.Tomsen ikki so'zni oldin o'qigan bo'lsa-da, ayni bir vaqtda rus olimi V.V.Radlovning ham bu yozuvlarni o'qishda xizmatlari kattadir. Shunga ko'ra, ushbu yozuvlarning birinchi bo'lib o'qish va izohlab berish sohasida har ikki olimning xizmatlari ham bir xil baholanadi.

Keyinchalik O'rxun-enasoy yozuvining yangi-yangi yodgorliklari topildi, o'rganildi va aniqlandi.

Umuman, O'rxun-enasoy yodgorliklarini tekshirish va o'rganishda V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, A.Geykel, S.Y.Malov kabi rus va chet el olimlarining xizmatlari juda kattadir. Hozirgi vaqtda ularning ishlarini yangidan yetishib chiqqayotgan yosh va iqtidorli olimlar muvaffaqiyat bilan davom ettirmoqdalar.

O'rxun-enasoy yodgorliklari xos ayrim leksik birlik va grammatik shakllarni hozirgi o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qir-g'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qorachoy, bolqar va boshqa turkiy tillarda uchratish mumkin. Shunga ko'ra, S.Y.Malov ta'kidlaganidek, bu yodgorliklar ko'pchilik turkiy tillar tarixini o'rganishda mushtarak bir manba sifatida juda katta ahamiyat kash etadi.

Qisqasi, O'rxun-enasoy yozuvi turkiy xalqlarning eng katta madaniy yodgorliklaridan hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu yozuv turkiy xalqlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiy va yetuk madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, mazkur yozuv ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos o'rin tutadi.

VI-VII asrlardan boshlab turkiy halqlar va mo'g'ullarda *uyg'ur alfaviti* qo'llangan. Akademik V.V.Radlovning ta'kidla-shicha, bu alfavit turkiy xalqlar orasida ancha keng ishlatilgan.

XIV-XV asrlarda yaratilgan «Baxtiyornoma», «Me'rojno-ma», «Tazkirai avliyo» kabi asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Hatto 1469 yilda tuzilgan Umar Shayx yorlig'i ham uyg'urcha yozilgan.

Qadimgi uyg'ur yozuvi bilan ish ko'rish ayrim yozma adabiy tillarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va sezilarli iz qoldirdi. Masalan, qadimgi uyg'ur tiliga xos bo'lgan bir qancha morfologik, leksik, fonetik elementlarni Navoiygacha yaratilgan ko'pgina yodgorliklarda uchratamiz.

VII-VIII asrlarda O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinadi va shundan keyin barcha O'rta Osiyo xalqlari qatori o'zbek xalqi ham arab yozuvi bilan ish ko'ra

boshlaydi. Shu-ning uchun bu davrdan boshlab, turkiy olimlarning deyarli barcha asarlari asosan arab alifbosida bitilgan.

Arab yozuvi o'zbek tili xususiyatlariga ko'p jihatdan muvo-fiq kelmas edi. Bundan tashqari, bu yozuv o'zbek xalqini yanada kuchliroq asoratda tutish, ekspluatasiya qilish va avvalgi yozuvni yo'qotib yuborish yo'lida arab assimilyatorlari qo'lida qurol bo'lib xizmat qildi. Arab alifbosida 28 ta harf mavjudligiga qaramay, ularning 4 ko'rinishda (7 harf bundan mustasno) yozilishi o'zbek xalqining savodli bo'lishiga sira yordam bermas edi. Arab aristokratlari mehnatkash xalqni abadiy nodonlikda saqlash maqsadida arab alifbosining *xatti nash, xatti ta'liq, xatti shikasta, xatti kufiy, xatti rayhoni, xatti suls* kabi juda murakkab shakllarini va turlarini joriy qildilar.

Arab alifbosi, yozilishi jihatidan murakkab bo'lishi bilan birga, u o'zbek tilining maxsus tovushlarini ifoda eta olmas edi. Arab yozuvining bu nuqsonlarini sezgan ayrim olimlar, faylasuflar, ilg'or kishilar unga o'z salbiy munosabatlarini bildirdilar, ba'zilar, chunonchi, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zi-ning *«Xatti Bobur»* yozuvini yaratdi. Lekin bunday ilg'or tadbirlar, o'sha zamonda amalga oshmay, e'tiborsiz qolib ketdi.

Arab yozuvi Oktabr to'ntarishi(1917 yil)dan keyin ham bir necha yillar davomida amalda bo'ldi. Biroq, endilikda arab yozuvi madaniyatning talablariga to'la javob bera olmay qoldi, bu yozuv xalqni tez orada yoppasiga savodli qilish, ilmiy, badiiy, siyosiy adabiyotlarni ko'plab bostirish, gazeta, jurnal-larni xalq orasiga tezda tarqatish ishiga to'sqinlik qiladi tamg'asi bosila boshladi. Natijada 1929 yildan o'zbek yozuvi *lotinlashtirilgan alifboga* ko'chirildi. Bu yozuv turkiy tillardagi tovushlar xususiyatini, xususan, ularga xos fonetik hodisalarni berishda arab alifbosiga nisbatan birmuncha qulayliklarga ega edi, ammo 1940 yilda sobiq sho'rolar hududida yoppasiga *kirill alifbosiga* o'tishga qaror qilindi (Boltiqbo'yi davlatlari - Litva, Latviya, Estoniya va Kavkaz davlatlari - Gruziya, Armaniston bundan mustasno qoldi) va bu yozuv 1991 yilgacha o'zbek xalqning ham «milliy» yozuvi sifatida amal qildi.

1993 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi *lotin alifbo-sini* milliy yozuv sifatida qabul qilishga va bu yozuvga o'tishga qaror qildi. Lotin alifbosi o'zbek xalqi mustaqilligining bir belgisi sifatida namoyon bo'ldi.

Bola ulg'ayib, maktab tarbiyasini ola boshlar ekan, bunda u o'z-o'zidan tilshunoslik fani bilan ham tanishishga kirishadi. Chunki u yozishni, fikrlashni o'rganmog'i lozim bo'ladi. Albatta, millatning o'z yozuviga ega bo'lishi uni yondosh, qardosh millatlardan farqlovchi, milliy o'zlikni anglash to'yg'usini shakl-lantiruvchi muhim omillardan biridir.

Tobelik va mustaqillik teskari nisbatdagi tushunchalar ekanligi izohtalab emas. Ulardan birining kuchayishi boshqa-sining susayishiga olib keladi. Shu

boisdan o'zga millat va xalqlarga o'z ta'sirini o'tkazishni maqsad qilib olgan har qanday zo'rlik saltanati yoki mafkura ularga o'z yozuvini sing-dirish va ommalashitirishni birinchi o'ringa qo'yadi. VII asrdan boshlab islomiy mafkura Markaziy Osiy xalqlariga arab yozuvini singdira boshladi va mahalliy dulbarjin, sug'diy, xorazmiy kabi yozuvlarni siqib chiqarishga intildi. Shuningdek, XX asrning 20-yillaridan boshlab sho'ro mafkurasida ham soxta baynalmilalchilik shiori ostida zimdan milliy rang-baranglikdan voz kechish, yagona xalqni tarkib toptirish uchun xalqlarga Kirill yozuvini singdirish harakatiga tushdi. Shuning uchun o'zlikni anglay boshlagan har bir halq o'z yozuvini tiklashga, uning o'zligiga tajovuz qilgan mafkuraning ishonchli va qudratli quroli bo'lgan hukmron yozuvdan uzoqlashishga, xalos bo'lishga intiladi. O'zbek xalqi tarixida turkiy milliy ong va madaniyat ancha yuk-salغان davrlarda, xususan, XI-XIII asrlarda qoraxoniylar, XIV-XV asrlarda temuriylar hukmronligi davrida arab yozuviga uyg'ur yozuvini qarama-qarshi qo'yish, uni keng ommalash-tirishga urinish harakatlari ko'zga tashlanadi.

O'zbek milliy ongi shakllana boshlagan XX asrning 10-yillaridagi arab yozuvini isloh qilish, qolaversa, uni almash-tirishga intilishlar ham mazkur maqsadga bo'ysundirilganligi bilan xarakterlanadi. Ma'rifatchilar buni milliy ongni uyg'otishning asosiy, milliy dunyoqarashdagi yangilanishlar uchun poydevor sifatida tushundilar. Shu ma'noda jadid Samad Og'amali o'g'lining *«Yangi o'zbek alifbosi o'zbek tarixiga yangi yo'l ochg'usidir»*, degan fikri g'oyat purma'nodir. Shuning uchun o'z rahnamosi I.Karimov yetakchiligida milliy o'zligini jahonga ko'z-ko'z qilayotgan o'zbek xalqi ham uni topishga erishgan mafkura yozuvi – kirillisadan voz kechishga va lotin yozuviga o'tishga muvaffaq bo'ldi. To'g'ri, yangi, istiqlool alifbo-si ham o'zbek xalqning milliy yozuvi emas. Biroq, muhimi shundaki, u biz uchun birorta hukmron mafkura quroli ham emas.

Bugungi kunda o'quvchilar istiqlool yozuvi va imlosi asosida tahsil olmoqdalar. O'z yozuviga ega bo'lish, hukmron va yot mafkura kishanidan xaloslanish bola ongida milliy mafkura qaror topishiga, uning o'zligini anglashiga, shu bilan birga, uni o'zgalardan farqlay olishiga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligi tobora oydinlashmoqda.

O'zbek tilining asosiy imlo qo'iralar¹
Asos va qo'shimchalar imlosi

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

¹ «O'zbek tilining asosiy imlo qo'iralar¹» (T.: O'ltuvchi, 1995) kitobidan olinadi.

1) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o deb ataladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz, so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq, o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi*kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi-o'quvchi, sovi-sovuq* kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli l aytiladi va shunday yoziladi: *o'gri-o'griq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: *ol -oluv, yoz-yozuv*kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga qo'shiladi: *uz-uzuk, yut-yutyq* kabi. Lekin uyushiq, urushiq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida l aytiladi va shunday yoziladi.

34. k,q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek dek, yoq kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, k undosh g undoshiga, q undoshi g` undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi, tayoq-tayog'i, qoshiq -qoshig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yoq-yog'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi*kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda ikki, olti, etti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin-o'rnim, qorin-qornim, burun-burning, o'g'il-o'g'ling, ulug'-ulg'ay, sariq -sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov*kabi

2) *u, bu, shu, o'sha* olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha* kabi. Bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanis*kabi.

3) o, o`, u e unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'yidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si (yoki -lar) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolar*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* (yoki *orzular*) kabi;

b) *parvo, obro`, mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda, bir y tovush qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying, obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro, mavqe* so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (dohiy kabi u undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: *dohiysi* kabi);

4) *men, sen* olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimchadagi n aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) *-bon, boz* qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt *bon, boz* yoziladi *darvozabon, maskaraboz* kabi. Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday ataladi va yoziladi (istisno holatlar bundan mustasno – A.O.): *amaki-vachcha, xolavachcha* kabi.

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Qo'yidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi -dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (kel so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha -tir deb ataladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimcha -ga, chegara bildiruvchi *gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'rsatkichi -gin, shuningdek, -gina qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechik-kudek, bukkan, ekkini, kichikkina* kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqa, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rq-qudek, achchiqqina* kabi;

c) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'i nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha kabi.

Qo'shib yozish

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a)-r (inkor shakli -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmaskabi*.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak*(pir-pirlak), *hayhayla*(hay-haylla), *gijgijla*(gij-gijlla) kabi.

41. Narsa (predmet)ni boshqa biror narsaga nisbatan (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qir-g'iykoz* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiyma-taxta, tokqaychi, oshrayxon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, kampiro'ldi, qoryog'di, urto'qmoq, ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchilik birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Yangiobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilida aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, avtostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shila-digan qo'shimchalar

qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUning* kabi. Lekin yonma-yon kelgan, ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zKDP MK* (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo`o`q, nimaa, himm, uff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. juft va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *yel-yuqur, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'nbeshta* (10-15 ta), *bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, keyim-kechak, adibadi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming* (*ming-minglab*), *bitta-bitta* (*bitta-bitta-lab*), *baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqin-largacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ish-ishidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo' shlashmoq* kabi;

2) juft so'z qismlari orasida *-u (-yu)* bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: *doct-u dushman* (do'st-dushman), *kecha-yu kunduz* (kecha-kunduz) kabi;

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdildi, borasan-qo' yasan, uxlab-man-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-baravar* kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning *-ma, ba-* yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-hadam* kabi. Lekin mustaqil ishlatmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *ro'baro', darbadar* kabi.

54. Rus tilida aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. *-chi, -a (-ya), -ku, -u (uy), -da, -e, -ey (-yey)* yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxsi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo *-mi, -oq, (-yoq), -ov, (yov), -gina, (-kina, -qina)* yuklama-lari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: *keldimi? kelibog, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdimov, mengina, qo'shiqqin* kabi.

56. Tartib soni arab raqamlari bilan yozilsa, qo'shimcha o'rniga chiziqcha (-)

qo'yiladi: *7-sinf, 5-«A» sinf, 3-7-8-sinf o'qovchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib soni ko'rsatuvchi Rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etmakabi*.

58. Ko'makchi fe'l to'liqsiz fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver* (ayta ber), *boroladi* (bora oladi), *bilarkan* (bilar ekan) kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu, bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi* kabi. Lekin *bilan* ko'mak-chisining *-la* shakli, *uchun* ko'makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. *Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha* so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvakayiga, birmun-cha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, *qay* so'zi *yoq, yer* so'zlari bilan ishlatilganda bir u tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamchiligini bildiradigan *to'q, jigqa, tim, liq, och* kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jigqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming etti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga *l* shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga *yl* shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qism-laridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor* (guli beor), *dardisarkabi*.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar O'rinova, Muhab-bat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li*,

Hamza Hakimzoda, Muhammad sharif Soʻfizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Salomjon Alimov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyoʻl* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chigʻ atoy* (mahalla), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yay-lov), *Qoratoʻy, Pomir* (togʻlar), *Oqtepa, Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal), *Turkiya, Hin-diston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar boshqa xil osmon jismlarining atqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi boʻlib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va sanʼat asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qoʻyilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *«Tong»* (mehmonxona), *«Saodat»* (firma), *«Navroʻz»* (xayriya jamgʻarmasi), *«Kamalak»* (matbaa birlashmasi), *«Gʻ uncha»* (bogʻcha) *«Botanika»* (sanato-riy), *«Paxtakor»* (stadion), *«Qutlugʻ qon»* (roman), *«Dilorom»* (opera), *«Tanovar»* (kuy), *«Ozodlik»* (haykal), *«Jasorat»* (yod-gorlik) *«Sino»* (sovitgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroz bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansab-larining, xalqaro tashkilotlarining nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Oliy Majlisining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosa-ri, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻlikni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar aka-demiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *«Oʻzbekiston Qahramoni»* (unvon), *«Oltin Yilduz»* (mukofot). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *«Sogʻlom avlod uchun»* (orden), *«Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi»* (faxriy unvon), *«Matbaa aʼlo-chisi»* (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O.Yoqubov).

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: *«Bu men», -qo'rqibgina javob berdi ko'chaga* (O.Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyoriash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

**-mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;
-ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligi ...hal qiladi.**

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

1) o'zbekcha so'zlar; 2) tojik tilidan kirgan so'zlar; 3) arab tilidan kirgan so'zlar; 4) rus tilidan kirgan so'zlar («O'zbek tili» darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (Amerika Qo'shma Shtatlari), *BMT* (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), *AES* (Atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Ko'chirish qoidalari

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va`-da, ma`-rifat, mash`-al, in`-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular qo'yidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiyemas, aba-diy, e-shikdanemas, eshik-dan* kabi.

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga qo'chirilmaydi: *mudofa-aemas, mudo-faa, matba-a* emas, *mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi.

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki

undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drikkabi*.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek ko'p xonali raqamlar satrdan bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, O'zMU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5-«A»sinf, V«B»guruh, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *«Navro'z-92»* (festival), *«O'qituvchi-91»* (ko'rik tanlov), *«Andijon»*, *«Termiz»* (g'o'za navlari), *«Boing-767»* (samolyot), *«Foton-774»* (televizor) kabi.

82. *A.J.Jahborov, A.D.Abdullayev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek *v.b.* (va boshqalar), *sh. k.* (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot

reja:

1. Leksikologiya haqida tushuncha.
2. Leksikologiya so'z haqidagi ta'limot.
3. Leksikologiyaning fonetika va grammatika bilan aloqasi.
4. Tilning asosiy lug'at fondi va umumiy lug'at tarkibi.
5. Asosiy lug'at fondi bilan umumiy lug'at tarkibining o'zaro aloqasi, farqi.
6. Xulosa.

Leksikologiya so'zi grekcha *lexis* – so'z, *logos* – ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, so'z haqida so'z, so'z haqida ta'limot demakdir. Bundan anglashiladiki, leksikologiya (leksika) tilning so'z boyligi, asosiy lug'at tarkibi, ularning ma'no turlari va so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi sohadir.

Leksikologiyaning o'rganish ob'yekti sifatida so'z tilning eng muhim birligidir. Lekin so'z nutq tovushlaridan tarkib topganligi va u o'z navbatida grammatik jihatdan shakllanishi bilan ham fonetika, ham grammatika bilan aloqador. So'z tarkibidagi har bir tovush o'zgarishi so'z ma'nosini o'zgartirgani kabi so'z faqat grammatika ixtiyoriga o'tgandagina fikr ifodalash, fikr anglatish vazifasini bajarish xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, tilning leksikasi asosiy lug'at fondi va grammatik qurilishi tilning negizi, til xususiyatining mohiyatidir.

Tilning asosiy lug'at fondi til leksikasining yadrosi bo'lib, tilning umumiy lug'at tarkibining mag'zini tashkil qiladi. Tilning umumiy lug'at tarkibi umumxalq tilidagi so'zlarning ja'midir. Bu jihatdan u tildagi barcha so'zlar bilan bir qatorda tilning asosiy lug'at fondini ham o'z ichiga oladi.

Tilning *umumiy lug'at tarkibi* tilning ahvoli qanday ekanligini ko'rsatadi, lekin tilning ahvoli, uning leksika sohasidagi rivoj-lanish darajasi so'zlarning umumiy miqdori bilan emas, balki ularning xilma-xil ma'noga ega bo'lishi, so'z ma'nolarining turli tushunchalarni ifodalay olishi, boy uslubiy imkoniyatdorlik va rang barangligi bilan belgilanadi.

Tilning lug'at tarkibi aniq ma'no bildiruvchi so'zlar bilan bir qatorda mavhum ma'noga ega bo'lgan ko'pgina so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Xalq orasidagi keng tarqalmagan, ayrim kasb-hunarga doir so'z va iboralar: xalq xo'jaligida, xalq maorifi va madaniyatining ayrim sohalarida, ilm-fanning turli tarmoq-larida qo'llaniladigan hamma uchun umumiy bo'lmagan so'z va atamalar ham tilning lug'at tarkibida mavjud bo'ladi.

Tilning *asosiy lug'at fondi* tarkibidagi so'zlar kishilarning kundalik turmushida keng qo'llaniladigan, shu tilda so'zlashuv-chi jamoaning iste'moldagi so'zlaridir.

Asosiy lug'at fondi tarkibidagi kundalik muomaladagi oddiy so'zlardan tashqari, qarindoshlik bildiruvchi, jonivor va o'sim-liklarning nomlari va a'zolarini anglatuvchi, ishlab chiqarish qurollari, uy-joy va ro'zg'or asboblari nomlarini ifodalovchi, oziq-ovqat va ularning turlarini nomlovchi otlar; rang-tus, maza-ta'm, hajm-shakl, masofa anglatuvchi sifat va ravishlar; barcha tub sonlar; harakat va holat bildiruvchi tub fe'llar kiradi.

Bundan ko'rinadiki, tilning umumiy lug'at tarkibi bilan asosiy lug'at fondi bir-biridan farqli. Bu farqlar asosan quyidagilar:

a) asosiy lug'at fondi tilning tarixiy taraqqiyotida barqaror va uning rivoji uchun so'z yasash bazasidir. Lug'at tarkibi tilning umumiy ahvolini bildiruvchi, hatto asosiy lug'at fondini ham o'z ichiga oluvchi eng muhim til elementidir;

b) asosiy lug'at fondining doirasi tor, u kishilarning kundalik turmushida faol qo'llanadigan so'zlarni o'z ichiga oladi. Umu-miy lug'at tarkibining doirasi keng, chunki aniq tushunchalarni anglatuvchi so'zlardan tashqari, shu til doirasidagi barcha mavhum tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni ham o'z ichiga oladi;

c) asosiy lug'at fondi so'z yasash bazasi hisoblanadi, umumiy lug'at tarkibi esa shu hisobga doim o'sib, o'zgarib, boyib boradi.

Tilning asosiy lug'at fondi va umumiy lug'at tarkibi o'rtasida ana shunday farqlar bo'lishiga qaramasdan, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Sababi doimiy ravishda asosiy lug'at fondi doirasidagi so'zlar umumiy lug'at tarkibi doirasidan mustahkam o'rin olib, umumiste'moldagi so'zga aylangach, asosiy lug'at fondi doirasiga o'tib yana yangi so'zlarning yasalishiga asos bo'lishi mumkin.

SO'Z VA UNING MA'NOSI

reja:

- 1. So'z haqida umumiy ma'lumot.**
- 2. Semasiologiya – leksikologiyaning so'z ma'nosi haqidagi maxsus sohasi.**
- 3. So'zning ta'rifi.**
- 4. So'z va tushuncha.**
- 5. So'zning nom bo'lish qobiliyati.**
- 6. So'zning leksik ma'nosi va qo'shimcha ma'nolari.**
- 7. So'zda leksik-grammatik ma'no birligi.**
- 8. Xulosa.**

So'z eng muhim til birliklaridan biridir, chunki kishilar so'zlar vositasida o'zaro bir-birlari bilan fikrlashadilar, bir-birlarini anglaydilar. Tilning umumiy lug'at tarkibini tilda mavjud bo'lgan barcha faol va nafaol so'zlar tashkil qilib, ular kishilarning kundalik turmush sharoitida, ijtimoiy ishlab chiqarishida va boshqa munosabatlarida shu tilda so'zlashuvchi shaxslarning barchasi uchun xizmat qiladi.

Ayrim olingan har bir so'zning ham tovush, ham ma'no tomoni mavjud bo'lib, uning ma'no tomoni bilan leksikologiyaning maxsus sohasi *semasiologiya* shug'ullanadi. Semasiologiya so'zi *sema* – ma'no, *logos* – ta'limot so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, so'zning ma'no xususiyatlari bilan shug'ullanadi. Ko'ri-nadiki, so'zning ma'no tarkibi va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi sohaga *semasiologiya* deyiladi.

So'zning ma'nosi va semantik tarkibi boshqa-boshqa hodi-salardir. So'zning ma'nosi deganda, so'zning u yoki bu ma'nosi anglashilsa (kitob so'zining ma'nosi o'quv quroli kabi), so'zning ma'no tarkibiga uning o'z, ko'chma, ekspressiv va uslubiy

ma'nolari ham kiradi. Masalan, *bosh* so'zining *boshi og'rimoq*, *boshi berk ko'cha*, *bosh masala*, *bosh qo'shmoq* iboralaridagi ma'nolari kabi.

Borliqdagi narsa va hodisalar tarkibiga ko'ra ularni tashkil etuvchi turli elementlarga bo'lingani kabi so'zning ma'nosi ham yaxlit bir butun ko'rinsa-da, u tarkibiy qismlarga – semalarga bo'linadi, so'z ma'nosi (sememalar)ning semantik tuzilishi uning tarkibiy qismlari bo'lgan semalarning qay darajadaligi bilan bog'liq, so'zning semantik tuzilishini mukammal o'rganish so'z semalarini komponent tahlil qilish usulini yuzaga keltiradi.

**Xo'sh, so'z va uning semantik tuzilishi shunday
murakkabliklarga ega ekan, uni qanday ta'riflash mumkin?**

So'z jamiyat a'zolari tomonidan bir xilda talaffuz qilinib, bir xilda idrok qilinadigan hamda biron narsa va predmet, voqea va hodisa, belgi va xususiyat, harakat va holatni bildiradigan yo ular haqidagi tushunchalarni esga soladigan bir yoki bir necha tovush birikmasi sifatida shakllangan birlikdir.

Bundan ko'rinadiki, so'z tovushlar orqali idrok qilinishi va ma'no anglatish bilan birga tushuncha ifodalash xususiyatiga ham ega. Chunki tushuncha narsa va predmetlarni, voqea va hodisalarni muhim belgilari asosida boshqa barcha narsa va predmetlar, voqea va hodisalardan ajratadigan fikr shaklidir. U ana shu narsa va hodisalar, ularning xususiyatlari orasidagi ma'lum bog'lanishlarni ongda aks ettiradi. Kishining fikrlashi tushunchalarning harakati tufayli vujudga keladi. Shu jihatdan, so'z tushunchaning tildagi ifodasidir. So'zlar orqali predmet va hodisalar bir-biriga qiyos qilinadi va shu yo'l bilan ularning umumiy va xususiy belgilari ajratiladi.

Masalan, hozirgi o'zbek tilida *daraxt* so'zi umuman daraxt haqidagi tushunchani bildiradi. Ayni zamonda bu so'z *mevali* va *mevasiz* daraxtni, mevali daraxtlardan *olma*, *o'rik*, *shaftolini*, shaftolidan *chillaki* (luchchak) *shaftoli* yoki *anjir shaftoli* kabi tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Misollardan ko'rinadiki, tushuncha doirasi qanchalik kengaygan sari, predmet haqidagi tasavvur kengaygan sari shu predmetni anglatgan so'z ma'no-larida ham differentsiatsiyalanish yuz beradi.

So'zning ma'nosi nima?

Narsa va predmet, voqea va hodisalar yoki ular orasidagi munosabatning kishi ongida aks etishi *so'zning ma'nosi* deyiladi. Boshqacha aytganda, so'zning borliqdagi narsa va hodisalarni bildirishi uning (so'zning) nimaningdir atamasi, nomi bo'lishidir.

Odatda, predmet yo hodisaga duch kelinganda, dastlab, u tanish predmetlar bilan qiyoslanadi va shu asosda yangi predmet yoki hodisaning biror muhim belgisi

(xususiyati) ajratiladi. Ana shu muhim belgi narsa va predmetga nom berish uchun asos bo'ladi, bu nom so'zning ma'nosini tashkil qiladi. Buni, ayniqsa, tildagi barcha yasama so'zlarda yaqqol ko'rish mumkin: *ishchi* – «(ishlaydigan)», *tomchi* – «(tomadigan)», *guliston* – «gul o'sadigan», *qumtepa* – «qum uyumi» kabi.

Gap tub so'zlar haqida borganda, hamma tub so'zlar nom berishda aynan shu premetga nom berishda qaysi belgi asos bo'lgani, uning nima uchun aynan shu ma'noda qo'llanganini izohlash qiyin, lekin ba'zan tub so'zlarda ham qiyoslash ish berishi mumkin: *jir, jil, jur*(yur) kabi so'zlarda harakat belgisi kabi.

Mustaqil ma'noli har bir so'z o'z (leksik) ma'nosidan tashqari, qo'shimcha ma'nolarga ham ega bo'ladi.

So'zning ob'yektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi dastlabki ma'nosiga *leksik ma'no* deyiladi. Misollar: *tuz* – mineral modda, jism; *suv* – ichimlik, tabiiy materiya; *ko'k* – rang, tus; *uchmoq* – harakat, qanot qoqib havolanmoq kabi.

So'zlar bunday bosh, asosiy leksik ma'nolaridan tashqari, turli qo'shimcha, ekspressiv-uslubiy ma'nolarga ham ega bo'li-shi mumkin.

So'zlovchining turli his-tuyg'u, kayfiyatini, uning atrof-muhit-dagi narsa va hodisalarga xususiy (sub'yektiv) munosabatlarini anglatuvchi so'zning asosiy leksik ma'nosidan o'zga ma'no-lariga so'zning *qo'shimcha ma'nolari* deyiladi.

Masalan, *tuz* so'zi jism, mineral modda ma'nosi bilan birga ozuqa birligi, «gapning tuzi» iborasida ma'no, mazmun tushunchalarini; *ko'k* so'zi rang, tus ma'nosi bilan birga osmon, o'simlik ma'nosini; *uchmoq* so'zi «qovog'i uchmoq» iborasida shaxsning biror yaxshi yoki noxush xabar kutishi kabi va boshqa ijobiy yoki salbiy ma'nolarini anglatishi mumkin. Yoki:

Novdalarni bezab g'unchalar,

Tongda aytdi hayot otini.

Va shabboda qurg'ur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini (H.Olimjon) to'rtligidagi «tongda aytdi», «hayot otini», «olib ketdi», «gulning totini» birikmalaridagi aytmoq, ot, olib ketmoq, tot (ta'm) o'z – bosh ma'nolarida emas, balki aytmoq (gapirmoq, xabar bermoq emas) – yaratmoq; ot (ism emas) – mavjudlik; olib ketmoq – barbod qilmoq; tot (ta'm emas) – nafislik, ezgulik ma'nolarida qo'llangan.

So'zning kuchi faqat grammatika ixtiyoriga o'tgandagina bilinadi, chunki so'zlar o'zaro birikib gaplarni tashkil etadi va nutqda ma'lum fikr ifodalaydi. Gap tarkibidagi har bir so'z o'zining asosiy leksik ma'nosidan tashqari, grammatik ma'no ham ifodalaydi. Masalan, *paxta gulladi* gapida *paxta* so'zi o'zining leksik ma'no jihatidan texnika o'simligining bir turini, *gulladi* so'zida esa predmetning gullash holatini bildiradi. Bu leksik ma'nolaridan tashqari, gap tarkibida *paxta* so'zi gram-matik son va grammatik kelishik ma'nolarini, *gulladi* so'zi esa grammatik shaxs, son, zamon, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik va o'timli-o'timsizlik ma'nolarini ifodalaydi.

Bundan ko'rinadiki, gap tarkibidagi har bir so'z leksik-gram-matik jihatdan o'ziga xos yuki, qiymatiga ega bo'lib, bu turli shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Gap tarkibidagi har bir so'zning o'ziga xos grammatik ma'noga ega bo'lishi, ot va otlashgan so'zlarning turlanishi, fe'llarning tuslanish paradigmalariga egaligi, yordamchi so'zlarining gap qurilishini shakllantirishdagi grammatik vazifasi va h.

2. Gap tarkibidagi har bir so'zning o'zaro bir-biri bilan o'ziga xos sintaktik munosabatni shakllantirishga xoslanganligi. Ma-salan, rejali ish buzilmas gapidagi har bir so'z o'ziga xos gram-matik vositalari tufayli aynan shu qurilishdagi gapni shakllantirishda xizmat qilgan. Agar so'zlardan birontasining gram-matik shakli o'zgarsa, uning shu qurilishni tashkil qilishdagi grammatik qiymati ham o'zgaradi va ko'zda tutilgan fikrni ifodalab bo'lmaydi.

3. Gapda turli formalar orqali grammatik modallikning ifodalanishi, so'zlovchining aytilayotgan fikrga har xil sub'yektiv munosabatda bo'lishi, bu munosabatning maxsus fe'l formalari (*bordim, borsam, bormoqchiman* kabi) bilan yoki maxsus so'zlar vositasida (*garchi, balki, shaksiz* kabi) shakllanishi va tarkibidagi so'zlarning grammatik qiymati orqali belgilanadi.

4. So'zning qanday grammatik formada bo'lishi uning leksik ma'nosini konkretlashtirishga ham xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, shakldosh so'zlarning bir gap qurilishidagi ishtirokida yaqqol-roq seziladi. Masalan:

*Er kerak o'rtansa, yonsa yolina,
Yostanib yotgay otining yolina.
It o'lumi birla bo'lg'ay nomurod,
Er atalib - dushmanga yolina.*

to'rtligidagi *yollina* so'zining *yolinla, yolilna, yolinla* kabi tarkiblarga ajralishi, birinchi va ikkinchi holatda so'zlarning jo'nalish kelishigi formasi orqali, uchinchi holatda esa ravish-dosh formasi orqali o'zgarishi shu so'zlarning olov, ot yoli va yalinmoq ma'nolaridagi so'zlar ekanligini ham ko'rsatadi.

SO'ZNING O'Z VA KO'CHMA MA'NOLARI

reja:

1. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida umumiy ma'lu-mot.

2. So'zning ko'chma ma'nolari:

a) metafora;

b) metonimiya;

- c) sinekdoxa;
- d) funksional (vazifadoshlikka ko'ra) ko'chish;
- e) ma'no kengayishi va torayishi.

3. Monosemiya va polisemiya.

4. So'zda ko'p ma'nolilikning kelib chiqish sabablari:

- a) so'zlarda hosila ma'nosining yuz berishi;
- b) so'z yasalishi;
- c) evfemizm va disfemizmlar.

5. Xulosa.

So'z ma'nosining o'zgarishi – so'zning semantik tarqqiyoti tilning umumiy taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq. Tilning umumiy taraqqiyoti uning fonetik tizimi, grammatik qurilishi, lug'at tarkibi hamda lug'at tarkibidagi har bir so'zning semantik taraqqiyoti – so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan belgilanadi. Demak, tilda so'zlar ham leksik, ham semantik jihatdan doim yangilanib turadi. Shu sababli so'zlar asl ma'nolarini o'zgar-tirmagani holda, shu ma'no bilan qay tomonlamadir bog'liq bo'lgan yangi ma'nolar kasb etadi. Masalan,

*Yashash soatining oltin kafgiri,
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan,
Yasab chiqa olur yangidan inson.
Yashash darvozasi ostonasidan,
Zarhal kitob kabi ochilur olam.
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram (G'.G'ulom)*

she'riy parchasida soat – umr, oltin – bebaho, kafgir – devor soati mayatnigi, har borib kelishi – tun bilan kunning almashi-nishi, yasab chiqa olur – aylanmoq, yashash darvozasi – umr-ning boshlanishi, ostonasi – ufqi, zarhal kitob – umr zarvaraq-lari kabi deyarli barcha so'z va iboralarning ma'nosida o'zga-rish yuz bergan.

Anglashiladiki, nutqda so'zlar o'z (asl) leksik ma'nolaridan tashqari, o'zga – qo'shimcha (ko'chma) ma'nolarni ham angla-tadi.

So'zning narsa va predmet, voqea va hodisa, belgi va xususiyat, harakat va holat haqidagi dastlabki real ma'nosi *so'zning o'z ma'nosideyiladi*. Masalan, *kitob* – o'quv quroli, *shamol* – tabiat hodisasi, *oq* – belgi, *rang* – tus, *keldi* – hara-kat, *mudradi* – holat kabi.

So'zlarning o'z real ma'nosidan tashqari, o'xshatish, mubo-lag'a, kinoya, bo'rttirish kabi usullar bilan boshqa, yangi ma'nolar bilan qo'llanishi *so'zning ko'chma ma'nosideyiladi*. Misollar: *Yer o'z o'qi atrofida aylanadi* gapida yer so'zi o'z dastlabki real

ma'nosi planeta tushunchasini anglatgan. *Chigit ekish uchun yer yaxshi yetildi* gapida yer – tuproq; *Maktab yeriga turli ko'chatlar o'tkazdik* gapida yer – uchastka; *Ko'jaligimiz yangi kelin-kuyovlarni yer bilan ta'minladi* gapida yer – tomorqa; *Amu bo'ylaridagi chegarachilarimiz har bir qarich yerni ko'z qorachig'iday asramoqda* gapida esa yer – Vatan, ona tuproq ma'nolarini anglatgan. Yana bir misol: *Paxta – o'zbek xalqining milliy boyligi, Zavodimiz bir yilda chet elga ming tonna paxta sotmoqda, Paxta o'z vaqtida ekildi, Paxta gulladi, Talabalarimiz paxta yig'im-terimida jonbozlik ko'rsa-tadilargaplarida:*

- 1) paxta – texnika o'simligi;
- 2) paxta – tola;
- 3) paxta – chigit;
- 4) paxta – g'o'za;
- 5) paxta – hosil ma'nolarida qo'llangan.

So'zning ma'nolari turli usullar bilan ko'chadi, bular quyi-dagilar:

1. Metafora.
2. Metonimiya.
3. Sinekdoxa.
4. Funksional (vazifaviy) ko'chish.
5. Ma'noning kengayishi va torayishi.

Metafora – yunoncha so'z bo'lib ko'chish, ko'chirish degan ma'noni anglatadi. Bir predmetdagi tashqi belgining boshqa bir predmetdagi xuddi shunday belgiga o'xshashligiga ko'ra so'z ma'nosining ko'chirilishi *metafora usulida ko'chish* deyiladi. Masalan, odam, hayvon va boshqa turli jonvorlarning ko'rish a'zosi *ko'z* so'zi orqali ifodalanib, u tashqi belgilariga ko'ra aylana shakldaligi, yaltiroqligi bilan xarakterlanadi. Shunga qiyosan boshqa narsa va predmetlarda tashqi shakli va belgisi jihatidan shunga (ko'zga) o'xshash shakl va belgilar bo'lsa, shu narsa yo uning biror qismi shu nom bilan ifodalanadi: *buloqning ko'zi, uzukning ko'zi, yog'ochning ko'zi, ignaning ko'zi* kabi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, metafora usulida ma'noning o'zgarishida «ko'rish» tushunchasi tasavvur qilin-maydi, balki faqat tashqi belgilar asos qilib olinadi, shuning uchun *ishning ko'zi* birikmasidagi ko'z so'zi (uddaburon, o'z ishini bilib qilish ma'nosi) boshqa usul bilan (vazifaviy ko'chish) ko'chgan bo'lib, ma'no ko'chishining metafora usuliga kirmay-di. Quloq odam va hayvonlarning tanasidan tashqariga bo'rtib chiqqan, ajralib turadigan bir juft eshitish a'zosi. Metaforada quloqning eshitish a'zosi ekanligi emas, tashqi ko'rinishi asos qilib olinadi: *qozonning qulog'i, dutorning qulog'i, ariqning qulog'i* (dutorning bir qulog'i bo'shabdi, qozonning bir qulog'i sinibdi, demak quloqlar birdan ortiq, ikkita yoki ko'p – qirq quloqli qozon) kabi. Lekin devorning ham qulog'i bor iborasida quloq so'zining nomlanishi metafora usulida yuz bermagan: *devorda ham quloq bor – devor ham eshitadi*.

Umuman, quyidagi narsa va predmet nomlari metafora usuli bilan ko'chish uchun asos bo'ladi:

bosh: *dalaning boshi, ariqning boshi;*

chekka: *yo'lning chekkasi, tavoqning chekkasi;*

til: *qulfning tili;*

tish: *omochning tishi, arraning tishi;*

lab: *ariqning labi, piyolaning labi;*

bo'yin: *dutorning bo'yni;*

yelka: *taroziining yelkasi;*

qo'ltiq: *ariqning qo'ltig'i;*

etak: *yerning etagi, tog'ning etagi;*

qanot: *samolyotning qanotikabi.*

Metonimiya – yunoncha yangi nom qo'yish, nomini o'zgartirish, qayta nomlash demakdir. So'z ma'nolarining narsa va hodisalarning ichki va tashqi o'xshashlik belgilariga ko'ra emas, balki ularning o'rin va paytga, zamon va makonga munosabatiga ko'ra o'zgarishi so'z ma'nosining *metonimiya usulida ko'chishi* deyiladi. Demak, metonimik ko'chishda bir narsa bilan ikkinchi bir narsa o'rtasidagi ichki yoki tashqi o'xshash belgi va xususiyatlar hisobga olinmaydi, balki bir predmet yoki tushunchadagi zamon va makonga xos yaqinlik, umumiylik, shuningdek, sabab asos bo'ladi.

Misollar: *Hurmatli Prezidentimizni butun zal oyoqqa turib, gulduros qarsaklar bilan kutib oldi* gapida *zal* so'zining ma'nosi o'rin munosabatiga ko'ra ko'chgan bo'lib, shu so'z orqali zalda to'plangan odamlar, anjuman qatnashchilari ma'nosi anglashiladi. *O'zbekiston respublikasi konstruktorlar byurosi yangi terim mashinasi qurilmasini ma'qullashdi* gapida ham *byuro* so'zining ma'nosi metonimiya asosida ko'chgan. Byuro so'zi asli fransuzcha *vuzeau* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z dastlab tuya junidan to'qilgan mato, dasturxonni anglatgan. Keyinchalik shunday dasturxon yopilgan stolni, shunday dasturxon yopilgan stol qo'yilgan xonani va, nihoyat, shunday xonada to'plangan odamlar ja'mi byuro deb nomlangan. Demak, misoldagi byuro (dasturxon) so'zi butun o'zbekistonlik konstruktorlar ma'nosiga ko'chgan.

Fuzuliyi oldim qo'limga,

Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi.

Va Navoiy chiqib yo'limga,

Faryod bilan o'rnidan turdi (H.Olimjon)

misralarida Fuzuliy va Navoiy o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'nolarda qo'llanilgan; Fuzuliy va Navoiylar tomonidan yaratilgan asarlar, asar qahramonlari ko'zda tutilgan.

Metonimiya usulida so'z ma'nosining ko'chishida faqat nar-salar qayta nomlanib

qolmasdan, narsalar haqidagi tushun-chalar ham o'zgaradi. Shu jihatiga ko'ra ham metonimiya metaforadan farqlanadiki, metaforada *odamning qulog'i* va *dutorning qulog'i* birikmalaridagi quloq so'zi ham shakl, ham tushuncha holida saqlanadi. *Bu auditoriya ancha faol* gapida auditoriya (xona) – shu xonadagi talabalar bilan (qiyoslang: auditoriya – talabalar), ya'ni xona (predmetlik) tushunchasi ta-labalar (shaxs) tushunchasi bilan almashadi – qayta nomlanadi.

Metonimiya usulida ma'no ko'chishning ko'proq quyidagi ko'rinishlari uchraydi:

1) biror narsaning nomi o'z ichidagi narsaning nomiga ko'chadi: *bir kosa yemoq, bir stakan ichmoq, butun stadion oyoqqa turmoq* kabi;

2) biror narsaning nomi o'z ustidagi narsalarning nomiga ko'chadi: *ziyofatda dasturxon zo'r bo'ldi* (dasturxon – uning ustidagi noz-ne'matlar, ovqatlar), *to'qqizinchi – tartib raqami, to'qqizinchi* (ustiga «9» raqami yozilgan futbolchi) *almashtirildi* kabi;

3) o'rin munosabatiga ko'ra ma'no ko'chadi: *Akam Navoiyga ketdi* gapida Navoiy – viloyat, rayon yoki jamoa xo'jaligi ma'nosida, *«Ozodlik»da turamiz* gapida «Ozodlik» – ko'cha nomi ma'nosida;

4) xoslik, material, maxsus nomlariga ko'ra ma'no ko'chadi: *Oybekni o'qiyapman* (asari), *«Paxtakor»ning g'alabasi* (jamoa) va b.

Sinekdoxa ham yunoncha so'z bo'lib, birgalikda o'ylamoq, fahmlamoq demakdir. Butun o'rnida qism yoki qism o'rnida butun, jins tushuncha o'rnida tur tushuncha yoki tur tushuncha o'rnida jins tushuncha ifodalash vositasi sifatida so'z ma'nolarining o'zgarishiga so'z ma'nolarining *sinekdoxa usuli bilan ko'chishi* deyiladi. Tur va jins tushunchalar o'rtasidagi munosa-batlarni ifodalagani uchun, odatda, sinekdoxa usulida ma'no ko'chish metonimiyaga o'xshatiladi, lekin metonimiyada ma'no ko'chish, asosan, predmetlarning *o'rin* va *paytga* munosaba-tiga ko'ra yuz beradi, sinekdoxada esa ko'proq *miqdoriy* tushuncha asos bo'ladi. Misollar:

1) butun o'rnida qism yoki jins tushuncha o'rnida tur tushun-chaning ifodalanishi: *Chorvaning tuyoq soni yildan-yilga kama-yib bormoqda* gapida butun (qo'y, sigir) o'rnida qism (tuyoq) qo'llanilgan. Yoki *Salomat to'rt yildan buyon tirnoqqa zor* gapida tirnoq – bola, farzand, *Mansur dekanning o'ng qo'li* gapida o'ng qo'l – ishonchli odam, yaqin yordamchi, maslak-dosh, *Yigitlar samovarda o'tirishibdi* gapida samovar – choy-xona, *Biznikidan bir piyola choy ichib keting* gapida bir piyola choy – dasturxondagi noz-ne'matlar, ovqat ma'nolarida qo'llan-gan. Ma'no ko'chishning bu turi, ayniqsa, hazil, mutoyiba, askiya, ironiya kabi so'z qo'llashlarda keng ishlatiladi: *Ey, Shlyapa* yoki *shapka; Ho, burunboy; O', Xumkalla!* («Shayta-nat»dagi Asadbekning gumashtasi) va b.;

2) qism o'rnida butun yoki tur tushuncha o'rnida jins tushun-chasining qo'llanishi: *besht qo'l barobar emas* (qo'l panja o'rnida), *chumchuqlar daraxtga qo'ndi* (daraxt shoxiga: daraxt – butun, shox – qism), *mashinaning dami chiqib*

to'xtab qoldi (mashinaning dami – ballonning dami, ballon mashinaning bir qismi) kabi.

Ma'noning vazifaviy ko'chishi. Predmetlarning bajaradigan vazifasiga ko'ra so'z ma'nolarining o'zgarishiga ma'noning funksional yoki ***vazifadoshlik asosida ko'chishi*** deyiladi. Ma'no-ning bu xil ko'chishi ham qisman o'xshashlikka asoslangani uchun metaforaga o'xshaydi, lekin metaforada predmetlardagi tashqi belgi asos (o'xshash) qilib olinadi. Funksional ko'chish-da esa predmetlar tomonidan bajariladigan vazifa bir xil, umu-miylikka ega bo'ladi. Misollar: ilgari siyohga botirib qog'ozga yozadigan asbob parrandalar patidan (ruscha – pero) tayyor-lanib, pero deb atalgan. Hozir ham shu vazifani (yozish vazi-fasini) bajaruvchi asbobda, metall va boshqa jismlardan ishlan-gan bo'lsa ham, pero nomi saqlanib qolgan. O'q – kamon o'qi, uchli, uzun, to'g'ri asbob; miltiqning o'qi, to'pning o'qi, zamba-rakning o'qi birikmalarida o'q so'zi kamon o'qiga tashqi o'xs-hashligiga ko'ra emas, balki vazifaviy o'xshashligiga ko'ra ko'chgan.

Ma'noning kengayishi va torayishi. Lug'at tarkibining o'zga-rishi bilan bog'liq ravishda so'z ma'nolari ham o'zgara boradi. Bu o'zgarish tilning butun tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuz beradi. Ba'zi so'zlar shaklan o'zgarmay, ma'no jihatdan o'zga-radi: bir ma'noni bildirgan so'zlar bir necha ma'noda va, aksin-cha, bir necha ma'noni anglatgan so'zlar faqat bir ma'noda qo'llanib qolishi mumkin. Demak, so'zlarning ma'nosida kenga-yish va torayish yuz beradi.

Zamon o'tishi bilan tildagi ba'zi so'zlar dastlabki anglatgan ma'nolaridan tashqari, yana boshqa ma'nolarni ifodalay bosh-laydi. Masalan, ***vatan*** so'zining ma'nosi kengaygan: birovning mulki, tug'ilgan joyi ma'nosidan butun o'zbeklar yurti (O'zbekiston Vatanim manim) – O'zbekiston ma'nosini anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida ***burchak, kecha, yutuq*** kabi so'zlarning ma'nosida ham kengayish yuz bergan.

Davrlar o'tishi bilan ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalovchi so'z bir ma'noni ifodalash uchun ham xoslanib qolishi mumkin. Masalan, ***ichkari*** so'zi ilgari binoning ichkarisini ham, xotin-qizlar huquqsizligini ham anglatgan bo'lsa, hozir bu so'z bir ma'noni – ma'lum bino yoki narsaning ichki qismini ifodalaydi.

Atoqli otlarning turdosh otlarga (Muslima – atoqli ot, muslim-ka – bug'doy navi), po'lat, temir, tesha, o'roq so'zlarining Po'lat, Temir, Tesha, O'roq kabi qo'llanishi ham so'z ma'nosi-ning kengayishi va torayishi natijasidir.

MONOSEMIYA VA POLISEMIYA

Monosemiya yunoncha ***«mono»*** – bir, ***«sema»*** – ma'no so'zla-ridan olingan bo'lib, bir ma'nolilik demakdir. Birgina tushuncha yoki tasavvurni anglatib kelgan so'zlar ***bir ma'noli*** yoki ***monosemantik so'zlar*** deb ataladi. Masalan: ***non, suv, shahar, qishloq, urg'u, kesim, traktor, kompyuter*** kabi.

Odatda fan va texnika sohasiga oid atama(termin)lar, bir ma'noli bo'ladi, lekin bu ham chegaralangan, chunki ayrim fan va texnika sohalariga xos atamalar ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin: *morfologiya* – grammatikaning bir bo'limi va o'simlik, hayvon xujayralarini o'rganuvchi soha; payvandlash – o'simlik-larning yangi navlarini yetishtirish va metall jismlarni bir-biriga ulash. Shuningdek, *assimilyatsiya* so'zining biologik, tarixiy va lingvistik ma'nolari va b.

Polisemiya so'zi ham yunoncha *«poli»* – ko'p, *«sema»* – ma'no so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'nolilik demakdir. Ikki yoki undan ortiq ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarga *ko'p ma'noli* yoki *polisemantik so'zlar* deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning qanday ma'noda qo'llanganligi faqat matn ichida – kontekstda bilinadi.

Masalan, *bosh* so'zining asl ma'nosi kalla (gavdaning bosh qismidir). Ammo bu so'z turli birikmalarda turli ma'nolarni ifodalaydi: ishning boshi birikmasida – *ishning boshlanishi*, bosh vazifa birikmasida – *muhim, asosiy vazifa*, bosh ko'tarmoq birikmasida – *qo'zg'almoq, harakatga kelmoq*; bosh bo'l-moq iborasida – *rahbarlik qilmoq, idora etmoq, ishni boshqar-moq*; bosh egmoq iborasida – *bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq, o'zini aybdor his qilmoq*; bosh biriktirmoq (qo'shmoq) iborasida – *ahillik, ittifoqlik, birdamlik*, boshboshdoqlik yasalmasida – *o'zboshimchalik, tartibsizlik* kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar faqat otlargagina xos bo'lmay balki fe'l, sifat va boshqa turkumlarda ham uchraydi. Masalan, *o'chirmoq* so'zining: 1) olovni o'chirmoq (o'z ma'nosi), 2) to'xtatmoq – ovozni o'chirmoq (bunda o'ldirmoq ma'nosi ham bor), 3) toza-lamoq – doskani o'chirmoq, chiziqni o'chirmoq, 4) chizmoq – xatni siyoh bilan chizib o'chirmoq, 5) tuzatmoq – xatni o'chirib tuzatmoq; *ko'k* so'zining: 1) rang, tus, 2) osmon, 3) rezavor o'simlik; *besh* so'zining: 1) raqam, 2) miqdor, 3) baho (a'lo), 4) yutuq, muvaffaqiyat, kayfiyat (uning ishi besh); shuningdek, *oq* so'zining 30 dan ortiq ma'nosi va boshqalar.

So'zlarning ko'p ma'noliligi aslida so'z ma'nolarining turli usullar bilan ko'chishi, davrlar o'tishi bilan ayrim so'zlarning ma'nosida kengayish yo torayish hodisasi yuz berishi natijasida hosil bo'ladi. Kishilarning tabiat, jamiyat va ishlab chiqarish sohasidagi tasavvurlari, shu tasavvur va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ularning ma'nolari o'zgarib, kengayib, boyib boradi. Lekin bu metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifa-doshlik kabi hodisalar polisemiyaning ko'rinishlari degan gap emas. Ma'no ko'chishdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan ko'p ma'nolilikdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi boshqa-bosh-qa hodisalardir.

Qiyoslang: *oltin soat* va *oltin ko'z* birikmalaridagi «oltin» so'zida ma'no ko'chishi yuz bergan, lekin har ikkala birik-madagi oltin so'zi bir leksik ma'noda qo'llangan. *Nok ko'chat-lari payvand qilindi* va *Gaz quvurlari payvand qilindi* gaplarida esa «payvand» so'zi har ikkalasida ham ulamoq tushunchasini anglatga ham, birida

kurtak o'rnatish, ikkinchisida eritib yopishtirish ma'nolarini anglatganligi uchun ikki leksik ma'no hosil bo'lgan va ko'p ma'nolilik yuz bergan.

Shunga ko'ra polisemiya hodisasining yuz berishining uch sababini ko'rsatish mumkin:

- a) so'zlarda hosila ma'noning yuz berishi;
- b) so'z yasalihi;
- c) evfemizm va disfemizmlar.

Ma'lumki, so'zning semantik taraqqiyoti aynan bir so'z doira-sida har safar yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keladi. Bu ma'no qanday usul bilan amalga oshirilgan bo'lmasin, yangi hosila ma'nodir. *Hosila ma'no* so'zning bosh ma'nosi taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangi leksik ma'nodir.

So'zning leksik-semantik tarkibidagi hosila ma'nolar so'z ma'nosi ko'chish usullarining har biri orqali yuz berishi mumkin. Masalan, *o'rik gulladi* gapida «gullamoq» fe'li o'simliklarning tabiiy gulga kirish ma'nosini, turmushimiz kundankun gullab, yashnamoqda gapida faravonlik ma'nosini, falonchi oqzidan gullab qo'ydi gapida esa sirni fosh qilmoq ma'nosini anglatadi. Bu ma'nolarning barchasi «gullamoq» so'zining semantik tizimini tashkil etadi hamda har gal yangi-yangi hosila ma'nolarni yuzaga keltiradi. Natija – so'zning ko'p ma'noliligini shakllantiradi. Biroq, yuqorida aytilganidek, so'z ma'nosining ko'chishi orqali hosil bo'lgan har qanday ma'no o'zgarishi ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaravermaydi (ko'z – *uzukning ko'zi, buloqning ko'zi, daraxtning ko'zi*kabi). Sababi so'z ma'nosi-ning har qanday o'zgarishida yangi leksik ma'no hosil bo'lmaydi, shuning uchun ular polisemantik so'zlar qatoriga kiritilmaydi. Masalan, vazifadoshlik usuli bilan hosil bo'lgan siyoh so'zi-ning ma'nosidagi o'zgarish ham shunday: siyoh (forscha – qo-ra) o'tmishda qora rangli, suyuq yozuv qurolining nomi bo'lgan, lekin vazifasiga ko'ra ma'no ko'chishi natijasida hozirgi yozuv qurollari ham qanday rangda bo'lishidan qat'iy nazar, siyoh (qora siyoh, ko'k siyoh, qizil siyoh kabi) deb ataladi. Qadimgi siyoh so'zidan yuzaga kelgan yangi hosila («siyoh») yangi leksik ma'noning hosil bo'lishi bilan emas, balki qadimiy va yangiligi bilangina (funksional ko'chim) farqlanadi, xolos.

Polisemantik so'zlarning tarkib topishida, ko'p hollarda, *so'z yasalihi* ham sabab bo'ladi, lekin tildagi har qanday o'zakdosh so'zlar polisemantik so'z bo'la olmaydi. Bunda uch holat kuza-tiladi:

1. Yasalmalar ma'nosining differentsiatsiyalanishi, yasalma anglatgan ma'no qutblarining o'zgarishi polisemantik so'zlarni keltirib chiqaradi. Misollar: *sutli, sutsiz, sutday, sutchi* so'zlari bir o'zakdan hosil bo'lgani, turli leksik ma'no anglatgani bilan o'zaro polisemantik so'zlar emas. Lekin shulardan *sutchi* so'zi «sut sotuvchi» va «sut tashuvchi» kabi ikki leksik ma'noni anglatganligi uchun (bir yasalma (sutchi) ma'nosida differentsiatsiyalanish yuz berganligi uchun)

polisemantik so'zdir. Yana: *boshqarma* – tashkilot va shu tashkilot binosi (qiyoslang: boshqarma boshlig'i, boshqarma oldida, boshqarma qarori kabi); *gulchi* – «gul o'stiruvchi», «gul sotuvchi»; *mehmonxona* – «mehmonlar yashaydigan joy», shunga xoslangan bino, «meh-mon kuzatiladigan alohida xona» va boshqalar.

2. So'z yasashda vosita bo'lgan yasovchining o'zi ko'p ma'-noli bo'lsa, undan hosil bo'lgan yasamalar ham ko'p ma'noli bo'ladi: *guliston* – «gul o'sadigan dasht», «maxsus gul o'stiri-ladigan joy», ko'chma ma'noda – «go'zal Vatan»; *vazirlik* – «vazirlik lavozimi», «vazirlarga taalluqli tashkilot», «shu tashkilot joylashgan bino»; *oshxona* – «ovqat tayyorlanadigan xona», «umumiy ovqatlanish binosi» kabi.

3. So'z yasashda ishtirok etgan yasaluvchi asos ko'p ma'noli bo'lsa, yasalmalar ko'p ma'noli bo'ladi. Masalan, *ip ulamoq*, *telefon ulamoq*, *gapni gapga ulamoq* birikmalarida «*ulamoq*»; *paxtali dala*, *paxtali kiyim*, *paxtali joy* (paxtasi ko'p) birikma-larida «*paxtali*»; *buzilgan qulf*, *buzilgan odam*, *buzilgan go'sht*, *buzilgan qiz* birikmalarida «*buzilmoq*» so'zi ko'p ma'nolidir.

Evfemizm va disfemizmlar polisemantik so'zlarning tarkib topishidagi eng asosiy omillardan biridir.

Avvalo, bular qanday hodisa?

Evfemizmlar, qisman *disfemizmlar* ham, til taraqqiyotida shu tilda so'zlashuvchi xalq ruhiyati bilan bog'liq holda shakllana-digan lug'aviy birliklardir. Evfemizmlar ham til, ham nutq hodi-sasi bo'lib, odatda, tilda biror aytilishi noqulay bo'lgan so'z yoki ibora o'rnida boshqa so'z qo'llash orqali uni yumshatish

asosida yuzaga keladi. Bu, asosan, uch yo'l bilan amalga oshi-riladi:

1. Ochiq aytish man' qilingan, ta'qiqlangan (tabu) so'z va iboralar o'rnida boshqa so'zlarni qo'llash.

2. Nutqiy muomalada (nutqiy odob nuqtai nazaridan) aytilishi noqulay bo'lgan so'zlarning o'rnini almashtirish.

3. Ochiq aytish mumkin-u, biroq etik-estetik talabga mos kelmaydian so'zlarning almashtirilishi.

Tabu (<tapu) aslida polinezcha *ta* – «ajratmoq, chegarala-moq», *pu* – «butunlay, tamoman» so'zlaridan olingan bo'lib, *tapu* – «tamoman chegaralangan, man qilingan» degan ma'no-larni ifodalaydi. Uning aksi *poa* – «odatiy, umumiste'moldagi» ma'nolarini beradi.

Tabu tilda o'z ifodasini topgan etnografik tushuncha bo'lib, u qadimgi polinezlar hayoti va tilida keng qo'llanilgan. Qabila a'zolarining tabiiy, ijtimoiy hodisalarga diniy-mifologik nuqtai nazardan qarashlari, ba'zi hodisalarni o'z nomi bilan atashni man' qilishlari, ilohiylashtirishlari, ya'ni tabu hisoblashlari nati-jasida, masalan, qabila boshliqlari yoki oila a'zolaridan biror-tasi vafot qilsa, uning nomini atash, u

foydalangan ashyolarni ishlatishni man qilganlar. Keyinchalik bu odatlar qabilalararo ommalashib boshqa voqea, hodisa, narsa, predmet va ularning nomlarini ham tabulashtirganlar, man qilganlar.

Evfemizmlar tabulashtirilgan so'zlar o'rnida qo'llanadigan, uni almashtiradigan lug'aviy birliklardir.

Evfemizizm so'zi grekcha *euphemio* so'zidan olingan bo'lib, «yumshoq gapiraman» degan ma'noni anglatadi. Ochiq aytish man etilgan yoki noqulay hisoblangan, odobsizlik axloqsizlik sanalgan, tasavvurda qo'rqinch noxushlik uyg'otadigan, ham-ma vaqt ham ochiq talaffuz qilaverish mumkin bo'lmagan so'z va iboralarning yashirin, beozorroq tusga kiritib aytish, mum-kinqadar «pardali» tarzda bayon etish *evfemizmlardir*.

Masalan, tug'moq o'rnida *ko'zi yorimoq, qutilib olmoq*; o'g'-ri o'rnida *qo'li egri, qo'li qaltis*; ko'r o'rnida *ko'zi ojiz, so'qir, a'mo*; o'lmoq o'rnida *nobud bo'lmoq, vafot etmoq, halok bo'l-moq*kabi so'z va iboralar evfemik vositalardir.

Tilda evfemizmlarning paydo bo'lishi va mavjudligi tabu hodisasi bilan aloqadordir. Yuqorida ta'kidlanganidek, kishilik jamiyati tarixida tabiat hodisalarining ilohiylashtirilishi, ularning asl sabablariga tushunib yetmaslik, natijada har bir narsa-predmet, voqea-hodisaning o'z yaratuvchilari, ya'ni xudolari bor deb tushunish zahirida ularning nomlarini tilga olmaslik, man' qilish tabuning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Kishiga zarar yetkazuvchi barcha narsalarning nomi ochiq aytilmagan. Sababi nom predmet bilan bog'liq, nomi tilga olingan narsa o'z predmeti – egasini xabardor qiladi va u kelib kishiga zarar yetkazadi, deb tushunilgan. Masalan, bo'ri o'rnida *jondor, itqush, haligi, u*; chayon o'rnida *benom, eshak, kajdum*; ilon o'rnida *arg'amchi, sudraluvchi, arqon*; qizamiq o'rnida *gul, oymoma, chechak*; qoraqurt o'rnida *g'unda, ola-gunda, gazandak*kabi so'zlar qo'llaniladi.

Ekspressiv-emotsional nutq hosil qilishda, tantanavor va ko'tarinki uslubga erishishda evfemizmlarning roli beqiyos. Birgina «o'lmoq» tushunchasining 500 ga yaqin evfemik vosita-si mavjudki, shulardan yosh bolalar o'limiga nisbatan *go'dagi uchibdi, nobud bo'pti, go'dagi chennabdi (chetnabdi, chetlab-di), bolasi gul tergani ketibdi, xur bo'pti*kabi o'nlab ifodalardan foydalaniladi.

Tilda aytish noqulay, no'o'rin, nutqiy madaniyatsizlik, ma'na-viyatsizlik hisoblangan so'z va iboralarni yumshoq, beozor va silliq tarzda ifodalashdan tashqari, qo'pol va dag'al tarzda izhor qilish usuli ham mavjud.

Bu so'zlovchi va yozuvchining voqelikka salbiy munosaba-tini ifodalashi, nafrat va g'azabini anglatishi natijasi o'laroq yuzaga keluvchi so'z va iboralar evfemizmlarning aksi – *kako-femizmyoki disfemizmlardir*.

Bunga o'lmoq tushunchasining yuqorida aytib o'tilgani kabi emas, balki *ko'ziga tuproq to'lmoq, qon daryosida g'arq bo'l-moq, qulog'i ostida qolmoq, asfalasofilinga*

jo'namoq tarzida ifodalanishi, ya'ni so'zlovchining voqelikka salbiy munosabati misol bo'la oladi.

Yana misollar: **to'nka** – kishilar manfaatiga zid ish tutadigan, oddiy hodisalarni osonlikcha anglab yetmaydigan, ezgulikni ko'ra olmaydigan shaxs; **latta** – bo'shang, kishilar manfaatiga amalga oshiriladigan ishni mijg'ovlik bilan, orqaga tashlab bajaradigan shaxs; **ezma** – mayda gap, ish o'rniga gap «sotuv-chi» safsataboz; **shilta** – xayrli ishlarni barbod qiladigan, yaxshi odamlar orasiga rahna soladigan munofiq; **olg'ir** – o'z manfaati yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan «korchalon» va boshqalar.

Shuningdek, bu kabi tilda azaldan o'rnashib qolgan lisoniy evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq talabi bilan yuzaga keladigan kontekstual (presuppozitiv – tagma'noli) evfemizmlar ham mavjud. Masalan, *Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, – dedi Nigor oyim, – quyilmaydiganga o'xshaydi* (A.Qodiriy). *Mehri gul tergani ketibdi* (so'zlashuvdan). *Avval eson-omon qutilib oling, qizim* (S.Ahmad) gaplarida *egasiga topshirmoq, gul tergani ketmoq, qutilib olmoq* iboralari *erga bermoq, o'lmoq, tug'moq* ma'nolarida qo'llanganki, bular kontekstdan tashqa-rida boshqa-boshqa (masalan, omonimik) ma'no kasb etadi.

Ko'rinadiki, ma'nosi kontekstda ro'yobga chiqadigan (tag-ma'noli) evfemik vositalar alohida olinganda hech qanday uslubiy buyoqqa ega bo'lmaydi. Masalan, *Maryamxonim (ach-chiq ila marjonni uzib otib, yerga urib): –Ol bisotingni, mening gavharim bor, quvvatim bor, ko'zinga ko'rinmaydi bunaqa narsalar* (H.H.) matnidagi *gavhar, quvvat* so'zlari *er – turmush o'rtoq* ma'nosida qo'llangan badiiy evfemizmlardir.

Bundan tashqari, badiiy adabiyotda evfemizmlardan satira va yumor, kinoya va hazilomuz tasvir yaratishda ham keng foydalaniladi. Masalan, H.Hakimzoda *pora bermoq* o'rnida *tarnov-parnovini ho'llamoq* individual evfemasidan foydalanadi: *Qodirqul:–Biz ham o'shalarchalik tarnov-parnovingizni ho'llab qolarmiz.*

Evfemik vositalar aytish nojoiz bo'lgan, tabulashtirilgan so'z-lar o'rnida qo'llaniladigan so'z va iboralar emas, balki kishi-larning kundalik turmushida eng faol qo'llaniladigan, umum-iste'moldagi ko'lami keng nutq birliklaridir. Demak, evfemizm-lardan turli jabhalarda, chunonchi, shaxsning kundalik biologik assimilyatsion-dissimilyatsion ehtiyojlari (*dashtlamoq, tashqa-riga chiqmoq, yozilmoq va b.*), oila nutqi (*otasi, onasi, turmush o'rtoq, rafiq; ota-ona, qaynota-qaynona nomlari va b.*), ayol-larning ichki kiyimlari (*lozima, siynaband va b.*), intim muno-sabatlar (*qovushmoq, aloqa qilmoq, ko'nglini olmoq va b.*), tug'ish-tug'ilish bilan bog'liq (*ko'zi yorimoq, tavallud topmoq va b.*), kasallik (*xastalanmoq, tobi qochmoq, betob bo'lmoq va b.*), o'lim (*vafot etmoq, dunyodan o'tmoq, ko'z yummoq, nobud bo'lmoq va b.*)kabi tushunchalarni ifodalashda keng foydalaniladi.

Ko'rinadiki, evfemizmlar ham, disfemizmlar ham, qanday ma'noda

qo'llanganligidan qat'i nazar, ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaradi. Chunki evfemizm ham, disfemizm ham ma'lum tomo-ni bilan hosila ma'noni yuzaga keltirish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, evfemizm va disfemizmlar ko'pincha so'z shaklida ma'lum lug'aviy birlikni tashkil qiladi (nolisoniy, tagma'noli, inplisit holatlar mustasno). Shuning uchun evfemistik yoki disfemistik hosila ma'no (leksik evfemizmlar) bilan so'zning asl leksik ma'nosi ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaradi. Masalan, *eshak* – uy hayvoni va chayon, *to'nka* – daraxtning kesilgan ildiz qismi va manqurt odam, *dadajonisi* – jon er va bolamning dadajoni, *it* – hayvon, poy-loqchi (u uyimizning iti) va badfe'l, badjahl odam kabi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, evfemik vositalar nafa-qat aytish man etilgan, mumkin bo'lmagan narsa-predmet, voqea-hodisaning nomini yashirish maqsadida, balki madaniy, badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang ko'rinishlarini yaratishda xizmat qilar ekan.

Kullas, polisemantizm so'z semantik taraqqiyotining serunum mahsulidir.

SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI. SINONIMLAR.

reja:

1. Ta'rif, tavsif.
2. Sinonim so'zlarning o'zaro ma'no munosabatlari.
3. Barqaror va beqaror sinonimlar.
4. Asl va uslubiy sinonimlar.
5. Sinonimiya qatori va daminanta.
6. Sinonimlarning tarkibiy xususiyatlari.
7. Sinonimlarning manbalari.
8. Sinonimlarning nutqda ifodalanishi.
9. Xulosa.

Ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan, aytilishi va yozilishi jihatidan turli shakllarga ega bo'lgan so'zlar tizmasiga *sinonimlar* deyiladi. Sinonim aslida grekcha nomdoshlik, bir xil nomlilik demakdir. Shunga qaraganda, yuqoridagi ta'rif sino-nimlarning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Shuning uchun denotativ ma'nosi bir xil, konnotativ ma'nosi (qo'shimcha ma'no ottenkasi, semantik bo'yog'i) va boshqa xususiyatlari farqli bo'lgan so'zlarga sinonimlar deyiladi deb ham ta'rif beriladi. Masalan: *jamol, oraz, ruxsor, chehra, yuz, bet, aft, bashara, turq; chiroyli, go'zal, ko'rkam; iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* kabi.

Sinonimlarga to'g'ri ta'rif berish va uning mohiyatini to'g'ri anglash uchun bir necha savollarga to'g'ri javob topishga to'g'ri keladi:

1. Nima uchun aynan bir predmet, voqea yoki hodisa turli so'z bilan turlicha nomlanadi?

2. Sinonim so'zlar ma'nosidagi umumiylikka nima sabab: tushunchami yoki narsami?

3. Sinonimlar so'zlarning semasiologik umumiyligidan tar-kib topadimi yoki nominativligidanmi?

4. Predmet, voqea, hodisa – tushuncha – so'z o'rtasida qanday munosabat bor?

Avvalo, *tushuncha* predmet, voqea, hodisa, harakatlar haqi-da kishilarning tasavvuri bo'lib, *so'z*shularning ma'lum tovush va tovushlar yig'indisi sifatida tilda reallashuvdir. Lekin bu so'z ma'nosi va tushuncha doim bir-biriga teng keladi, degan fikrni keltirib chiqarmaydi. Chunki inson ma'lum bir predmet haqida tasavvur qilar ekan, u shu predmet haqida butunligicha tasav-vur hosil qilolmaydi, uning belgilarini qismlarga ajratadi va shu predmet haqida yaxlit bir tushuncha emas, balki bir necha tushunchalar hosil bo'ladi. Predmet, voqea yoki hodisani ko'p tomonlama tavsiflash shu predmet yoki hodisaga turlicha nom berishga olib keladi va sinomiyani keltirib chiqaradi. Masalan, ichmoq, ho'plamoq, shimirmoq; sipqarmoq sinonimlarida *ichish harakatining* har xil idrok qilinishi; o't, olov, alanga, yolqin sinonimlarida esa olovning yonish jarayonidagi *ovoz* {*lov-lov, lop-lop*} va *nur taratish* {*yal-yal, yalt-yalt*} tushunchalari asos bo'lganligi aniq. Bu, ayniqsa, taqlidiy yasalmalarda yaqqolroq ko'rinadi: qarsak va chapak, hushtak va churrak bir xil hodisa {*qarsak, chapak*} va predmetning {*hushtak, churra*} nomi ikki xil tushunchaga ko'ra turlicha nomlangan.

Sinonimlar o'zlarining qo'llanish xususiyatiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

1. Barqaror (o'zgarmas) sinonimlar.

2. Beqaror (o'zgaruvchan) sinonimlar.

Doimiy ma'nodosh, har qanday holatda birining o'rnida ikkin-chisini qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar *barqaror sinonimlar* deyiladi. Masalan, *safar, marta, daf'a, karra, bor, qatla* guru-hidagi sinonimlardan faqat *safar, marta, daf'a* sinonimlarini barqaror hisoblash mumkin. Ularga «har» olmoshini qo'shib birikma hosil qilishda faqat shu sinonimlarga tenglikka ega {*har safar, har marta, har daf'a* kabi}, *lekin karra, bor, qatla* sinonimlari «har» olmoshini qabul qila olmagani uchun {*har karra, har bor, har qatla* deb bo'lmaydi} barqarorlikni tashkil qila olmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, *dublet sinonimlar* deb yuritiladigan sinonimlarning bir turi doimiy barqaror sinonimlardir: lingvistika, tilshunoslik; qarsak, chapak; pesho-na, manglay; kabi. Chunki dubletlar semantik tarkibi to'laligi, bir-biriga mosligi bilan aynan bir xil bo'lgan birdan ortiq so'zlardir.

Inson ob'yektiv olamdagi bilish doirasini ma'lum bir so'z negizida namoyon qilib boradi. Bu esa, ko'pincha, mutlaq sino-nimlikni yo'qqa chiqarib boradi. Bundan

tashqari, dubletlarning tilda mavjudligi ijobiy hodisa emas, uning tarkibidagi bir so'z til uchun ortiqcha yukdir. Shuning uchun u ko'pincha tushib qoladi yoki o'z ma'nosini o'zgartirib dubletlikdan chiqib qoladi. Chapak va qarsak, manglay va peshona dubletlaridagi «cha-pak» hamda «manglay» so'zlarining hozirgi nutqimizda kamdan-kam qo'llanishini shundan deb bilish mumkin.

O'z guruhidagi sinonimlar bilan ayrim hollardagina ma'no-dosh bo'lib, boshqa hollarda semantik jihatdan uzoq sinonimlar *beqaror* (o'zgaruvchan) *sinonimlardir*. Yuqoridagi misolda *kar-ra, bor, qatla* so'zlari *safar, marta, dafa* so'zlari bilan ma'lum o'rinlarda sinonimlikni tashkil qilsa ham, bu – doimiy emas, o'rni kelganda, sinonimlikdan chiqib ketadi. Barqarorlik va be-qarorlikni barcha sinonimik guruhlarining sinonimlar tarkibidagi semantik munosabatida kuzatish mumkin. Masalan, o'ldi deno-tatining *vafot etdi, qazo qildi, nobud bo'ldi, halok bo'ldi, nopa-yid bo'ldi, nomardlik qildi, bo'lmadi, o'tdi, ketdi, ketib qoldi, ko'z yumdi, gul terгани ketdi* kabi konnotativ ma'nolaridan – sinonimlaridan 6-12-lari «o'ldi»ga nisbatan beqaror sinonim-lardir.

Sinonimlar qo'llanish doirasiga ko'ra *asl* va *uslubiy sinonim-larga* ham ajratiladi. Sinonimlardagi bu bo'linish, aslida, barqa-ror va beqaror sinonimlardan uqadar farqlanmaydi. Chunki asl sinonimlar doimiy sinonimlar (*safar, marta, dafa* kabi) bo'lib, uslubiy sinonimlar o'z qatoridagi sinonimik guruhlar bilan ayrim nutqiy jarayonlardagina sinonimlar qatoriga kirishi mumkin. Masalan, *keksa, qari, mo'ysafid, oqsoqol, yoshuli* sinonimlari-dan faqat *keksa* va *qari* so'zlari asl sinonimlardir, chunki *keksa kishi, qari kishi, keksa sigir, qari sigir* sifatida qo'llash mumkin. Biroq *mo'ysafid, oqsoqol, yoshuli* sinonimlari kishiga nisbatan qo'llanilgani holda molga nisbatan ishlatilmaydi. Demak, ular uslubiy sinonimlardir.

Uslubiy sinonimlar ma'lum leksik ma'nosi bilan aynan bir xil bo'lib, u bilan namoyon bo'lgan so'zlar muayyan bir ijtimoiy qatlamga, uslubga mansubligiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Masa-lan, *yashirin, maxfiy, pinhon, xufiya, bekitiqcha, yopiq, «imi-jimi»da* sinonimlarining umumiy leksik ma'nosi bir bo'lsa-da, uslubiy qo'llanishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Bulardan «ya-shirin» sifati «sirli, o'zgaga bildirilmaydigan» leksik ma'nosi bilan umumleksikaga oid bo'lib, *maxfiy* sifati rasmiy uslubga, *pinhon* so'zi badiiy uslubga, *xufiya* so'zi dialektal uslubga, *bekitiqcha, yopiq* va «*imi-jimi*»da so'zlari esa jonli so'zlashuv uslubiga oiddir. Shuning uchun ularning barchasi *yashirin* so'ziga nisbatan doimiy, barqaror sinonimlar emas.

Leksik ma'nosi bir xil bo'lgan birdan ortiq so'zlarning bir-lashtiruvchi ma'nosi bilan o'zaro bog'langan guruhiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zlardan tarkib topadi: *iljaymoq, jilmaymoq, ishshaymoq, tirjaymoq; osmon, ko'k, samo, falak; qiziq, g'alati, ajoyib, alomat, antiqa, ajab, ajib* kabi.

Sinonimik qatorni tuzishda ma'lum chegaraga va aniqlikka ega bo'lgan, uslubiy

jihatdan «betaraf» bo'lgan so'zga domi-nanta deyiladi. Yuqoridagi misollardagi *osmon, jilmaymoq, qi-ziq* so'zlari o'z qatorlarining dominantalaridir.

O'zbek adabiy tilida sinonimik qatorlar ham ichki, ham tashqi manba: chetdan so'z olish (erk – o'zbekcha, ozod – forcha), adabiy til va dialektal so'zlar (narvon – adabiy, shoti va zangi – dialektal), polisemantik so'zlar (bet – yuz, sahifa) hisobiga tashkil topadi.

Ta'kidlash joizki, sinonimik qatorni tarkib toptiruvchi so'zlar ayni bir tilda, ayni bir vaqtda lug'aviy birlik holida qayd etilishi kerak. Shuning uchun ma'nodosh so'zlarning sinonimik qatorni tashkil qilishida quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Adabiy tilga munosabati: *izlamoq, istamoq*.

2. Uslubiy qo'llanishi: *inson, bashar*.

3. Emotsional-ekspressivligi: *yuz, chehrakabi*.

Tilda hamma so'z turkumlari sinonimik qator hosil qila oladi: *odam – inson, go'zal – chiroyli, ming – lak, hamma – barcha, yig'lamoq – siqtamoq, tez – chaqqon, shivir – shivir, pichir – pichirkabi*.

Sinonimlarning paydo bo'lish manbalari:

1. O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida:

a) tub so'zlar: *odam, kishi; aytmoq, demoqkabi*;

b) tub so'z va yasamalar: *his, sezgi; savol, so'roq; vazi-fa, topshiriqkabi*.

2. O'zbek tili va boshqa turkiy tillar o'zaro aloqasi asosi-da: *paxta, momiqkabi*.

3. O'zbek tili va uning dialektlari munosabati asosida: *narvon, shoti, zangi; satil, paqir, chelak; buzog, go'salava b*.

4. O'zbekcha va chetdan qabul qilingan so'zlar: *yuz, bet*(o'zbekcha), *aft, chehra* (forscha); *ulug', katta*(o'zbek), *kalon, buzurg*(fors-tojik), *gigant*(rus) kabilar.

Sinonimlar og'zaki va yozma nutqda amaliy ahamiyatga ega, chunki ular so'zni o'rinsiz takror ishlatishga yo'l qo'ymaydi, uslubning ravonligini ta'minlaydi.

Sinonimlar – badiiy tasvir vositasi. Yozuvchilar o'z asarlarida sinonimlardan asar qahramonlarining xarakterini ochishda, manzaralarni obrazli tasvirlashda keng foydalanadi.

ANTONIMLAR

reja:

1. Ta'rif, tavsif.

2. Antonimiya va uning umumiy xususiyatlari.

3. Zidlik – antonimiyaning xususiy belgisi.

4. Antonimlarning ma'no xususiyatlari.

5. Antonimlarning nutqiy qiymati.

6. Xulosa.

O'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklariga *antonimlar* deyiladi. Masalan, *katta-kichik, yaxshi-yomon, do'st-dushman, uzoq-yaqin*kabi.

Misollardan ko'rinadiki, antonimiya so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni antoni-mlik faqat bir juft so'z o'rtasida bo'ladi. U bundan ortiq so'zni o'z ko'lamiga sig'dira olmaydi, chunki har qanday zidlik mantiqan ikki narsa o'rtasida bo'ladi, yaxshi va yomon antonimlari orasiga uchinchi bir «o'rtacha» belgi anglatuvchi so'z kiritish mumkin emas. Bu jihatdan antonimlar A va B nuqtalarda joylashgan bir to'g'ri chiziqning ikki uchiga o'xshaydi. Yana qiyoslang: *katta-kichik, past-baland, yosh-qari, achchiq-chuchuk* kabi.

So'zlar ma'nolari o'rtasidagi zidlik ko'proq sifat va ravish-larda, qisman ot (*vafova jafol*) hamda fe'llarda (*kelva ket, turva o'tir*kabi) uchraydi.

Chetdan qaraganda, antonimlardagi zidlik, qarama-qarshilik ma'lum predmet, belgi va harakatlarning inkor va tasdig'iga o'xshab ko'rinadi, chunki antonimlarga o'xshash inkor ham odatda sifat va fe'l turkumiga oid so'zlarda kuzatiladi. Lekin ular o'rtasida keskin farq bor.

Ma'lumki, hamma sifat va fe'llarning inkor shaklini yasash mumkin (*yaxshi-yaxshi emas, baland-baland emas, kel-kelma, o'qi-o'qima, tur-turma* kabi), lekin hamma sifat va fe'llar anto-nimlikni tashkil qila olmaydi. Masalan, *qog'ozli-qog'ozsiz* so'zi o'zaro antonim emas, balki bir-birining inkoridir, chunki qo-g'ozli so'zini inkor qilinsa, qog'ozsiz so'zining ma'nosi, aksin-cha, qog'ozsiz so'zini inkor qilinsa, qog'ozli so'zining ma'nosi kelib chiqadi. Bu inkor bir so'z doirasida boradi, shuning uchun ular antonimlikni tashkil qila olmaydi.

Ma'no xususiyatlariga ko'ra antonimlar turlicha bo'ladi:

- 1) yosh xususiyatiga ko'ra:
*Yigitlikda yig' ilmning maxzanin,
Qarilik chog'i xarj qilgil oni*(Navoiy).
- 2) jins xususiyatiga ko'ra:
*Hurmatini saqlar har bir o'g'il-qiz,
Muqaddas, mo'tabar, aziz Vatanim*(Uyg'un).
- 3) hajm, shakl, miqdor, o'lchov, daraja bildiradi:
Uzun aytma qisqa ayt – ko'p ma'no ber(maqol).
Yo'g'on cho'zilar, ingichka uzilar(maqol).
- 4) shaxs va predmetlarning xususiyatini anglatadi:
*Chin so'zni yolg'onga chulg'ama,
Va chin ayta olur tilni yolg'onga bo'lg'ama*(N.).
- 5) rang-tus anglatadi:
*Men ham sening jigar go'shang – bolangman,
Ko'zingdagi so'nmas oqu qorangman*(folklor).
- 6) Maza-ta'm bildiradi:

***Ushoq qand oq tuzga monand erur,
Va lekin biri tuz, biri qand erur*** (Navoiy).

7) payt ifodalaydi:

***Erta -yu kech fikru zikrim xayoling,
Bir so'rmading, nelar kechdi ahvoling*** (Muqimiy).

8) munosabat bildiradi:

***Do'stga xor, dushmanga zor,
Nomardga muhtoj aylama*** (folklor).

9) his-tuyg'u anglatadi: ***vafo – jaf, rohat – azob; qayg'u – shodlik*** kabi.

Badiiy asarlarda, ayniqsa, xalq maqollarida antonimlar emot-sional-ekspressiv uslubiy vosita sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o'tkirligi uchun xizmat qiladi: ***do'st achitib gapiradi, dushman kuldurib.***

***Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir,
Har kimki jaf qilsa, jaf topgusidir*** (Bobur).

***Yaxshi otga qamchi bossang kishnaydi,
Yomon ot-chi, egasini tishlaydi*** (folklor) kabi.

Zidlash munosabatini ifodalashning ko'rinishlaridan yana biri oksimorondir.

Oksimoron – kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan belgini unga nisbatan qo'llab, antonimik munosabat hosil qilishdir. SifatQot tipidagi mantiqiy nomuvofiq so'zlardan original uslubiy birikma hosil bo'ladi: ***shirin dard, aqlli tentak, soqolli ko'sa, achchiq haqiqat, totli azob, qorong'u kun*** kabi.

GIPONIMIYA

Giponimiya – leksik-semantik munosabatning alohida turi hisoblanadi. Giponimiya, ***giponim*** va ***giperonim*** atamaları dast-lab 1968 yilda ingliz tilshunosi D.J.Layoniz tomonidan qo'l-lanilgan.

Giponimiya deganda tildagi jins (tor) va tur (keng) tushun-chalar munosabatlarini ifodalovchi so'zlar qatori, leksik para-digmaları tushuniladi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmet nomini ifoda-lovchi mikrotizimning markaziy so'zi - dominantasidir.

Giponim ma'lum bir jins turlarining nomlarini ifodalovchi, lug'aviy jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlikdir.

Chog'ishtiring: ***qo'y*** – giperonim, ***qo'chqor, sovliq, qo'zi*** – giponim; ***ot*** – giperonim, ***ayg'ir, saman, jayron, to'riq, yo'rg'a, bayta***/kabilar giponimdir.

Gipo-giperonimik leksik paradigmalarıni hosil qiluvchi elementlar o'zbek tilining zoonimlari orasida keng tarqalgan. Jumladan, ayni bir jinsga mansub hayvonning har xil turlarini (rang-tusiga, jinsiga, tashqi jismoniy belgilariga, yoshiga, yetil-gan-yetilmaganligiga) ifodalashga asoslangan so'zlar bilan bog'lanib,

turli gipo-giperonimik paradigmalarni hosil qiladi. Masalan, jinsiga ko'ra: tovuq: *xo'roz* – tovuqning erkagi; *maki-y-on* - tovuqning urg'ochisi va b.

Gipo-giperonimik qatorlar partonimiya, graduonimiya, sinonimiya, antonimiya bilan aloqador hodisa hisoblanadi.

GRADUONIMIYA (darajalanish)

Lug'aviy ma'no guruhlar doirasida ma'no darajalanishini ifodalovchi leksik birliklar *graduonimiyadir*.

Belgini darajalab atab keluvchi so'zlarni o'zaro birlashti-rish tilshunoslikda uzoq tarixga ega. Alisher Navoiy «Muhoka-matul-lug'atayn» asarida «yig'ib» holatini ifodalovchi quyidagi darajalanish qatorini ajratadi: *ingramoq, singramoq, yig'lam-sinmoq, yig'lamoq, siqtamoq, o'kirmoq, hoy-hoy yig'lamoq*. Bunday leksemalar qatori o'zaro darajali ziddiyat (graduonimik oppozitsiya)da turadi. *Qo'zi – shirvoz – tusoq – shishak – chori – panji* qatorida «yoshning miqdori» semasi darajalangan.

Darajalanish munosabatlari bilan so'zlar qatorini: a) sof lisoniy asoslar; b) g'ayrilisoniy asoslar kabi ikki guruhga ajra-tish mumkin.

G'ayrilisoniy asosga tabiatda bo'ladigan sifat va miqdoriy o'zgarishlar asosida yuz beradigan hodisalar va shu hodisa-larga inson tomonidan atab qo'yilgan so'zlar kiradi. Ya'ni miqdoriy farqlar alohida so'zlar bilan ataladi: *nihol, ko'chat, daraxt* kabi.

Lisoniy lug'aviy darajalanishda esa bir qator so'zlardagi atash-nomlash semalari tarkibidagi miqdorda ma'lum bir belgi-ning oz-ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Jumla-dan, *darcha, eshik, darvoza* so'zlarining talqinida «kichkina», «eshikcha», «katta» so'zlari miqdoriy belgilariga ishora mavjud.

So'zlarning graduonimik qatorlarga tizilishi ma'lum bir bel-gi (oppozitsiya belgisi) zaminida sodir bo'ladi. Masalan, «qizillik» belgisi asosida *gulobi, pushti, qizg'ish, qizil, ol, qirmi-zi*; «yosh miqdori»ga ko'ra: *qulun, toy, do'non, g'o'non, ot*; «katta-kichiklik» miqdoriy belgisiga ko'ra: *kulba, hujra, uy, ko'shk, qasr, saroy, koshona* kabilarga bo'linadi.

Xullas, graduonimik munosabatlarni o'rganish graduoni-mik uyalar lug'atini tuzish, o'zbek tili lug'at xazinasidan unumli va samarali foydalanishga qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

PARTONIMIYA

So'zlararo ma'noviy munosabatlarda partonimiya o'ziga xos o'rin tutadi. Partonimiya atamasi lotincha *partos* – bo'lak, qism va nomos nom demakdir, ya'ni so'zlararo butun-bo'lak munosabatlarini ifodalashga taalluqli aloqalar tushuniladi.

Masalan, **daraxt** – **ildiz** – **tana** – **shox** – **barg**; **uy** – **xona** – **devor** – **tom** – **eshik** so'zlari o'zaro butun-bo'lak munosabatlari bilan bog'langan.

Partonimik lug'aviy ma'no guruhidagi so'zlar butunnom va bo'laknom kabi ikki turga ajratiladi: **daraxt** – butunnom; **ildiz, tana, shox, barg** – bo'laknom. «Odam» partonimik lug'aviy ma'no guruhida **bosh, tana, qo'l, oyoq** kabi 4 bo'lak o'zaro ma'lum tartibda va qonun-qoida asosida birlashib, bir sistemani – «odam» nisbiy butunligini tashkil etadi.

Partonimik lug'aviy ma'no guruhlaridagi so'zlarni qiyosiy o'rganish bu lug'aviy birliklarning ma'nosini yanada chuqurroq ochishga yordam beradi.

OMONIMLAR

reja:

1. Ta'rif va tavsif.
2. Omonimlarning turlari.
3. Omonimlarning so'z turkumlariga munosabati.
4. Omonimlarning kelib chiqishi.
5. Omonimiya va polisemiya.
6. Omonimiya va konversiya.
7. Omonimlarning nutqiy ahamiyati.
8. Xulosa.

Shakli bir xil va ma'nolari turlicha bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlar *omonimlar* deyiladi. Omonimlar asosan bir xil ohangda aytiladi va bir shaklda yoziladi. Masalan:

*Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.*

Yana:

*Chun pari-yu, hurdir otling, begim,
Sur'at ichra devdir oting, begim.
Har hadanggikim, ulus ondin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim.*

kupletlarining birinchisida *ot* so'zi omonim bo'lib kelgan bo'lib, u birinchi misrada – *nom*, ikkinchi misrada – *buyruq fe'li*, to'rtinchi misrada – *uy hayvoni* (ot) ma'nolarida; ikkinchisida esa *oting* so'zi birinchi misrada – *isming, noming*, ikkinchi misrada – *uy hayvoni* (ot) va, nihoyat, to'rtinchi misrada – *hadang(o'q)ni oting* (buyruq fe'li) ma'nolarida kelgan. Chunonchi, mazkur to'rtlikning birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralarda radif bo'lib kelgan «*begim*» so'zi aytilishi va yozilishiga ko'ra bir xil bo'li-shiga qaramasdan, bir ma'noli va bir so'z bo'lganligi uchun omonim

emas.

Turkum jihatdan omonimlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Omonimlar ayrim hollardagina faqat atrofda (*temir* – jism, *Temir* – ism; *bo'ri* – yovvoyi hayvon, *Bo'ri* – ism; *ra'no* – gul, *Ra'no* – ism kabi), ko'p hollarda esa turli turkumlardan tarkib topadi: *toy* – yilqining bolasi, o'rab qo'yilgan gazlama, buyruq fe'li; *uch* – raqam, biror narsaning so'nggi nuqtasi, buyruq fe'li; *yosh* – ko'z yoshi (ot), yosh yigit belgi (sifat) kabi.

O'tgan asrning 90-yillarida nashr etilgan grammatik adabi-yotlarda omonimlarni aytilishi, yozilishi va ma'nolariga ko'ra turlarga ajratganda, *sof* va *shartli* omonimlar, *to'la* va *yarim omonimlarga* ajratib kelindi. Lekin so'nggi yillardagi ayrim qo'llanma va konspektiv kurslarning ayrimlarida omonimlarning turlarga bo'linishi umuman inkor qilinsa, ba'zilarida ularni *lek-sik* (sof omonimlar) va *nutqiy* omonimlar (omofoniya, omografiya, omoforamiya)ga ajratadilar. Omonimlarni bunday turlarga ajratish, ularga til hodisasi va nutq hodisasi sifatida qarash nuqtai nazardan, to'g'ri bo'lib, mohiyatan ilgarigi an'anaviy bo'linishdan farqlanmaydi. Shunga ko'ra, omonimlar, odatdagi-dek, quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Sof omonimlar.

2. Shartli omonimlar:

a) omofonlar;

b) omograflar;

c) omoformalar.

So'zlarning omonim yoki omonim emasligi aslida: 1) talaf-fuzdagi bir xilligiga; 2) yozuvdagi bir xilligiga; 3) ba'zan fonetik yoki morfologik jihatdan so'zlarning bir xil bo'lib qolishiga bog'liq. Shu xususiyatlarning hammasiga to'la ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarnigina sof omonimlar deyish mumkin.

Demak, ham aytilishi, ham yozilishi bir xil bo'lgan so'zlarga *sof omonimlar* deyiladi: *ot* (ism), *ot* (buyruq fe'li), *ot* (uy hayvo-ni); *uch* (son) *uch* (buyruq fe'li), *uch* (biror narsaning tugallan-gan qismi) kabi.

Sof omonimlar lug'aviy birliklar sifatida bir xil tarkibga ega bo'lgan birdan ortiq so'zlardir. Masalan, *qo'sh* so'zi ham ot, ham sifat, ham fe'l turkumlari sifatida uch mustaqil leksemani tashkil qiladi.

Ba'zan so'zlar faqat bir tomoni yoki aytilishi yoki yozilishi yoki tarkibidagi biror morfemasi orqaligina o'xshash bo'lib qoladi, shuning uchun ular *shartli omonimlar* deb yuritiladi. Ular avval-dan til birligi sifatida mavjud bo'lmay, faqat nutqiy jarayonda bir xil shaklga kelib qoladi.

Omofonlar. Talaffuzi, aytilishi bir xil, yozilishi va ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlarga *omofonlar* deyiladi. Masalan: *to'n* (kiyim), *ton* (ovoz); *yot* (begona), *yod* (yod olmoq, xotirada saqlamoq); *urush* (jang), *urish* (harakat nomi – urmoq) kabi.

Ko'rinadiki, bu so'zlarning o'xshashligi nutq jarayonida so'z tarkibidagi ayrim

tovushlarning artikulyasion-akustik o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, *to'rt* so'zining o'zbek tilida so'z oxirida undoshlarning qator kelmasligi qonuni asosida *to'r* (so'm) sifatida talaffuz qilinishi *to'r* (setka) so'zi bilan yoki *tok* (elektr zaryadi) so'zining ruschadan o'zlashgan so'zdagi unli-ning o'zbekcha talaffuzga moslashtirilishi natijasida *to'k*fe'liga shakldosh bo'lishiga sabab bo'lgan.

Omograflar. Yozilishi bir xil bo'lib, ma'nosi va talaffuzi har xil bo'lgan so'zlar *omograflar* yoki *omogrammalar* deyiladi. Masa-lan, *tok* (uzumning toki), *tok* (elektr toki); *tom* (uyning tomi), *tom* (kitob jildi); *tort* (buyruq fe'li), *tort* (shirinlik) kabi.

Omograflar doimiy bo'lmasligi ham mumkin, chunki ularning yozuvda bir xil qayd etilishi ma'lum grafika uchun belgilangan ma'lum imlo qoidasi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Agar yozuv o'zgarsa, ayrim omograflar o'z belgisini yo'qotishi mumkin. Masalan, o'zbek yozuvining rus grafikasidan lotin yozuviga o'tishi ayrim omograflarning omograflik xususiyatining yo'qoli-shiga olib kelishi, ayni paytda, yangi yozuvga ko'ra yangi omo-graflarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu ular-ning shartlilikini ko'rsatuvchi belgilardan biridir.

Omoformalar. Tarkibidagi morfemalarning o'zgarishi tufayli yozilishi va talaffuzi jihatidan bir xillikka ega bo'lgan so'zlarga *omoformalar* deyiladi. Misollar: *olma* (meva) – *ollma* (bo'lish-siz fe'li); *tugma* – tuglma; *olldi* (fe'li), *oldli* (ko'makchi) kabi.

Nutqda faqat so'zlar emas, balki so'z birikmalari, frazemalar, hatto gaplar ham omonimlik holatida bo'lishi mumkin: *oqsoqol* – keksa, soqoli oq, mahalla rahbari; *ko'z yumdi* – vafot qildi, biror xatoni kechirdi, bilib bilmaslikka oldi; *ko'l ko'tardi* – tasdiqladi, taslim bo'ldi, qo'lini yuqoriga ko'tardi; *Ular bir umrga uchrashmaydigan bo'lib xayrlashdilar* – er-xotin yoki sevishganlarning ajrashishi, harbiy o'rtoqlarning xayrlashishi, o'ldi kabi. Bular hozirgi tilshunoslikda *omomorfema* (*siz* – sifat yasovchi va III shaxs egalik affiksi), *omoevfema* (*etagi ho'l bo'ldi* – nomussizlandi va kiyimning etak qismi suvga botdi), *omofrazema* va *omosintagma* (yuqoridagi misollarga qarang) kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Omonimlar ham shakliy, ham ma'no xususiyatlariga ko'ra polisemantik so'zlarga o'xshab ketadi, lekin ular farqli bo'lib, bu farq va o'xshashliklar quyidagicha:

1. Polisemantik so'z birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ayni bir so'zning o'zidir. Omonimlar esa fonetik tarkibi bir xil, birdan ortiq so'zlardir. Masalan, *paxta* bir so'z sifatida o'simlik, uning hosili, tola, chigit (*paxta ekmoq*) ma'nolarini anglatgani uchun polisemantik so'z; *tuz* so'zi *tuz* – mineral, osh tuzi, *tuz* – *tuz-moq*, *tuz* – *tekis* (dala) sifatida uch so'z va uch ma'no bo'lgani uchun omonimdir.

2. Polisemantik so'z ma'nolari bir-birini taqozo etadi. Ular-ning ma'nosi bir-biri bilan mushtarak, mazmunan bir-biri bilan aloqador: *ko'z* so'zi uzukning ko'zi, yog'ochning ko'zi, buloq-ning ko'zi iboralarida ko'zga o'xshashligi ma'nosi bilan bir-biri bilan aloqador. Omonimlar tarkibidagi so'z ma'nolari bunday bog'lanish – aloqadorlikka ega emas. Masalan, *ko'kat* ma'nosi-dagi o't so'zi olov ma'nosidagi o't

so'zi bilan omonim, chunki ko'kat va olov ma'nolari o'rtasida aloqadorlik yo'q.

3. Polisemantik so'zlar bir so'zning ma'no taraqqiyoti natija-sida yuzaga keladi, omonimlarning yuzaga kelishi esa, asosan, tasodifiydir.

4. Polisemantik so'zlar, asosan, bir til doirasidagi taraqqiyot natijasi, omonimlar esa turli tillardagi ayrim so'zlarning bir tilda fonetik bir xillikka duch kelishidir.

Omonimlar manbalariga ko'ra ham turli xususiyatlarga ega:

1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida:

a) tub so'zlar: *o'l* (o'simlik, olov, buyruq fe'li), *ol* (ism, uy hayvoni, buyruq fe'li), *tosh* (jism, buyruq feli) kabi;

b) so'zning fonetik o'zgarishi: *un* (ovoz), *un* < *uvlin* > *u:n*;

c) so'z yasalishi: *oylik* – maosh, reja;

d) konversiya: *oltin* – metall, material (oltin soat);

e) polisemantiklik: *kun* – quyosh, sutkaning yarmi;

f) adabiy til va dialekt: *shoti* – arava asosi va narvon.

2. Chet tillardan so'z olish: *tur* (xil) – *tur* (sport), *tom* (uy) – *tom* (jild) kabi.

Omonimlar o'zbek poeziyasi tarixida muhim rol o'ynagan. Shoirlar omonimlarning xilma-xil ma'nolaridan foydalanib, tuyuqlar, tajnislar yaratganlar. Xalq og'zaki ijodining turli janr-larida omonimlardan keng foydalanilgan:

*Olmani so'ndi nigorim – ol! – dedi,
Olma birla bu ko'ngilni ol! – dedi.
So'rdim ersa olmasining rangini,
Ne so'rarsan? – Olma rangi – ol! – dedi* (Navoiy).

*Dilrabo, o'ttir boshingdan aylanay,
Tandim ol, o'lsam so'ngagim ayla nay* (Uvaysiy) va b.

PARONIMLAR

Paronimlar grekcha yonidagi nom, qo'shaloq nom demakdir.

Leksik ma'noga ko'ra o'zaro aloqador bo'lmagan ikki so'zning talaffuzda o'xshashligiga asoslangan ohangdosh so'zlarga *paronimlar* deyiladi: *yoriq* – *yoruq*, *qurt* – *qurut*, *burch* – *burj*, *abzal* – *afzal*, *yonilg'i* – *yoqilg'i* kabi.

So'zlarda paronimiyaning yuzaga kelishi uchun ularning fone-tik tarkibidagi shunchaki o'xshashlik yetarli emas. Masalan, *tuz* va *tut* so'zlari tarkibidagi bir tovush (z va t) hisobiga farqli bo'lsa ham, paronim bo'la olmaydi, chunki bu tovushlar arti-kulyatsion-akustik jihatdan bir-biridan uzoq: *t* – jarangsiz, til oldi, portlovchi undosh, *z* – jarangli, til oldi, sirg'aluvchi un-dosh. Ko'rinadiki, bu tovushlar faqat

artikulyasiya o'rniga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lsa ham, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, artikulyasiya usuli va akustikasiga ko'ra boshqa-boshqa tovushlardir. Paronim bo'lish uchun yondosh so'zlar faqat bir xususiyatiga ko'ra farqlanib, boshqa xususiyatlari bilan o'x-shash bo'lishi shart. Masalan, *hol* va *xol* so'zlarida *h* va *x* pay-do bo'lish o'rniga ko'ra, *abzal* va *afzal* so'zlarida *b* va *f* tovushlari artikulyasiya usuliga ko'ra farqlanadi va paronimiyani hosil qiladi.

Paronimlar turli yo'llar bilan hosil bo'ladi:

- a) tovush ohangdoshligiga ko'ra: *hot* – *bod*;
- b) turli o'zakdan bir xil qo'shimcha vositasida so'z yasash natijasida: *yonilg'i* – *yoqilg'i*, *yolqin* – *yorqin*, *toblan* – *tovlan* kabi;
- c) so'z o'zlashtirish vositasida: o'zbekcha – *ora* > *aro*, fors-tojik – *oro*, o'zbekcha – *burch*, arabcha – *burj* va boshqalar.

Paronimlardan poeziyada she'riy qofiyalar yaratishda, shu-ningdek, askiya, hazil-mutoyibada ham keng foydalaniladi.

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI

reja:

1. O'zbek tili leksikasining taraqqiyot yo'llari.
2. O'zbek tili leksikasining o'z va o'zlashgan qatlamlari.
3. O'zbek tili leksikasining o'z qatlami:
 - a) umumturkiy so'zlar;
 - b) o'zbekcha so'zlar.
4. O'zbek tili leksikasining o'zlashgan qatlami:
 - a) fors-tojik so'zlari;
 - b) arabcha so'zlar;
 - c) ruscha va baynalminal so'zlar.
5. O'zbek tilining chet so'zlarga munosabati.
6. Xulosa.

Tilning lug'at tarkibi til qurilishining eng muhim tarkibiy qism-laridan biridir. Har bir tilning, jumladan, o'zbek tilining ham lug'at boyligi, uning qay darajada ekanligi, u yoki bu xalqning shakllanish jarayoni, turmush sharoiti hamda keyingi o'sish va rivojlanish tarixi bilan bog'liq.

O'zbek tili O'rta Osiyodagi qadimiy mahalliy xalqlarning turkiy tillar tizimidagi tillaridan biri bo'lib, uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishi ham qadimiydir. O'zbek tili leksikasi o'zi-ning butun tarixiy takomilida shu tilning o'z ichki taraqqiyot qonunlari asosida o'sgan va rivojlangan.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek tili leksikasida hamma turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'z birliklari o'zbek tili lug'at tarkibining ham asosini tashkil qiladi. Lekin bu hozirgi o'zbek adabiy tilining butun so'z boyligi faqat o'zbekcha va umumturkiy so'zlardan tarkib topgan degan gap emas. Sababi o'zbek xalqi o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida boshqa xalqlar bilan ham siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqada bo'lib kelganki, bu, tilda ham o'z ifodasini topgan. Chunki ellar o'rtasidagi aloqa tillar o'rtasidagi aloqadir. Dunyoda hech bir sof til yo'q. Dunyo xalqlari doimo bir-birlari bilan so'z olib, so'z berib kelgan. Demak, o'zbek tili lug'at boyligida nafaqat o'zbekcha va umumturkiy lug'aviy birliklarni, boshqa tillardan qabul qilingan ko'plab so'zlarni ham uchratish mumkin. Bu til taraqqiyotining asosiy qonunlaridan biridir.

Shu jihatdan qaraganda, hozirgi o'zbek adabiy tili leksik tarkibini ikki yirik (o'z va o'zlashgan) qatlamga ajratish mumkin.

O'zbek tili leksikasining o'z qatlami

O'zbek tili leksikasining o'z qatlamiga oid so'zlarning mavjudligi o'zining juda uzoq tarixiga ega. U oltoy tillari alohida-alohida qabila va xalq tillari sifatida differensiasiyalashmagan, butun turkiy qavmlar bir umumiy tilga ega bo'lmagan davrlarda shakllana boshlagan. Davrlar o'tishi bilan umumturkiy tillarning alohida-alohida turkiy tillarga differensiasiyalanishi ularning tillarida ham o'ziga xos ayirmalarni keltirib chiqargan. Bu o'z navbatida har bir turkiy til, jumladan, o'zbek tili leksikasining o'z qatlamini ham ikkiga ajratishga asos bo'lgan:

1. Umumturkiy so'zlar.

2. O'zbekcha so'zlar.

Umumturkiy so'zlar. Turkiy xalqlarning barchasi uchun tushu-narli bo'lgan so'zlarga umumturkiy so'zlar deyiladi. Umumturkiy so'zlar VI-VII asr yodnomalari tilida uchraydi: *ata, ini, adaq, tav, altun* kabi. Bu kabi so'zlar o'sha davr hamma turkiy tillari uchun umumiy bo'lgan.

Hozirgi turkiy tillar, jumladan, hozirgi o'zbek tili tarkibidagi bunday umumturkiy so'zlarni shartli ravishda quyidagicha belgilash mumkin:

1. Qarindoshlik atamaları umumturkiy leksikaning eng arxaik qatlamidir. Qarindoshlik atamaları qon-qarindoshlik, oila-nikoh, ota urug'i va ona urug'iga doir shaxslar hamda ularning yosh xususiyatlariga ko'ra farqlangan. Masalan, barcha turkiy tillar va o'zbek tilida qarindoshlik atamaları: *ota/ata, opa/apa, tog'a/dayi/tay, xotin/katin/gadin, kelin/gelin, qayin/qayin/ qayn* kabi.

2. Turli hayvon, jonivor, parrandalar nomlari, ularning anatomiya a'zolari atamaları: *ot/at, bedav/badav, echki/eshki/ echi, eshak/yesek/eshteq, g'oz/qaz/kas, tuyuq/toyak/tuyak, tum-shuq/tomshiq/tumzux* va boshqalar.

3. O'simlik nomlari va ularning a'zolariga oid atamaları: *boshqoq//majaq//masaq, yaproq//yalbirak//yapurmak, tomir//ta-mir//tamix* kabi.

4. Tabiat hodisalarini anglatuvchi atamalar (anemonimlar): *yel (shamol) //jel//chel, yashin//jasin* kabi.

5. Ayrim jo'g'rofiy va samoviy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: *yulduz//juldiz//yo'ldik, dengiz//deniz//tines, ko'k (osmon) //koy //ko'k, dala//talaa//tarla, suv (daryo) //suu//suqva* b.

6. Narsa, hodisa, voqea, harakat, belgi va miqdor nomlari, shaxs va so'roq ma'nosini anglatuvchi qadimgi so'z va atamalar ham o'zbek tilining umumturkiy leksik qatlamining asosini tashkil qiladi.

Umuman, turkiy tizimdagi tillarda eng qadimgi davrlardan boshlab, amalda asosan bir xilda qo'llanib kelgan, keyinchalik o'sib, rivojlanib, hozirgi paytda ham deyarli barcha turkiy tillarda shakl va ma'no birligini saqlagan, lekin qisman har bir turkiy tilning artikulyatsion xususiyatlariga ko'ra o'z fonetik ayrimliklariga ega bo'lgan lug'aviy birliklar barcha turkiy tillar leksikasining asosini tashkil qiladi.

Shubhasiz, turkiy tillarning har biri o'z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanib kelgan, shuning uchun boshqa turkiy tillar-dagi ayrim so'zlar o'zbek tilida, o'zbek tilidagi ayrim so'zlar esa boshqa turkiy tillarda uchramasligi mumkin. Masalan, *ev* (uy), *emgak* (mehnat), *yemak* (non), *al* (qo'l) singari umumturkiy so'zlar hozirgi kunda o'zbek tilida ishlatilmaydi, o'zbek tilidagi ayrim so'zlar ham boshqa turkiy tillarda shunday.

O'zbekcha so'zlar. O'z qatlamning asosiy tarkibiy qismi o'zbekcha so'zlardir. Bu so'zlar o'zbek tilining o'zida shu tilning o'z ichki imkoniyatlari, fonetik, semantik, grammatik qonun-qoidalari asosida shakllangan so'zlardir. Shuning uchun o'zbek tili leksikasiga oid so'zlarni, ayrim qiyinchiliklari mavjud bo'lsa ham, o'ziga xos belgilari asosida bema'lol ajratib olish mumkin. Bu belgilar quyidagicha:

1. O'zbek tili leksikasidagi barcha olmoshlar, miqdor bildi-ruvchi barcha tub va tarkibli sonlar hamda tub fe'llar, boshqa turkiy tillarda uchramaydigan shamol, momaqaldiraq, to'lqin, voqea va hodisa nomlari, faqat o'zbeklarning o'ziga xos kash-hunar va dehqonchilikka oid otlar sof o'zbekcha so'zlardir.

2. O'zbekcha bir bo'g'inli tub so'zlar, asosan, V (vokal – unli) C (konsonant – undosh): *ol, ot, osh* kabi; qisman CV: *ye< je, de* kabi; asosan, CVC: *bosh, tosh, tush, chiq, qo'y* tipida bo'lgan. Ayrim taqlidiy so'zlarni hisobga olmaganda (*chars-churs, bilq-bilq, pirq-pirq* kabi), o'zbek tilida CVCC tipidagi bir bo'g'inli so'zlar deyarli uchramaydi, chunki o'zbek tilida so'z o'zaklari qator undoshlar bilan tugamaydi. Qator undoshlar bilan tugagan so'z o'zaklari ba'zan uchrasa ham, u qo'sh un-dosh shaklida kelib, uning birinchisi ko'pincha *n, r, s, y* undoshlari bo'lib, so'ng jarangsiz undoshlar keladi: *ost, qayt, ayt, turt, to'rt* kabi.

3. O'zbek tilida so'zlar qator undosh bilan boshlanmaydi, yo unli bilan

boshlanadi yo undosh bilan boshlanib, uning ketidan unli keladi: *o'zgarish, qishloq* kabi.

4. O'zbek tiliga oid so'zlarning ko'pchiligi ko'p ma'nolidir.

5. Sof o'zbekcha so'zlar orasida mavhum ma'noli so'zlar oz.

6. O'zbek tiliga oid so'zlar *v, g, z, l, r, ng* undoshlari bilan boshlanmaydi.

7. O'zbekcha so'zlarda grafik belgilar qo'llanmaydi va b.

O'zbek tili leksikasining o'zlashgan qatlami

Til jamiyatning taraqqiyoti bilan birga doimo o'zgarib, taraqqiy etib boradi. Uning eng o'zgaruvchan qismi bo'lgan lug'at tarkibining o'sishi va o'zgarishining turli omillari mavjud:

1) lug'at boyligining o'zgarishi, eng avvalo, tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida yuz beradi. Turli usullar bilan yangi so'z-lar hosil bo'ladi, yasaladi va so'zning semantikasida o'zgarish yuz berib, uning ma'nosida differensiatsiyalanish sodir bo'ladi, so'zning har bir yangi ma'nosi yangi so'z hosil qiladi;

2) adabiy til va uning tarkibidagi dialektlar o'rtasida doimiy munosabat, aloqa mavjud bo'ladi. Bu aloqa dialektlar tarkibi-dagi ayrim so'zlar hisobiga adabiy til lug'at boyligini oshirib bo-radi;

3) qarindosh xalqlar o'rtasidagi doimiy ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar tillar o'rtasidagi aloqani ham kuchaytiradi, bunday aloqalar har ikkala til va tillar o'rtasidagi leksik almashinuvga katta imkoniyat yaratadi.

4) noqarindosh xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tillar o'rtasidagi aloqani ham vujudga keltiradi va bu, ko'pincha, bir tilda, ba'zan esa har ikkala tilda ham leksik olinmalarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Leksikada o'zlashgan qatlamning paydo bo'lishi har doim bir xil usulda yuz bermaydi, so'z o'zlashtirish sabablari, tabiati har xil bo'ladi:

1. Noqarindosh ellar va tillarning tengligi asosida. Bu o'zaro aloqadagi xalqlarning hududiy yaqinligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va kundalik turmush sharoitlarining umumiyliigi asosi-da quriladi va bularning barchasi tilda o'z ifodasini topadi. Juda uzoq tarixiy jarayonda aloqadagi tillar o'rtasida leksik olinmalar o'sib, rivojlanib boradi, shuningdek, tillar tarkibida yangi - o'zlashgan qatlamni shakllantiradi. Masalan, o'zbek tili leksikasi tarkibidagi fors-tojik so'zlari o'zbek va tojik xalqlari-ning bir hududda yashaganliklari, ularning azaliy erkin muloqoti natijasidir.

2. Noqarindosh ellar va tillarning o'zaro tengsizligi asosida. Bu noqarindosh qavmlar va xalqlar o'rtasidagi tashqi ziddi-yatlar, o'zaro bosqinchilik urushlari,

g'olib hamda mag'lub qavm va xalqlar, mamlakatlarni vujudga keltiradi. G'olib mamlakatlarning mag'lub mamlakatlar ustidan hukmronligi, mag'lub mamlakat, elat va xalqlarning ijtimoiy turmush sharoiti, urf-odat va madaniyatiga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi, albatta. Bu, dastavval, g'olib va mag'lub xalqlar tillarida o'z aksini topa-di. Sababi g'olib mamlakat hukmronlari bosib olingan hududlarda o'z tilini hukmron til darajasiga ko'tarishga, davlatni boshqarishni o'z tillarida olib borishga, yozuv va yozma hujjat-larni o'z tili hisobiga o'zgartirishga intiladi. Natijada bir til leksikasida ikkinchi til leksikasiga oid yangi so'zlar va dubletlar paydo bo'la boshlaydi. Bular davrlar o'tishi bilan tobora kenga-ya boradi, mag'lub tillar leksikasida o'z qatlami bilan yonma-yon o'zlashgan qatlam yuzaga keladi. O'zbek tili leksikasi tarkibidagi arab, fors va rus tillariga oid leksik qatlamlarning paydo bo'lishi shu asosda yuz bergan.

Qarindosh va noqarindosh tillar o'rtasidagi ana shu munosa-batlarni leksik olinmalarning xususiyatlariga ko'ra o'zbek tili va boshqa tillar aloqasi misolida quyidagicha tasnif qilish mum-kin:

- 1. O'zbek tili leksikasida fors-tojikcha so'zlar.**
- 2. O'zbek tili leksikasida mo'g'ulcha va xitoycha so'zlari.**
- 3. O'zbek tili leksikasida arabcha so'zlar.**
- 4. O'zbek tili leksikasida ruscha va baynalminal so'zlar.**

O'zbek tili leksikasida fors-tojikcha so'zlar. O'zbek xalqi bilan eroniy xalqlar, o'zbek tili bilan fors-tojik tillari o'rtasidagi munosabat juda qadim zamonlardan boshlangan, chunki Mar-kaziy va O'rta Osiyoda o'zbeklar forslar va tojiklar bilan birga yashab kelganlar.

O'zbek va fors-tojik tillari o'rtasidagi aloqa tenglik va tinchlik asosida yuz bergan. Shubhasiz, yashash hududlari bir bo'lgan o'zbek (qisman qoraqalpoq, turkman) hamda fors va tojik xalqlarining iqtisodiy turmush sharoiti, ishlab chiqarish, fan va madaniyati, san'atida ham umumiylik bo'lgan, bu ularning urf-odatlari, oilaviy munosabatlarida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilidagi fors-tojik olinmalarning manbai, asosan, rivoj-langan fors-tojik adabiy tili bo'lgan. O'rta Osiyoning mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davrida Qoraxoniylar va Xorazm davlatlari adabiy tili, undan keyin esa Oltin o'rda va Temuriylar davlati adabiy tili hamda ilmiy-adabiy aloqalari o'zbek tili leksikasi tarkibida fors-tojik olinmalarining asosi bo'lgan.

O'zbek xalqi va fors-tojik xalqlari, o'zbek tili va fors-tojik tillari o'rtasidagi azaliy aloqa va munosabatlarni faqat o'zbek va tojik xalqlari, o'zbek va tojik tillari o'rtasidagi munosabatlar orqali izohlash mumkin. Ma'lumki, Tojikistonning janubiy hududlari (Vaxsh va Qorarnihosh vodiylaridagi Qo'rqontepa, Qabadiyon, Jimko'l, Shahartuz rayonlari) va Jonibedam vilo-yatida, O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Namangan, Termiz kabi markaziy shaharlari va Buxoro, Samarqand, Surxondaryo

viloyatlari hamda Farg'ona vodiysining ko'pgina hududlarida o'zbeklar va tojiklar birga yashashadi. Bu birlik asosidagi o'zbek va tojik o'zaro og'zaki muloqoti Buxoro, Samarqand (XIV-XV asrlardayoq Hirot, Isfaxon, Qandahor, Balx) shaharlarida o'zbek va tojik ikkitilligini shakllantirgan bo'lsa, ko'p asrlar davomidagi buyuk mutafakkirlar Abdurah-mon Jomiy va Alisher Navoiy, Muqimiy va Muiziy, Sadriddin Ayniy va Oybeklar o'rtasidagi ilmiy-adabiy hamkorlik va zulliso-naynlik an'alarini davom ettirdi, rivojlantirdi. Temuriylar davrida va keyinchalik Buxoro, Qo'qon xonliklarida davlat-idora ishlarining ikki tilda olib borilishi, shubhasiz, har ikki tilning ham fonetik, leksik-grammatik ravnaqiga samarali ta'sir ko'r-satgan. Shuning uchun tojik-fors tilining o'zbek tiliga va o'zbek tilining tojik-fors tiliga ta'sirini faqat bu adabiy tillar leksikasida emas, balki ularning tovushlar tarkibidagi grammatik qurilishda ham ko'rish mumkin. Misollar:

a) leksikada: *kaft, obro', ohang, bahor, bekor, hamroh, poy-taxt, astoydil, otashin, baland, past, kamtar, ro'para* kabi;

b) fonetikada: o'zbek tili unlilar tizimidagi ayrim o'zgarishlar, tojikcha so'z boshida *g, l, z, v, r* tovushlarining odatiy qo'lla-nishi;

c) grammatikada: *-boz, -bon, -do'z, -namo, -paz, -parvar, -furush, -xona* kabi yasovchilar, *be-, ba-, bar-, ser-, no-, xush-, pur-, bo-* kabi prefikslar va boshqalar.

O'zbek tili leksikasida mo'g'ulcha va xitoycha so'zlar. O'zbek tili leksikasi o'zlashgan qatlamining ma'lum qismini mo'g'ul va juda kam miqdorda xitoy tilidan olingan so'zlar tashkil qiladi.

Bunga asosiy sabab, bir tomondan o'tmishda turk, mo'g'ul, tungus-manjur urug' va qabilalarining ginetik (kelib chiqish) birligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, keyingi davrlarda turkiy qabi-lalar va uyushmalar yashaydigan butun hududlarning mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishidir.

So'z qabul qilishda mo'g'ul tilining nufuzi hamma turkiy til-larda bir xil bo'lmagan. Turkiy elat va xalqlar yashaydigan yer-lar, hatto Amu sohillarigacha mo'g'ullar tomonidan istilo qilin-ganda ham, mo'g'ul imperiyasi hukmdorlari turkiy tillar, jumla-dan, o'zbek tiliga tayziq, o'tkaza olmagan. Ular bosib olingan yerlarda talonchilik va vayrongarchilik bilan shug'ullangan. Bu davrlardagi turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ham, ijtimoiy turmush sharoiti, urf-odati, madaniyati, san'ati va arxitek-turasi, yozuv tili va adabiyoti jihatidan mo'g'ullarga nisbatan mutlaqo ustun bo'lgan. Mo'g'ullar o'zlari egallab olgan joylarda hech narsa qurmagan, faqat buzgan. Bu haqda mashhur ven-ger turkshunos-tilshunosi H.Vemberi mo'g'ullar turklarga til o'rgatmadi, balki ulardan o'rgandi, deganida haqli edi. Shunga qaramay, hozirgi o'zbek tili leksikasida asli mo'g'ulcha bo'lgan *dala, tangri, muz, ayron, bayan, bo'sag'a, xan* kabi so'zlar va ba'zi etnotoponimlarni ko'plab uchratish mumkin.

O'zbek tilida uqadar ko'p bo'lmasa ham, xitoy tilidan olingan so'zlar ham uchraydi. Turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar va xitoyliklar o'rtasida ham qadimiy aloqalar

mavjud bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida uchraydigan *zang, choy, chanoq (idish), qo'shni, yombi* kabi so'zlarning mavjudligi ana shu aloqalar natijasidir.

O'zbek tili leksikasida arabcha so'zlar. Arab tili leksikasi o'zbek tilining o'zlashgan qatlami sifatida X asrlarga kelib, butun Markaziy va O'rta Osiyo hududlari arablar tomonidan bosib olingandan keyin, yoppasiga kirib kela boshladi. Bu davrlarda arab tili faqat arablarning o'zi uchun emas, balki barcha arab davlatlari hamda arablar tomonidan bosib olingan yerlar xalqlari uchun ham din, fan, maktab va mahkamalar tiliga aylanib qolgan edi.

Arab tili dunyodagi o'zlashtirilishi eng og'ir bo'lgan tillardan biridir. Shunday bo'lishiga qaramasdan, arablar barcha yerli aholini majburan islom diniga kiritdi, muqaddas Qur'on tilini barcha mavjud maktab va madrasalarda ona tili o'rnida – asosiy davlat tili sifatida o'qitishga va o'rganishga erishdi.

X-XI asrlarda Mahmud Koshg'ariy, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Termiziy kabi mutafakkirlar o'z ilmiy asarlarini arab tilida yaratdi.

O'zbek tiliga arab tilidan olingan so'zlarni ma'nolariga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) diniy tushunchalarni anglatuvchi atamalar: *Alloh, oxirat, do'zax, jannat, shayton, farishta, imon, masjid, tahorat* kabi;

2) ilmiy abstrakt atamalar: *adab, ahvol, olam, abjad, qodir, xayr, shafokat* kabi;

3) davlat iqtisodiy-ishlab chiqarish atamalari: *mahkama, mehnat, mol, foyda, qassob* kabi;

4) ijtimoiy-siyosiy atamalar: *jamiyat, madrasa, muassasa, zulm, zolim* kabi;

5) grammatik ma'no ifodalovchi atamalar: *va, lekin, aslo, albatta, masalan, alalxusus* kabi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, arab tilidan qabul qilingan ayrim til birliklari o'zbek tili talaffuzi va imlosiga moslashtirildi, hatto arab grafikasiga isloh kiritildi.

O'zbek tili leksikasida ruscha va baynalminal so'zlar. O'zbek tilining rus tili bilan o'zaro aloqasi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga keldi. Bu davrda O'rta Osiyo Rusiya tomonidan tamomila bosib olingan edi. Bu, bir tomondan, O'rta Osiyo xalqlarining Rusiyaga qaramligini yuzaga keltirgan bo'l-sa, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyo o'lkalarida yangi ijtimoiy tuzumning barpo qilinishi, yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, zavod va fabrikalarning maydonga kelishiga sa-bab bo'ldi, shuningdek, O'zbekistonda va shu zaminda yashovchi xalqlar o'rtasida ob'yektiv ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy hamkorlikni yuzaga keltirdi, o'zbek va rus tillarning o'zaro aloqasiga ham asos soldi.

XX asrning I yarmida o'zbek tiliga ruscha va rus tili orqali ingliz, nemis, fransuzcha-baynalminal so'zlar yoppasiga kirib kela boshladi. Bular:

1. Ijtimoiy-siyosiy so'z va terminlar: *byuro, demokratiya, dik-tatura, komitet, referendum, respublik* kabi.

2. Sanoat va qishloq xo'jaligiga oid atamalar: *industriya, metallurgiya, neft, elektr, stanok, agronom, traktor, seyalka, brigadir, irrigasiya* kabi.

3. Fan, texnikaga oid so'zlar: *akademiya, alfavit, geologiya, grammatika, gradus, kafedra, teorema, fizika, televizor* kabi.

4. Harbiy ish, jismoniy tarbiya va sportga doir atamalar: *general, kapitan, artilleriya, voleybol, futbol, finish, start* kabi.

5. Qurilish, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari: *kanal, galstuk, kostyum, konserva, pechene, stol, stul* va boshqalar.

Baynalminal so'z va atamalar:

1. Yunoncha: *dialekt, diafragma, ideya, kafedra, magistr, grammatika* kabi.

2. Lotincha: *avtor, student, ekstern, senat, ministr, respublika* kabi.

3. Nemischa: *vaxta, lager, mundir, rota, rang, balet, tufli* kabi.

4. Fransuzcha: *drop, triko, kostyum, mebel, bufet, abajur, flot, eskadra* kabi.

5. Inglizcha: *vokzal, tramvay, tort, futbol, basketbol, boks, kross* kabi.

6. Italyancha: *bas, ariya, libretto, loja, opera, bank, benzin* va boshqalar.

Chet tillardan so'z va iboralarni qabul qilish ikki usul bilan yuz beradi:

1) so'z va iboralar to'g'ridan-to'g'ri, o'z holicha, shakli o'z-gartirilmagan holda qabul qilinadi: *traktor, tramvay, radio, televizor* kabi;

2) so'z va iboralarni bir tildan boshqa tilga kalkalash usulida olinadi. Kalka – nusxa, kalkalash nusxa ko'chirish demakdir. Bunda qabul qilinuvchi tildagi biror so'z yoki iboraning ma'no va shakli qabul qiluvchi tildagi xuddi shunday ma'no yoki shakl bilan almashtiriladi. Bu bir tildagi so'zni boshqa tildagi so'zga tarjima qilishga o'xshab ko'rinadi, lekin bu oddiy tarjima emas. Masalan, *ishlab chiqarish boshqarmasi* iborasi rus tilidagi «производственное предприятие» birikmasining, *umumrivojlantiruvchi harakatlar* iborasi rus tilidagi «обшеразвивающие движения» birikmasining aynan tarjimasi emas, kalkalashtirilgan nusxasidir.

Tilda faqat so'z va iboralar emas, balki ularning ma'nolari ham kalkalash yo'li bilan bir tildan ikkinchi tilga o'tishi mumkin. Masalan, *избрать* – saylamoq, *голосовать* – ovoz bermoq oddiy leksik kalkalar bo'lsa, saylamoq (*избрать*) ma'nosida *qo'l ko'tarmoq* iborasining qo'llanishi faqat ma'no jihatidan bo'lgani uchun semantik kalkadir.

Bir tildan ikkinchi tilga so'z va iboralarni kalka usulida o'z-lashtirish to'liq yo to'liqsiz bo'lishi mumkin. Agar so'z va ibora butunligicha kalka usulida o'zlashtirilsa, to'liq kalka (*ishlab chiqarish boshqarmasi, umumrivojlantiruvchi harakatlar* kabi); qisman o'zlashtirilsa, to'liqsiz kalka deyiladi: *akt tuzmoq, kol-leksiya to'plamoq, annotatsiya yozmoq* va boshqalar.

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING CHEGARALANGAN

reja:

1. O'zbek tili leksikasida umumiste'moldagi so'zlar va chegaralangan leksika.
2. Chegaralangan leksik qatlamning ko'rinishlari:
 - a) davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika;
 - b) hududiy nuqtai nazaridan chegaralangan leksika;
 - c) ijtimoiy chegaralangan leksika;
3. Davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika:
 - a) tarixiy so'zlar (istorizmlar);
 - b) eskirgan so'zlar (arxaizmlar);
 - c) yangi so'zlar (neologizmlar).
4. Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika: dialektal leksika.
5. Ijtimoiy chegaralangan leksika:
 - a) terminologik leksika;
 - b) kasb-hunar leksikasi;
 - c) jargon va argo;
 - d) vulgarizm va varvarizmlar.
6. Emotsional-ekspressiv va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.
7. Xulosa.

Tilning, jumladan, o'zbek tilining, lug'at tarkibidagi lug'aviy birliklar miqdor jihatidan cheksizdir. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoa a'zolari lug'at tarkibidagi barcha so'zlardan barovar foydalanish imkoniyatiga ega emas. U nutq jarayonida zarur bo'lgan so'zlardagina foydalanadi. Shunga ko'ra tilning lug'at tarkibidagi jami so'zlar keng iste'moldagi so'zlar va qo'llanishi doirasi chegaranlangan so'zlarga bo'linadi.

Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning hammasi uchun tushunarli bo'lgan, ularning kundalik turmushida keng qo'llana-digan tilning asosiy lug'at fondi tarkibidagi so'zlar *umumiste'-moldagi so'zlar* deyiladi. Masalan, *osh, non, suv, havo, yer, osmon, daraxt, meva, yaxshi, yomon, kitob, qalam, bor, pul, besh, o'n, oh, voykabi*.

Ko'rinadiki, umumistemoldagi so'zlarga:

- a) kundalik muomaladagi so'zlardan tashqari, qarindoshlik bildiruvchi, kishi, jonivor, o'simliklarning nomlari va a'zolarini anglatuvchi, ishlab chiqarish qurollari, uy-joy, ro'zg'or asbob-lari, oziq-ovqat va ularning turlarini nomlovchi otlar;
- b) rang-tus, maza-ta'm, hajm-shakl, masofa anglatuvchi sifat va ravishlar;
- c) barcha tub sonlar;
- d) harakat va holat bildiruvchi tub fe'llar;
- e) bog'lovchi vositalar;
- f) his-hayajon, sharpa-tovush ifodalovchi til birliklari kiri-tiladi.

Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar faqat shu bilan chegaralan-maydi, kundalik muomalada hamma so'zlar baravar ishtirok etmaydi. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning barchasi uchun uqadar tushunarli bo'lmagan, ayrim shaxs va guruhlar tomonidan zaruriy sharoitlardagina qo'llaniladigan so'zlar shu til leksikasining *chegaralangan qatlam*ideyiladi.

Bunday so'zlarni dastlab uch yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika.
2. Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika.
3. Ijtimoiy chegaralangan leksika.

Davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika kishilarning kundalik turmushida deyarli qo'llanilmaydigan, faqat zaruriy-sharoitlardagina qo'llanadigan so'zlardir. Bunday so'zlar ham o'z xususiyatlari va qo'llanish doirasi jihatidan 3 ga bo'linadi:

1. Tarixiy so'zlar (istorizmlar).
2. Eskirgan so'zlar (arxaizmlar).
3. Yangi so'zlar (neologizmlar).

Istorizmlar. Til taraqqiyotining ma'lum bir davrida muomalada faol qo'llangan, lekin keyinchalik shu so'z ifodalagan predmet, voqea yoki hodisa o'zining hayotiy faoliyatini to'xtatgach, uni anglatgan so'z ham eskirsa, qo'llanish darajasini susaytirib, yo'qotib, tarixiy so'zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so'zlar o'zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo'llanmayotgan leksik qatlamdir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi.

Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo'-ladi.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlarga *leksik istorizmlar*deyiladi: *omoch, cho'ri, yuzboshi*'kabi.

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmay-di, zarur paytda nutqda qo'llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko'pincha izoh talab qiladi.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi so'zlar tarixiy so'zlar – leksik istorizmlardir.

So'z ma'nosi anglatgan narsa, voqea, hodisalar eskirmay, uning ma'nosida yangilanish yuz berib, oldingi ma'nosi iste'moldan chiqsa, *semantik istorizm* deyiladi. Masalan, *arbob* – *aristokrat* // *arbob* – *fan arbobi, saroy* – *podsho qarorgohi* // *sa-roy* – *san'at saroyi, vazir* – *podshoning o'rinbosari* // *vazir* – *mi-nistr, rais* – *shayxlar rahnamosi* // *rais* – *jamoat xo'jaligi boshlig'i*'kabi.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z ekvivalentiga ega bo'lmagan iboralarga *frazeologik istorizmlar* deyiladi. Masalan, *madrassa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq* holatlari hayotda mavjud bo'lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida

saqlanib qolgan.

Arxaizmlar. Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekviva-lentiga, sinonimiga ega bo'lgan so'zlarga *arxaizmlar* deyiladi: *ulus – xalq, tilmoch – tarjimon, sarf – morfologiya, nahv – sin-taksiskabi*.

Arxaizmlar ham leksik arxaizmlar, semantik arxaizmlar va frazeologik arxaizmlarga bo'linadi.

Leksik arxaizmda so'zning o'zi eskirib, uning o'rnida xuddi shu ma'noni ifodalovchi yangi so'z hosil bo'ladi. Bunda ba'zan qiziq hodisalar yuz berishi mumkin. Masalan, yaqin vaqtlar-gacha *territoriya* so'ziga nisbatan *hudud* so'zi arxaik edi, hozir, aksincha, zamon o'zgarishi bilan *hudud* so'zi faollashib, *terri-toriya* so'zi arxaiklashmoqda. Buni *rayon* va *tuman* so'zlari qiyosida ham kuzatish mumkin.

Polisemantik so'z ma'nolaridan birining eskirishiga *semantik arxaizm* deyiladi. Bunda so'z shakli eskirmaydi, balki so'z semalaridan biri eskiradi, qo'llanish doirasi torayadi: *paxta, tola, momiq* – ko'p ma'noli so'z. Lekin shulardan *momiq* so'zi-ning hozirgi til uchun paxta ma'nosi eskirgan. Bu holatni ko'p-gina polisemantik so'zlarda uchratish mumkin.

Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z sinonimiga ega bo'l-gan iboralar *frazeologik iboralar* deyiladi. Masalan, *fotiha olmoq, oq fotiha hermoq* iboralari hozirgi tildagi *ruxsat olmoq, yo'llamoq* so'z va iboralarining arxaizmidir.

Bir tomondan qaraganda, arxaizm va istorizmlar bir hodisaga o'xshab ko'rinadi, ularning o'xshashligi har ikkisining ham eskirganligidadir, lekin ular farqli. Bu farqlar quyidagicha:

1) arxaizmlar hozirda mavjud hodisalarning (*muhr – pechat* kabi), istorizmlar esa o'tmish narsa-hodisalarning atamasidir: *domla – muallim, bekat – to'xtash joyi* kabi;

2) arxaizmlarning sinonimi mavjud, istorizmlarning sinonimi yo'q;

3) arxaizmlar ham polinativ, ham uslubiy vazifa bajaradi, istorizmlar esa faqat polinativlikka ega;

4) arxaizmlarning paydo bo'lishi til taraqqiyoti bilan, isto-rizmlarning paydo bo'lishi esa jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq.

Neologizmlar. Tilda yangi paydo bo'lib, kundalik iste'molda kam qo'llanadigan, hali ommalashmagan so'zlar *neologizmlar* deyiladi. Bunday so'zlar o'zida yangilik bo'yog'ini saqlagan so'zlardir. Neologizmlar ham odatda jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti natijasida maydonga keladi. Hozirgi o'zbek tilida *mustaqillik, ozodlik, bozor iqtisodi, menejment, menejer, tad-birkor, tayyoragoh, bekat, senator, parlament, lizing, tender, brifing* kabi so'zlar yangi so'zlardir. Ulardan ba'zilari qisqa davr ichida ommalashib, neologizmlik holatini yo'qotmoqda ham.

Neologizmlar davr o'tishi bilan umumiste'moldagi so'zlarga aylanib, yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va neologizmlikdan chiqib ketadi. XX asrda jamiyatdagi

o'zgarishlar, sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyat taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan yuzlab yangi so'zlar qisqa davrda neologizmlik xususiyatini yo'qotib, tezda ommalashib ketdi. O'zbek tili taraqqiyotida hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

Tilda neologizmlarning paydo bo'lishi jamiyatning ijobiy ta-raqqiyoti natijasi bo'lib, tilning taraqqiyotiga ham sabab bo'-ladi.

Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika. Dialektal leksika. Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika o'z-bek adabiy tili tarkibidagi barcha dialekt va shevalarning adabiy til leksikasi tarkibiga kirmagan, faqat shu dialekt va shevalargagina mansub bo'lgan lug'aviy birliklardir. Demak, ma'lum adabiy til tarqalgan sathning ayrim chegaralangan hududlarida qo'llaniladigan lug'aviy birliklarga *dialektizmlar* deyiladi. Masalan, adabiy tilda narvon so'zining turli o'rinlarda (dialektlarda) *shoti, bosqich, zangi;* do'ppi so'zining *kalla-po'sh, shabpo'sh, taqiya,* ona so'zining *oyi, aya, apa, aja, ena* tarzida qo'llanishi dialektizmlardir.

O'zbek adabiy tili tarkibidagi dialektlar, ularning fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari, har tomonlama tasnifi XX asr boshlaridan to hozirgacha ko'plab o'zbek dialektolog – tilshu-noslari tomonidan mukammal o'rganilgan. O'zbek adabiy tili tarkibidagi dialektlarning xususiyatlari haqida tilshunoslikning maxsus sohasi «Dialektologiya» fani shug'ullanadi.

Shunga qaramasdan, o'zbek adabiy tilining dialektlarga, dialektlarning adabiy tilga munosabati masalasi hali ham ma'lum darajada o'z tadqiqiga muhtoj.

O'zbek tili leksikasida ijtimoiy chegaralangan qatlam. Ijtimoiy nuqtai nazardan chegaralangan qatlamga kiruvchi lug'aviy birliklar o'z-o'zidan ma'lumki, ma'lum bir tilda so'zlashadigan jamoaning barchasi uchun emas, ularning ayrim guruhlarining foydalanish imtiyozlari va nutqi uchun xoslangan so'z «to'plam» laridir. Qo'llanish doirasi jihatidan bu qatlamga kiritiladigan lug'aviy birliklarni o'ta chegaralangan qatlam ham deb atash mumkin, chunki bo' so'zlardan asosan ilm-fan, kasb-hunarning ayrim sohalari bilan shug'ullanadigan shaxslar foydalanadi. Bu qatlamdagi lug'aviy birliklar quyidagicha guruhlanadi:

- 1. Terminologik leksika.**
- 2. Kasb-hunar leksikasi.**
- 3. Jargon va varvarizmlar.**

Termin va terminologiya. O'z emotsional-ekspressiv bo'yo-g'iga ega bo'lmagan, faqat bir tushunchaning jami sifatida qo'llanadigan, ijtimoiy nuqtai nazardan chegaralangan leksik qatlamga *termin*, terminlar haqidagi fan tarmog'iga *terminologiya* deyiladi.

Termin o'z sohasida faqat bir tushunchaga teng leksik ma'nosiga ega bo'lgan lug'aviy birlik – so'zdir. Demak, terminlar aslini olganda mustaqil ma'noli so'z, lekin har qanday so'z termin bo'la olmaydi, terminlar ma'lum bitta tushunchani anglatish

ko'zda tutilgan holda so'zlar ichidan tanlab olinadi, ma'lum sohaga xoslantiriladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, so'z va termin bir-biridan farqli bu farqlar quyidagicha:

1. Terminning ma'nosi hamma vaqt tushunchaga teng keladi. So'zning ma'nosi ham tushuncha bildiradi, lekin u o'z ma'no-sidan tashqari qo'shimcha ma'noga ham ega bo'ladi. Qo'shim-cha ma'no termin uchun xos emas, bu narsa uni so'zdan farqlaydi.

2. Terminning leksik ma'nosi har vaqt tushuncha anglatadi, so'zning ma'nosi tushuncha anglatmasligi ham mumkin. Masalan, atoqli otlarning leksik ma'nosi tushunchaga asoslangan emas.

3. Terminning ma'nosi aniq tushunchaga asoslanadi, so'zda bunday bo'lishi shart emas, uning ma'nosi mavhum tushuncha asosida ham shakllanishi mumkin, masalan, olmoshlarda shunday.

4. So'z ko'pincha o'z sinonimiga ega bo'ladi, terminda bu mumkin emas. Agar terminda ham bir tushuncha ikki so'z bilan ifodalansa, bu bir paytda ikki qoshiq bilan ovqatlanishdek gap.

5. So'zda omonimlik mavjud, terminda bu mumkin emas.

6. Terminlar birikmali ham bo'lishi mumkin (*tepkilli terlama, erkin vazn, kvadrat ildiz, so'z birikmasi*kabi), bu so'zga xos emas.

7. Termin tayyor so'z vositasida shaxslar tomonidan yaratiladi, so'zning shakllanishi til taraqqiyoti bilan bog'liq.

Professionalizmlar ham termin hisoblanadi, chunki har bir kasb egasi nutqida ishlatiladigan, shu kasbning o'ziga xos atamalar shu kasbning terminidir. Lekin professionalizm da hududiy chegaralanishi ham mavjud: *qizamiq, qizilcha; ega, kesim; qo'shuv, oluv, sinus, tangens; era, formasiya* kabi.

Argo. Ma'lum soha guruhlari tomonidan qo'llanib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlarga *argo* deyiladi: pul otarchilar nutqida – *yakan*, poraxo'rlar nutqida – *qurug'i*, o'g'rilar nutqida – *loy*, yoki *tomog'ini silab qo'ymoq* – o'ldirmoq, *sotib olmoq* – o'g'irlamoq kabi. Shuningdek, *talabalar argosi, bolalar argosi, o'quvchilar argosi* kabilar ham mavjud. Masalan, talabalar argosida *Tankang kim? Sessiyani yopdingmi? Yiqilmoq*kabi so'z va iboralar qo'llaniladi.

Jargon. Jamiyatdagi tabaqalanish bo'yicha yuz beradigan terminlarga *jargon* deyiladi: *oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, xo'ja, taqsir, janob*va boshqalar.

Vulgarizm. Vulgarizm adabiy tilda ishlatilmaydigan, dag'al, qo'pol, haqorat so'z va iboralardir. Vulgarizm yunoncha oddiy xalqqa oid demakdir: *itvachcha, hayvon, eshshak, oqpadar, padar la'nat, haromi*kabi.

Varvarizm – ona tiliga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifa-tida qo'llanuvchi so'z va iboralardir. Varvarizm lotincha ajnabiy demakdir: *madam, paxan, maxan, bratan, chao, Zuli (Zulayho), Muhay (Muhayyo)*va boshqalar.

Emotsional-ekspressiv va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksi-kasi. Leksikadagi ba'zi so'zlar:

1) ayrim so'zlar bir ma'noni ifodalashdan tashqari, qo'shim-cha emosional-ekspressiv ma'noga ega bo'ladi: *bo'sh* – *lavang, latta; novcha* – *naynov, terak* kabi;

2) so'zlovchi har qanday leksik birlikni o'zi kuzatgan kom-munikativ maqsaddan (fikrni ifodali, kinoyali, ta'sirli qilish) kelib chiqib, tanlab ishlatadi. Shunga ko'ra so'zlar ma'lum nutq turi – vazifaviy uslubga xoslangan bo'ladi: *yemoq* – *tushirmoq, ichmoq* – *otmoq* kabi. So'z qo'llashning uslubi, turlari ham ko'p, bu – tilshunoslikning maxsus sahasi bo'lgan «Uslubshu-noslik»da maxsus o'rganiladi.

Nutq jarayonida so'zlovchining aytilayotgan fikrga ijobiy yo salbiy munosabatini anglatishga xoslangan leksikaga *emotsio-nal-ekspressiv leksika* deb yuritiladi.

Tillar o'zoro nutqiy aloqa jarayonida faqat fikr almashish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki borliqdagi turli vaqea va hodisalarga so'zlar orqali o'z munosabatini ham bildiradi. Lekin tildagi hamma so'zlar ham kishining muloqot jarayonidagi g'azab, nafrat, achinish, erkalash, kinoya kabi kayfiyatlarini ifodalash xususiyatga ega emas.

Ma'lumki, emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz so'zlar kishilar-ning kundalik muomalasida qo'llanuvchi so'zlar bo'lib, ular aynan shu qo'llanishda qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lmaydi: *yuz, bet; katta, kichik; chiroyli, yaxshi* kabi. Ekspressiv-emotsional bo'yoqli so'zlar esa narsa va predmet, voqea va hodisa, belgi va xususiyat, harakat va holat kabi tushun-chalarning nomini atash bilan birga shu narsa va hodisalarga so'zlovchining bahosini, turlicha munosabatini ham bildiradi. Masalan, *bet* so'zi o'rnida *oraz, chehra, turq;* *katta* so'zi o'rnida *ulkan, buyuk* so'zlarining qo'llanilishi *bet* va *katta* so'zilariga boshqacha rang, bo'yoq beradi.

Tilda ekspressiv-emotsional bo'yoq turli usullar bilan ro'yob-ga chiqarilishi mumkin:

a) fonetik usul bilan: *ko'zing* – *ko'zzing, eshak* – *eshshak; qars etmoq* – *qa-a-ars etmoq* kabi;

b) leksik-semantik usul bilan: *azamat, lohar, dildor, ketvor-gan; surbet, makkor, iflos, benomus* kabi;

1) metaforik yo'l bilan: *eshak, tulki, bo'ri, xo'roz* kabi.

2) morfologik yo'l bilan: *yaxshigina, bo'taloqqinam, bolajon, asalim* kabi;

3) sintatik usul bilan: *tog'-tog' (xirmon), yuksak-yuksak (bi-nolar)* va boshqalar.

FRAZELOGIYA

reja:

1. Frazelogiya haqida umumiy ma'lumot.

2. So'zlarning erkin va turg'un uyushmalari:

a) to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar;

- b) ko'chma ma'noli turg'un uyushmalar.
- 3. Frazelogizmlarning asosiy tiplari:
 - a) frazeologik butunliklar;
 - b) frazeologiya chatishmalar;
 - c) frazeologik qo'shilmalar.
- 4. Frazelogik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonomiya va frazeologik omonimiya.
- 5. Frazelogizmlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
- 6. Idiomalar.
- 7. Xulosa.

Frazeologiya *fraza* va *logos* so'zlaridan olingan bo'lib, fraza – «*ibora*», logos – «*bilim*» ma'nosini bildiradi. Ko'rinadiki, frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir.

Iboralar – so'z uyushmalari – erkin va turg'un uyushmalar bo'lib, frazeologiyada ular ma'no va tuzilish jihatdan tekshirila-di. Tuzilishi jihatidan so'zlar uyushmasi erkin va turg'un bo'ladi, har ikkala tip ham yo so'z birikmasi, yo gapga teng bo'ladi. Lekin ma'no xususiyatiga ko'ra ularning har ikkalasi o'z xususiyatlariga ega.

So'zlarning erkin va turg'un uyushmalari. Tilda har bir so'z o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Bu xususiyatni so'z birikmalariga nisbatan ham aytish mumkin. So'zlar va so'z birikmalari ma'lum usullar bilan birikadi. Bu grammatik abstraksiyaning natijasidir.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik ma'noli so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan munosabatga kirishishi va atash vazifasini bajarishi asosida hosil bo'lgan sintaktik qurilmaga *so'z birikmasi* deyiladi. Ta'rifdan ko'rinadiki, so'z birikmasida grammatikaning yordami bilan leksik ma'nolar munosabati vujudga keladi va shu yo'l bilan murakkab tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan, *qizil* va *qalam* so'zlari tobelanish orqali o'zaro birikib, *qizil qalam* tipidagi murakkab tushuncha hosil bo'ladi.

So'zlar ko'pincha o'z mustaqilligini saqlagan holda birikib keladi. So'zlarning bunday birikishi nutq jarayonining o'zida sodir bo'ladi va ular *erkin birikmalar* deb yuritiladi.

Masalan, *Bahorning mayin shabadasi daraxt shoxlarini tebratdi* gapida *bahorning shabadasi, mayin shabada, daraxt shoxlari, shoxlarini tebratmoq, shabadasi tebratdi* kabi beshta erkin so'z birikmasi mavjud. So'zlarning bunday erkin birikmalar hosil qilish qoidalari «Sintaksis»ning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Tilda shunday birikmalar ham borki, ularning tarkibidagi so'zlar o'rtasida semantik-grammatik aloqa sezilmaydi, chunki bunday birikmalar aynan shu nutq jarayonida yaratilmay, tilda avvaldandan bir butun holda mavjud bo'ladi. Ular shu

holatda tarkibidagi so'zlarning mavjud ma'no markaziga birlashadi va so'zga teng bir ma'no anglatishga xoslanadi. Shuning uchun ular so'zlarning turg'un birikmalari deb nomlanadi. Masalan, *Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar* gapida «bir yoqadan bosh chiqarmoq» birikmasi turg'un birikmadir, chunki uning tarkibidagi so'zlar yaxlit holda murakkab birikmani tashkil qilgan. Shunga ko'ra bu birikma, tarkibidagi so'zlarning miqdoridan qat'iy nazar, bir leksik tushunchani anglatgan va gapda ham bir sintatik bo'lak vazifasida kelgan.

So'zlarning turg'un birikmalari tilshunoslikning alohida sohasi - frazeologiyani tekshirish ob'yekti.

So'zlarning turg'un birikmasi hamma vaqt so'z birikmasiga emas, balki gapga teng ham bo'lishi mumkin: *Sichqonning ini ming tanga bo'ladi, Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi* kabi. Ko'rinadiki, faqat so'zlar birikmasi emas, balki gaplar ham erkin va turg'un bo'lar ekan. Shuning uchun turg'un birikmalarni birikmaga teng turg'un uyushmalar va gapga teng turg'un uyushmalar tarzida ikkiga ajratish mumkin. Turg'un uyushmalar atamasining ma'nosi turg'un so'z birikmalarining ma'nosidan keng. Chunki turg'un uyushmalarga *ëg' tushsa yalaguday, qovog'idan qor ëg'adi* kabi qo'shilmalar bilan birga *kuchiga kuch qo'shildi, zangori kema kapitani, viloyat paxta banki, Termiz davlat universiteti* kabi turg'un uyushmalar ham kiradi.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ularning barchasi turg'un uyushmalar, lekin ularning ma'nolarida farq bor: bu uyushmalarining ba'zilari o'z ma'nolarida bo'lsa, ba'zilari ko'chma ma'nolidir. Shuning uchun bunday uyushmalar ma'no va birligiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

1. To'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar.

2. Ko'chma ma'noli turg'un uyushmalar.

To'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar. Turg'un uyushmalarining bu turi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning birikuvidan tuzilib, bir sintaktik-semantik butunlikni, yaxlitlikni tashkil qilgan lug'aviy birliklardir. Bu uyushmalarining xarakterli tomoni shundaki, uyushma tarkibidagi komponentlar o'zaro bog'lanib, bir butunlikni tashkil qiladi va nominativ ma'no ifodalovchi turg'un birikmalardan iborat bo'ladi.

To'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar sirasiga qo'shma so'zlar, leksikalizatsiyalashgan so'zlar va birikma atamalarni kiritish mumkin.

1. Qo'shma so'zlar. Ma'lumki, so'z yasash turlaridan biri yasamalarni leksik-sintaktik usul bilan hosil qilishdir. Bunda yangi so'zning hosil bo'lishi so'z birikmasi va ba'zan ayrim gap-lardagi elementlarning tamoman qo'shilib ketib, bir butunlik hosil qilishidir: *u qadar, o'zi bilarmon, bari bir, bu kunva b.*

Bu kabi so'zlarni to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalar qatoriga kiritilishining sababi, ular tashqi tomondan bog'li – turg'un, barqaror xususiyatga ega bo'ladi. Masalan,

temir yo'l, devor soat kabi erkin so'z birikmalaridan hosil bo'lgan qo'shma so'zlarning semantikasida torayish, maxsuslanish yuz berib, nominativ ma'no hosil bo'lgan. Lekin ularning tilning tayyor materiali bo'lishi, qurilish va semantik vazifa jihatidan ayrim so'z bilan yaqinligi ularni turg'un birikma tusiga kiritadi. (Bu haqda «So'z yasalishi» bahsida).

2. Leksikalizatsiyalashgan so'zlar. Leksikalizasiya so'zi grek-cha *lexikos* – «*lug'aviy*» so'zi bilan aloqador bo'lib, nemischa *lexikolislezen* – «*bir so'zga aylanmoq*» demakdir. Leksikalizat-siyalashgan so'zlar ma'nosi tarkibidagi komponentlar ma'no-sining umumiy yig'indisidan iborat bo'lgan, bir leksekaga ayla-nish darajasidagi to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalardir.

Leksik-sintaktik usul garchi so'z yasashning maxsus usul-laridan bo'lmasa ham, unga juda yaqin turadigan tiplardan biridir. Bunda yangi so'zning paydo bo'lishi so'z birikmasining, ayrim gaplarning, undagi elementlarning tamoman qo'shilib ketib bir butunlik hosil qilishidir. Masalan, *hol buki* (aslida ega va kesim), *o'zi bilarmon, bari bir, u qadar* kabi. Ko'rinadiki, bunday yasash frazeologiya bilan ham bog'liq bo'lib, yangi so'z yasash so'z birikmalari va gaplarni leksikalizasiya qilish natijasida paydo bo'ladi. Bunday birikmalar tarkibidagi komponent-lar ma'nosi ko'chma bo'lmaganligi uchun frazeologiya emas, balki yangi yasalmanni hosil qiladi. Bunday leksik yasalmalar ham hali to'la birikmagan holda to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalarni tashkil qiladi.

3. Birikma atamalar. To'g'ri ma'noli turg'un iboralarning yana bir turi birikma atamalardir. Iboralarning bu turini birikma atamalar deb nomlanishiga sabab ularning ma'lum darajada termin (istiloh)larga yaqinligidir, sababi birikma atamalar ham terminlar kabi birikma holda bir tushuncha ifodalaydi.

Birikma atamalardan kelib chiqadigan umumiy tushuncha uning tarkibidagi komponentlar ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, unda kesim bo'lak tushuncha mohiyatini bildiradi va tobe bo'lak uning nimaga xoslanganligini belgilaydi yoki ma'no mo'ljallangan tushuncha hajmigacha torayib boradi. Masalan, *agrar masala, ishlab chiqarish boshqarmasi, «O'zbekiston ovo-zi», «Xalq so'zi»* kabi iboralarda birikma atamasining ma'no mohiyati hokim bo'lakda bo'lib, tobe bo'laklar esa uning nima-ga taalluqli ekanligini ko'rsatib keladi.

Birikma atamalar ma'nosi qanday xarakterda bo'lishidan qat'i nazar, nomlovchi – nominativ xususiyatini o'zida saqlaydi, bu uning ma'nosi har ikkala bo'lak ma'nosi sintezidan kelib chiqishini ko'rsatadi.

Birikma atamalar asosan ot turkumida bo'ladi, bu ularning terminlar bilan aloqasini yaqqolroq ko'rsatadi: *aylanma hara-kat, kvadrat tenglama, tepkili terlama, tutuq belgisi* kabi. Lekin bu ularning so'z turkumlariga nisbatan chegaralanganligini ko'rsatmaydi. Ular sifat (*nafsi buzuv, arzon-garov*), fe'l (*aybga buyurmaslik, aksiga olmoq*), ravishlarda (*aks holda*) ham uchraydi.

Turli tashkilot, korxona, muassasa, matbuot mahsulotlariga berilgan nomlar ham turg'un uyushmani tashkil qilsa, birikma atamalar sirasiga kiradi.

Ko'chma ma'noli turg'un iboralar. Ikki yoki undan ortiq mus-taqil so'zlardan tarkib topgan, tarkibidagi bo'laklarning ma'nosi qisman yo butunligicha ko'chgan, majoziy ma'noda qo'llana-digan, lekin birikma butunligicha bir nominativ ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarga ko'chma ma'noli turg'un iboralar deyiladi. Ko'rinadiki, to'g'ri ma'noli turg'un iboralar bilan ko'chma ma'noli turg'un iboralarning farqi ularning birikish usulida emas, balki ma'no xususiyatidadir: ularning birida ma'no turg'un, ikkinchisida ko'chgan bo'ladi. Qiyoslang: *demokratik hokimiyat* va *bilim bulog'i*. Misollarning birinchisida har ikkila bo'lak o'z ma'nosida, ikkinchisida esa *bulog'* so'zining ma'nosi ko'chgan, majoziy. Demak, birinchi uyushma to'g'ri ma'noli turg'un uyushma, ikkinchisi esa ko'chma ma'noli turg'un uyushmadir. Bu uyushmalar uchun tarkibining barqa-rorligi, nutqda yaxlitligicha qo'llanishi va tilda tayyor holda mavjudligi ularning umumlashtiruvchi belgisi bo'lsa, tarkibidagi qismlarda obrazlilikning mavjud yoki mavjud emasligi, semantik qayta shakllangan yoki shakllanmaganligi ularning farqli belgi-laridir. Yuqoridagi misollarning birinchisida dastlabki uch belgi mavjud, keyingi ikki belgi mavjud emas; ikkinchi misolda dastlabki to'rt belgi bor, oxirgisi yo'q. *Og'zi qulog'ida* uyush-masida esa barcha belgilar mavjuddir.

Ana shu farqlovchi belgilarga ko'ra ko'chma ma'noli turg'un uyushmalarning ikki turini ko'rsatish mumkin: *parafrazalar* va *frazologizmlar*.

PARAFRAZALAR

Parafraza — ko'chma ma'noli turg'un iboralarning bir turi. Ibora tartibidagi komponentlardan biri yoki barchasi ko'chma ma'noda bo'lib, iboraning ma'nosi ularning sintezidan tarkib topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birliklar *parafrazalar* deyiladi. Ular birikmalarda sodir bo'luvchi semantik ta-raqqiyot natijasida yuzaga keladi. Masalan, *dala malikasi* iborasidagi *malika* so'zining ma'nosi ko'chgan, semantikasi o'zgargan bo'lib, undagi jozibadorlik, go'zallik *makkajo'xoriga* ko'chirilgan.

Parafrazalar quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turg'un iboralardan farqlanib turadi:

1. Parafrazalar til hodisasidir, chunki parafraza maqomi berilgan turg'un uyushmalar nutq jarayonida tug'ilmaydi, tilda avvaldan tayyor holda mavjud bo'ladi: *she'riyat sultoni*, *hayot bulog'i*, *ozodlik oroli*, *kunchiqar mamlakat* kabi.

2. Parafrazalar tarkibida nechta so'z bo'lishidan qat'iy nazar, faqat bir tushunchani bildiruvchi ma'noga ega bo'ladi. Masalan, *zangori kema kapitani* parafrazasi qo'sh aniqlovchili mu-rakkab birikma bo'lishiga qaramasdan, paxta terish mashina-sini «boshqaruvchi», «haydovchi» ma'nosinigina anglatadi.

3. Parafrazalar ma'nosi garchi bir tushunchaga asoslansa ham, unda qo'shimcha ma'nolar ham bo'lishi mumkin. Yuqoridagi *dala malikasi* parafrazasi «makkajo'xori» ma'nosini bildi-rishi bilan uning go'zalligiga ham ishora qiladi.

4. Parafrazalar o'z denotatini tasvirlash xususiyatiga ega: *bilim bulog'i* – kitob, *mo'yqalam sohibi* – rassom, *ilm zahmat-kashlari* – olimlar, *iqtisodiyotning qon tomiri* – temir yo'l, *asr mo'jizasi* – Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li, *dehqonchilikning qon tomiri* – ariq va kanallar kabi.

Parafrazalar turkumlar jihatidan asosan otlarda, ba'zan fe'llarda uchraydi: *qalam ahli, hayot ko'zgusi, osoyishtalik posbonlari; amalga minmoq, andishaga bormoq* kabi.

FRAZELOGIZMLAR

Ko'chma ma'noli turg'un iboralarning yana bir turi *frazeo-logizmlardir*. Tarkibidagi qismlar o'rtasida sintaktik aloqa mavjud bo'lmay, tilda ilgari bir sintaktik bo'lak yoki gap sifatida barqaror mavjud bo'lgan, tarkibidagi bo'laklarning ma'nosi qisman yoki butunligicha ko'chgan holda qo'llanadigan, leksik-semantik jihatdan bir lug'aviy birlikka teng keladigan ko'chma ma'noli turg'un iboralarga *frazelogizmlar* deyiladi. Masalan, *og'zi qulog'idava boshi osmonga yetdi* birikma va gap holidagi frazeologizmlar yuqoridagi ta'rifga ko'ra tahlil qilinsa, ularning har ikkilasida:

- 1) ibora tarkibidagi bo'laklar o'rtasida sintaktik aloqa yo'q;
- 2) ma'no butunligicha ko'chgan;
- 3) gapga teng ibora;
- 4) bir lug'aviy birlik (xursand, mamnun);
- 5) doimiy barqaror til birligi holati namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikning bu sohali XX asrning 60-yillaridan boshlab, rus va o'zbek tilshunosligida keng tadqiq qilib kelinmoqda. O'zbek tilshunosligida ham bu sahada yirik-yirik ilmiy tadqiqot ishlari yaratilgan, monografiyalar yozilgan va lug'atlar tuzilgan. Shunga qaramay, bu soha ayrim tomonlari bilan munozara-ligicha qolib kelmoqda. Bular:

1. Avvalo, termin haqida. Leksikologik adabiyotlarda bu haq-da *frazelogiya, frazeologizm, frazema* atamalari mavjud bo'lib, ularning har biridan o'z o'rnida foydalanilmayapti. Aslida, «frazelogiya» – tilshunoslikning frazeologik birliklar haqida ta'limot beruvchi maxsus sohasi, «frazelogizm» – frazeologik iboralarning jami, «frazema» – bir lug'aviy birlikka teng ibora;

2. Frazelogizmlar semantik hodisa ekanligi hisobga olinib, ularning turg'un birikma ekanligi inkor qilinmoqda, bunda ular frazeologizmlar tarkibidagi ayrim so'zlarning o'rnini almashti-rish yoki ularning o'rniga boshqa so'z qo'yish

mumkinligini na-zarda tutmoqda;

3. Frazelogizmlarni lug'aviy birlik sifatida ularning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini aniqlash bilan chegarala-nishmoqda.

Shunday fikrlar berilishiga qaramasdan, frazeologizmlar yax-lit bor ma'no ifodalaydigan so'z birikmasi yoki predikativ qo'shilma qolipidagi til birligidir. Yaxlit bir ma'no berishiga ko'ra u so'zga o'xshaydi ham, frazeologizm sub'yektning obyektga munosabatini bildirganligi va majoziyligi bilan so'zdan farq qiladi ham. Lekin, baribir, tilda bir lug'aviy birlik sifatida qabul qilinadi. Masalan, *qo'y og'zidan cho'p olmagan* frazeo-logizmi yuvosh so'ziga teng.

Frazeologizmlar so'zlar birligidan tarkib topgan birikma yoki predikativ qo'shilma qolipli bo'lsa ham, nutq jarayonida birikma yoki predikativ qo'shilma kabi yuzaga kelmaydi, balki tilda tayyor lug'aviy birlik sifatida mavjudligi holda nutq uchun shun-dayligicha tanlanadi. Chunki ular nutq birligi emas, til birligidir.

Frazeologizmlar so'zlar kabi shakl va ma'no butunligicha ega, chunki so'zlar tovushlardan tarkib topgani kabi, frazemalar ham so'zlardan tarkib topadi: *ko'ngli bo'sh* – rahmdil, *boshi osmonga yetdi* – xursand kabi. Lekin frazemalar tarkibidagi so'zlar o'z ma'no mustaqilligiga ega emas. Umumiy ma'no ibora tarkibidagi so'zlar yig'indisining ko'chma ma'no-sidan kelib chiqadi. Shuning uchun birikma tarkibidagi bir nechta so'z butunligicha gapda bir sintaktik bo'lak vazifasida keladi: *Ko'z ochib yumguncha borib keldi* gapida *ko'z ochib yumgun-cha* butunligicha holdir.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi, shu bilan u oddiy leksik ma'noli so'zlardan farqlanadi: *xufiya* – yeng uchi-da, *xursand* – og'zi qulog'ida kabi. Bunday ma'nolar turlicha yuz beradi:

- 1) ibora tarkibidagi so'zlardan biri orqali: *achchiq gap, gap-ning tuzi* kabi;
- 2) komponentlarning umumiy ma'nosi asosida: *og'zi qulo-g'ida, tili tutildi* kabi;
- 3) tarkibidagi komponentlarning ma'nolariga aloqasiz holda: *yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil siqmaydi* kabi va b.

Frazeologizmlarning ana shu sintaktik-semantik xususiyat-larini hisobga olgan holda ularni uchga ajratish mumkin:

1. Frazelogik butunliklar.
2. Frazelogik chatishmalar.
3. Frazelogik qo'shilmalar.

Frazeologik butunliklar. Tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq, shularga asoslangan umumlashtiruvchi ko'chma ma'noli turg'un iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi. Misol-lar: *Hali nima bo'ladi, nima yo'q, to'ydan oldin nog'ora chala-veradi bular* (H.Hakimzoda). *Hali ham ko'chalar yoq` tushsa yalaguday* (G'.G'ulom.).

Frazeologik butunlikning ma'no xususiyatlari bir uyushmaning to'g'ri va ko'chma

ma'nolarda qo'llanishida yanada yaqqolroq ko'rinadi:

– *Afandi! Sira og'zingizni ochmadingiz-a?*

– *Og'iz ochish bundan kam bo'ladimi?* – *dedi afandi. – Esnay-verib, og'zimning yirtilishiga sal qoldi-ku!* («Afandi latifalari» dan).

Ko'pgina frazeologik butunliklarda ularning umumiy ma'nosi-ni tarkibidagi komponentlarning konkret, to'g'ri ma'nolari bevosita ko'rsatib turmaydi. Bu turli sabablarga ko'ra yuz beradi:

1) frazeologik butunlik o'zi yaratilgan sohadan boshqa soha-ga ko'chirilganda: *mum tishlamoq* iborasi dastlab kasblarga xos ibora bo'lib, keyinchalik ma'nosi kengayib, «gapirmaslik» ma'nosida qo'llana boshlagan;

2) frazeologik butunliklar asosida mubolag'a, majoz bo'lgan-da: *o'zi ham qirq qozonning qulog'ini tishlaydi* (jonli so'zla-shuvdan);

3) frazeologik butunliklar turli ruhiy holatni, abstrakt tushun-chalarni ifodalaganda: *qovog'idan qor yog'moq, fig'oni falakka chiqmoq* kabi.

Frazeologik chatishmalar. Iboradan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolaridan kelib chiqmaydigan, ular orasida patensial bog'lanish mavjud bo'lmaydigan ko'chma ma'noli turg'un iboralarga frazeo

logik chatishmalar deyiladi: *to'nini teskari kiymoq, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq, o'pkasini qo'ltiq'lamoq* kabi.

Bunday iboralar ma'no jihatidan frazeologik butunliklarga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo'ladi. Frazeologik chatish-mada ibora ma'nosi bilan ibora tarkibida so'zlar ma'nosi bir-biridan uzoqlashgan, hatto unga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Quyidagi misolga e'tibor bering: *«Boshni olib chiqib ke-tish» qanday fojealar, qanday ko'rgiliklarning natijasi bo'lgan-ligini hozirgi odamlar esdan chiqargan, yoshlarga esa hatto kulgili tuyilishi mumkin: chiqib ketgan odam boshini qo'yib ketarmidi?* (A. Qahhor).

Frazeologik chatishmalarni bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish mumkin bo'lmaydi, bir tildagi chatishma-ning ikkinchi tilda xuddi shunday ma'no beradigan ekviva-lenti(muqobili)ni qidirishga to'g'ri keladi, shundagini tarjima to'g'ri chiqadi. Shuning o'zi frazeologik chatishmaning xususi-yatini belgilovchi asosiy o'lchovdir. Haqiqatdan ham, *«tarvuzi qo'ltig'idan tushdi», «boshi osmonga yetdi», «otdan tushsa ham, egardan tushmaydi»* kabi frazeologik chatishmalarni iboralar tarkibidagi so'zlardan kelib chiqib tarjima qilinsa, mazmunan iboradan ko'zda tutilgan maqsadga erishilmaydi.

Anglashiladiki, frazeologik butunliklar bilan frazeologik chatishmalar o'rtasida ma'lum umumiylik bor, biroq ularni bir-biri-dan farqlovchi belgilar ham mavjud. Bu farqlar quyidagicha:

1. Frazeologik chatishmalarni ma'no jihatidan bir so'zga teng desa bo'ladi, frazeologik butunliklarda esa ma'no to'g'ridan-to'g'ri bir so'zga teng deyish qiyin

unga potensial ekvivalent (muqobil) bo'la oladi.

2. Frazelogik chatishmada iboraning ma'nosi komponent-larning ma'nolariga bog'liq emas, ulardan kelib chiqmaydi, frazeologik butunliklarda esa iboraning ma'nosi komponent-larga xos ma'nolarning potensial sintezidan iborat.

3. Frazelogik chatishmada iboraning ma'nosini chatishma tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlab bo'lmaydi, frazeologik butunlikda esa mumkin.

4. Frazelogik chatishmada ibora tarkibidagi so'zlar o'z lek-sik ma'nolarini saqlamaydi, frazeologik butunlikda esa ular o'z ma'nolarini qisman bo'lsa-da saqlab qoladi.

5. Frazelogik chatishmada ibora tarkibidagi komponentlar orasida grammatik aloqa «jonli» emas, frazeologik butunliklar komponentlari orasida esa qisman «jonli» sintaktik aloqa mavjud.

Bu farqlar ularni bir-biridan ajratish uchun xizmat qiladi.

Frazelogik qo'shilmalar. Polisemiya haqida gap borganda ta'kidlab o'tildiki, ko'p ma'noli so'zlar nutqdan (kontekstdan) tashqarida faqat asosiy ma'nonigina ifodalab, uning boshqa – qo'shimcha ma'nolarini aniqlab bo'lmaydi. Polisemantik so'zlarning ma'nosi o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni qurshagan so'zlarga bog'liq. Bu, ayniqsa, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlashda yaqqol sezilib turadi, o'z navbatida, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari erkin va bog'li bo'lishini ham ko'rsatadi.

So'zdan bevosita anglashuvchi ma'no *erkin ma'no*, so'zlar-ning uyushib kelishi natijasida reallashib keladigan ma'no *bog'li ma'no* deyiladi. So'zlarning uyushib kelishi natijasida hosil bo'ladigan bunday ko'chma ma'noga *frazelogik bog'li ma'no* ham deb ataladi.

Frazelogik bog'li ma'noga ega bo'lgan so'zning nutqdagi mavjud turi uyushmalarda turlicha bo'ladi. Masalan, *tuz* so'zi alohida olinganda osh tuzini anglatga, *gapning tuzi* uyushma-sida «ash», «mag'z» ma'nolarini bildiradi. Bu ma'nolar butun uyushmadan kelib chiqadi, chunki uyushma tarkibidagi komponentlardan birining ko'chma ma'noda kelishi bunga sabab bo'ladi. Bu o'rinda frazeologik birlikning hosil bo'lishiga asos uyushma tarkibidagi ko'chma ma'no – so'z bo'lsa ham, uyushma tarkibidagi komponentlardan biri ko'chma ma'noning kelib chiqishiga manba bo'ladi, ikkinchisi ma'noning reallashuvi uchun ma'lum sharoit yaratadi.

Komponentlaridan birining ko'chma ma'nosiga asoslanadigan va komponentlariga xos mustaqil ma'no markazlarini saqlab qoladigan uyushmalar *frazelogik qo'shilmalar* deyiladi. Masa-lan, *aqli bor chaynaydi gapning tuzini* («Folklor»dan).

Bir so'zning to'g'ri ma'nosi bilan iboradagi bog'li ma'nosi quyidagi matnda yanada yaqqolroq ko'rinadi: *Bog'ning guli shu kunlarda haqiqatan ham bog'ning*

guli bo'lib turipti-da! Aniqlik, *gul*/so'zi birinchisida o'z, ikkinchisida ko'chma ma'noda, shu-ning uchun ikkinchi ibora frazeologik qo'shilmaga aylangan (bog'ning guli). Yana misollar: *uyning eshigi – baxt eshigi; nordon-nordon mevalar – nordon-nordon gaplarva b.*

Frazeologik qo'shilmalar tarkibidagi komponentlar ko'pincha aniqlovchi-aniglanmish munosabatida bo'ladi: *g'alabaning kali-ti, yigitlarning guli, og'ir yigit, temir irodakabi.*

Frazeologik qo'shilmalar tarkibidagi komponentlarning ma'no mustaqilligi yo'qola borishi jihatidan ma'lum darajada frazeologik butunliklarga o'xshaydi, lekin ular ayrim xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi:

1. Frazeologik qo'shilmaning ma'nosi ibora tarkibidagi ko'chma ma'noli bo'lak ma'nosiga tayanadi, frazeologik butunlik ma'nosi ibora tarkibidagi so'z ma'nolarining yig'indisidan kelib chiqadi.

2. Agar ibora tarkibidagi bo'laklardan faqat bittasining ma'nosi ko'chgan bo'lsa, ularning frazeologik qo'shilma yoki frazeologik butunlik ekanligi komponentlar ma'nolarining qay darajada sintezlanganiga bog'liq. Masalan, *qattiq gap* (frazeologik qo'shilma) iborasiga nisbatan *qattiq qo'l* (frazeologik butunlik) iborasida ma'no sintezlashuvi kuchli.

3. Ibora tarkibi ikki so'zdan ortiq bo'lsa, frazeologik butunlik bo'ladi, chunki frazeologik qo'shilmalarda bunday holat kam uchraydi.

4. Frazeologik butunlikda ibora bir sintaktik bo'lakni (*ochiq qo'l yigit* – aniqlovchi-aniglanmish), frazeologik qo'shilmada esa ikki bo'lakni (*ochiq gap – shu gapida ochiq* – aniqlovchi, *gap* – aniglanmish) tashkil qiladi.

Frazeologik polisemiya, (sinonimiya, omonimiya antonimiya). Frazeologizmlar ham lug'aviy birlik sifatida ko'p ma'nolilik xususiyatiga va o'z sinonim, omonim, antonimlariga ega:

1. Frazeologizmlar o'zi biror birikma yoki gapning hosilasi – ko'chma ma'noda qo'llangan holati bo'lishiga qaramay, yana semantik taraqqiy etishi va ko'p ma'nolilikni shakllantirishi mumkin. Masalan, *bosh ko'tarmoq* frazeması: 1) sog'aymoq, 2) qaramoq, 3) qo'zg'olon qilmoq; *jonini olmoq* frazeması esa: 1) o'ldirmoq, 2) ruhan ezmoq, 3) azoblamoq ma'nolarini bildi-radi.

2. Frazeologik sinonimlar: *joni xalqumiga keldi, esi chiqib ketdi; toqati toq bo'ldi, sabr kosasi to'ldi; terisiga sig'madi, boshi osmonga yetdi*kabi.

3. Frazeologik antonimlar: *istarasi issiq – so'xtasi sovuq; ko'klarga ko'tarmoq – yerga urmoq; qo'li uzun – qo'li qisqa; ko'ngli oq – ko'ngli qora*kabi.

4. Frazeologik omonimlar: *ustidan chiqdi* I – biror voqea-hodisaning ustiga borib qolmoq va *ustidan chiqdi* II – bajardi; *ko'z yumdi* I – voz kechdi, *ko'z yumdi* II – ko'rib ko'rmaganga olmoq, *ko'z yumdi* III – o'ldi kabi.

Frazeologizmlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Frazeologizmlar faqat ma'no

xususiyatlariga ko'ra emas, balki o'zlarining gram-matik qurilishi mohiyatiga ko'ra ham o'zaro farqlanadilar. Masalan, ma'lum bir matnni sintaktik tahlil qilishda, frazeologik qo'shilmalarning komponentlarini sintaktik bo'laklar sifatida umumiy tahlilga bo'ysindirish mumkin, biroq frazeologik butun-lik va frazeologik chatishmalar haqida gap borganda, bunday deyish qiyin. Bu ularning tarkibidagi qismlarning qay darajada bitishib, ajralmas bo'laklarga aylanib qolgan-qolmaganligiga bog'liq. Shu jihatdan, frazeologizmlarning grammatik qurilishi – tuzilishiga ko'ra xususiyatlarini alohida o'rganish ahamiyatsiz emas, aksincha, ularni tiplarga ajratishda, mohiyatini ochib berishda katta imkon yaratadi.

Shunga ko'ra frazeologizmlarning tuzilishini quyidagicha tas-virlash mumkin:

1. Frazeologizmlarda sintaktik birikishning hamma turlari o'z aksini topgan, ularda birikmaga teng qurilishli iboralar ham, gapga teng qurilishli iboralar ham mavjud.

2. Frazeologizmlar, ayni bir paytning o'zida, ham birikmaga teng, ham gapga teng shaklga kira olishi mumkin: *ko'ngilni ko'tarmoq – ko'ngli ko'tarildi, ochiq ko'ngil – ko'ngli ochiq*kabi.

3. Frazeologizmlarda birikma yig'iq va yoyiq bo'ladi, chunki frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar ikkitadan ortiq (yoyiq) bo'li-shi ham mumkin: *tosh yurak, yerga qaratmoq*(yig'iq), *gapini og'zidan olmoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq*(yoyiq) kabi.

4. Birikmaga teng frazeologizmlarning ko'pi ikkinchi darajali bo'laklar munosabatidan tuziladi: *jon qulog'i bilan eshitmoq, mendan ketguncha, egasiga yetguncha*kabi.

5. Gapga teng qurilishli frazeologizmlarni aniqlashda, odat-dagi mustaqil ega-kesimlik munosabati mavjud yo mavjud emasligiga amal qilish kerak. Shuning uchun *«og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatmoq»* kabi iboralar bir butun holda grammatik mohiyatga ega bo'lgani sabab gapga emas, birik-maga tengdir.

5. Frazeologizmlarda qo'shma gapli, ko'chirma qo'shma gapli iboralar ham mavjud: *Qushbegi bilan shovla yemaydi, tirnog'i kuyadi; Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit*kabi.

Demak, frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida faqat leksik xususiyatlarni emas, balki grammatik xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan murakkab til birligidir.

Idiomalar. Idioma so'zi grekcha «o'ziga xos», «o'z xususiyatli» degan ma'noga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra idiomalar ham frazeologizmlar va *«leksikalizatsiyalashgan»* so'zlarning bir ko'rinishidir. Shuning uchun bo'lsa kerak idiomalar haqida gap berganda, ularni frazeologizmlarning frazeologik chatishmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik qo'shilmalar bilan birga to'rtinchi turi ham deb, ulardan boshqa alohida til birligi ham deb baho berilmaydi. Bunga sabab idiomalar ko'chma ma'no-lilik jihatidan frazeologizmlarga o'xshasa

ham, ba'zan ularning bunday ma'noni uyushma tarzida emas, balki bir so'z doirasida ifodalashida ham bo'lsa kerak.

Ko'rinadiki, idioma termini ayrim so'zni ham, so'zlar uyush-masini ham o'z ichiga oladi. Chunki idioma terminining ma'no-sini frazeologik chatishmalar doirasi bilan chegaralash mum-kin, lekin shu tasnifda ko'chma ma'nosi tarkibidagi faqat bir so'zga asoslangan frazeologik qo'shilmalarni hisobga olinsa, idiomalarni yana turg'un uyushmalardan yakka so'zga tomon tortadi.

Umuman, idiomalar, bir tomondan, ma'no taraqqiyotiga ko'ra, frazeologik chatishmalarga o'xshab ketsa, ikkinchi tomon-dan, bir so'zning ma'no taraqqiyotiga asoslanishi jihatidan frazeologik qo'shilmalarga o'xshab ketadi.

Ko'chma ma'nosi dastlabki ko'chma ma'nosidan uzoqlashib, ular bilan omonimlik darajasiga yetgan yoki turg'un ma'noda qo'llanilishini deyarli yo'qotib, ko'chma ma'nodagina ishlatadi-gan so'zlar *idiomatik so'zlar* deyiladi.

Demak, idiomatik so'zlar so'zlarning omonimik holatidan yo turli sabablar orqali konkret ma'noning mavhumlashishidan kelib chiqadi.

Misollar: *qovurmoq*: 1) piyozni qovurmoq, 2) urushmoq; *lat-ta*: 1) materiya, 2) bo'shang; *shayton*: 1) diniy farishta, 2) sho'x, ayyor shaxs; *terlamoq*: 1) ishlab, jismonan, 2) tanqid-dan, tanbehdan va b.

Bir so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishiga ko'ra frazeo-logik qushilmalar bilan idiomalar bir-biriga o'xshaydi, lekin ma'no ko'chishi ularning har birida har xil kechadi. Shu sababli ular bir-biridan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar:

1. Idiomatik so'zda ko'chma ma'no bir so'zning o'ziga bog'liq bo'ladi: *Ha, bu gaping joyida. Kecha yig'ilishda rosa tuzlashdi* kabi. Frazeologik qo'shilmada ko'chma ma'no iboradagi har ikki so'zga bog'liq bo'ladi: *Sizga aytadigan ochiq gapim – shu.*

2. Idiomatik so'zlarda dastlabki leksik ma'no unutiladi, dast-labki ma'no bilan idiomatik ma'no o'rtasidagi aloqa uzilish darajasiga keladi: *Bu gal jinday yon berdi, mendan zig'ircha ham yaxshilik kutma* kabi. Bu jihatdan idiomalar qisman frazeologik butunlikka ham o'xshab ketadi: *otday bo'lib ketdi* kabi. Lekin farq shundaki, bu iboradagi *«otday»* so'zini idioma sifatida iboradan ajratib bo'lmaydi. Frazeologik qo'shilmalar odatda bir so'zning ikki ma'nosi – to'g'ri va ko'chma ma'no-lariga asoslanadi.

3. Idiomatik so'zlarning ma'no taraqqiyoti so'zlarni omonimlik darajasiga olib keladi: *latta* – materiya, *latta* – bo'shang kabi. Frazeologik qo'shilmalarda esa ma'no taraqqiyoti bu darajaga yetmaydi: *oshning tuzi, gapning tuzi* va b.

Xulosa shuki, idiomatik so'zlar o'z ma'no taraqqiyotiga ko'ra frazeologik iboralarga, ayniqsa, frazeologik chatishmalarga (bir so'zga tengligi jihatidan) o'xshaydi, lekin idiomalarda dast-labki ma'no bilan ko'chma ma'no o'rtasidagi aloqaning bir-biridan uzoqlashuvi iboralardagiga nisbatan kuchli bo'ladi.

reja:

1. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Lug'atlarning asosiy tiplari.
 - a) qomusiy va lingvistik lug'atlar;
 - b) umumiy va maxsus lug'atlar;
 - c) tarjima va o'z tili (bir tilli) lug'atlar.
3. Xulosa.

Tilshunoslikning lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanuvchi va bu bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi sohasi *leksikografiya* (yoki *lug'atchilik*) deyiladi.

So'zlarning ma'lum maqsad bilan to'plangan, tartibga solingan kitob holatidagi yig'indisi *lug'at* deyiladi. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi. Ularning quyidagi asosiy tiplari mavjud: 1) *qomusiy* (ensiklopedik) *lug'atlar*, 2) *lingvistik* (filologik) *lug'atlar*. Lug'atning har ikki tipi ham ma'lum (alifbo) tartibida tuzilgan so'zlikka ega. Biroq ular qo'yilgan maqsad-vazifasi va xarakteriga ko'ra bir-biridan butunlay faqlanadi.

Lingvistik lug'atlarning so'zligi lug'aviy birliklar (so'z va frazeologik birikmalar)dan iborat. Qomusiy lug'atlarning so'zligida esa so'zdan boshqa birliklar ham bo'ladi. Masalan, *Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ikkinchi jahon urushi, Loy jangi* kabilar.

Lingvistik lug'atlarning ob'yekti lug'aviy birliklar bo'lib, ularda so'z va uning ma'nosi, grammatik va uslubiy ma'nolari kabilar haqida ma'lumot beriladi. Qomusiy lug'atlarning ob'yekti so'z emas. Ularda tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi.

Lingvistik lug'atlar adabiy til leksikasining ma'lum qatlami bilan chegaralanish-chegaralanmasligiga ko'ra quyidagi ikki asosiy tipga bo'linadi: 1) *umumiy lug'atlar*, 2) *maxsus lug'atlar*.

Umumiy lug'atlar so'zligida adabiy tilning barcha soha va qatlamga oid leksikasi aks etadi. Masalan, *«Ruscha-o'zbekcha lug'at»*, *«O'zbek tilining izohli lug'ati»*, *«Imlo lug'ati»* kabilar.

Maxsus lug'atlarning so'zligi biror sohaga yoki ma'lum bir qatlamga oid so'zlar bilan chegaralangan bo'ladi. Masalan, *«Sinonimlar lug'ati»*, *«Fraseologik lug'at»*, *«Matematika termin-lari lug'ati»* kabilar.

Tartibga solingan lug'aviy birliklar, ularga berilgan ta'rif-tav-siflar aynan bir tildan yoki boshqa-boshqa tillardan bo'lishiga ko'ra lug'atlar ikkiga bo'linadi: 1) *tarjima lug'atlari*, 2) *o'z ti (bir tilli) lug'atlari*.

Tarjima lug'atlarida tarjima qilinayotgan tilning lug'aviy birligi boshqa tilning ma'no jihatdan mos keladigan muqobili beriladi, o'zga tilning lug'aviy birligi tarjima

qilinib, tavsiflanadi. Ruscha-o'zbekcha lug'atdan namuna:

БКҮЧӨ. *mazali, shirin.*

НАДҮТ. *puflab shishirmoq, dam bermoq* kabi.

Tarjima lug'atlari ikki tilli va ko'p tilli bo'lishi mamkin. Ko'p tilli lug'atlarda bir tilning lug'aviy birligi ikki va undan ortiq tilga tarjima qilib beriladi. Tarjima lug'atlarining asosiy qismini ikki tilli lug'atlar tashkil etadi.

Tarjima lug'atlari o'zga til lug'at boyligini o'rganish, o'zlash-tirishda muhim qo'llanma – manba sifatida yaratiladi.

O'z til (bir tilli) *lug'atlarining* so'zligi va ularga beriladigan ta'rif-tavsiflar o'z til materialidan bo'ladi. Turli maqsadlarda tuzilgan lug'atlarning asosiylari quyidagilar: *izohli lug'at, imlo lug'ati, talaffuz lug'ati, morfem lug'at, chastotali lug'at, frazeologik lug'at, omonimlar lug'ati, sinonimlar lug'ati, ters (chappa) lug'at, antonimlar lug'ati, paronimlar lug'ati, evfe-mizmlar lug'ati, dialektal lug'at, terminologik lug'at* va b.

Bir tilli lug'atlarning ham *umumiy* (izohli, imlo, talaffuz lug'ati kabilar) va *maxsus* (omonimlar, sinonimlar, frazeologizmlar, evfemizmlar lug'ati kabi) tiplari mavjud.

Lug'at turlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Bu lug'at-larning vazifa ko'lami kengligidan dalolatdir. Lug'atlar muhim madaniy boylikdir. Ular o'zga tillarni o'rganishda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

- 1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.**
- 2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –1-qism.–Qarshi: Nasaf, 2004.**
- 3. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1978.**
- 4. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. –Toshkent: 1981.**
- 5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1965.**
- 6. Shoabdurahmonov SH. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1980.**
- 7. O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981.**
- 8. O'zbek tili grammatikasi. – I tom. –Toshkent: Fan, 1975.**
- 9. O'zbek tilining talaffuz lug'ati. (Begmatov E. va b.) -Toshkent: Fan, 1966.**
- 10. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Buxoro: 1992.**
- 11. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil.–Toshkent: O'qituvchi, 1981.**
- 12. Hozirgi o'zbek adabiy tili.– I tom. –Toshkent: Fan, 1966.**
- 13. Hozirgi zamon o'zbek tili (Fahri Kamol tahriri ostida).–Toshkent: Fan, 1957.**

MUNDARIJA

So'zboshi	3
«Hozirgi o'zbek adabiy tili»ning xususiyatlari va uning tarixiy taraqqiyot jarayonlari	4
Fonetika. Fonetika haqida umumiy ma'lumot	18
Unli fonemalar va ularning tasnifi	26
Undosh fonemalar va ularning tasnifi	28
Transkripsiya haqida ma'lumot	33
Nutq tovushlarining o'zgarishi	34
Urg'u	40
Orfoepiya	42
Orfografiya	50
Grafika	53
Leksikologiya	71
So'z va uning ma'nosi	73
So'zning o'z va ko'chma ma'nolari	77
So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. Sinonimlar	89
Antonimlar	93
Giponimiya	95
Graduonimiya (darajalanish)	95

Partonimiya	96
Omonimlar	96
Paronimlar	101
O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti	101
O'zbek tili leksikasining chegaralangan qatlami	110
Frazeologiya	117
Parafrazalar	121
Frazeologizmlar	122
Leksikografiya	130
Adabiyotlar	133
Mundarija	134

**Yomg'ir Abdurasulov
Anvar Omonturdiyev
Nasiba Raimnazarova**

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

**O'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi
uchun qo'llanma**

Muharrir: J.Omonturdiyev
Texnik muharrir: J.Shaymatov
Musahhih: R. Bozorova

© Terishga berildi – 15.12.2011. Bichimi 30x42 $\frac{1}{8}$.
Ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i – 8,3.
Bosishga ruxsat etildi – 25.01.2012. Adadi 500 nusxa
Termiz DU o'zbek tilshunosligi kafedrasida terilib, sahifalandi
Termiz shahri, F.Xo'jayev ko'chasi, 43-uy.

qaydlar uchun

136,1,134,3,132,5,130,7,128,9,126,11,124,13,122,15,120,17,118,19,116,21,114,23,112,25,110,27,108,29,106,31,
104,33,102,35,100,37,98,39,96,41,94,43,92,45,90,47,88,49,86,51,84,53,82,55,80,57,78,59,76,61,74,63,72,65,70,67

2,135,4,133,6,131,8,129,10,127,12,125,14,123,16,121,18,119,20,117,22,115,24,113,26,111,28,109,30,107,32,105,
34,103,36,101,38,99,40,97,42,95,44,93,46,91,48,89,50,87,52,85,54,83,56,81,58,79,60,77,62,75,64,73,66,71,68,69